

87
11-92



MUXAMMADIYEVA OLIYA



FALSAFA



Darslik

87.
11-92

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR

VAZIRLIGI

TERMIZ AGROTEXNALOGIYALAR VA INNAVATSION
RIVOJLANISH INSTITUTI

MUXAMMADIYEVA.O.N.

FALSAFA

Darslik

(barcha bakalavr ta'lim yo'nalishlari uchun)

Toshkent – 2025



UO*K: 1(075.8)

KBK: 87ya73

Muxammadiyeva.O.N.

**Falsafa. Darslik (barcha bakalavr yo'nalishlari uchun). - T.:
"PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2025. – 316 bet.**

Darslikda falsafa fanining obykti, subyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, genezisi, evolyutsiyasi, hozirgi kundagi rivojlanish tendensiyalari, ontologiyaning mavjudlik shakllari, borliqni anglash, mavjud reallikning rivojlanish qonuniyatlari, inson ongi va tafakkurining xususiyatlari, globallashuv jarayonlari davrida jamiyat hayotida yuz beradigan taraqqiyot va tanazzulning xarakterini bilish masalalari, korrupsiyaning shakllari, sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari; shuningdek axloq, estetika, mantiq fanlarining falsafiy bilimlar tizimidagi o'rni, ularning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati, diniy ma'rifatning mutaassiblik, terrorizmdan farqi, diniy e'tiqodning yo'nalishlari bir qator chizma va jadvallarda tasvirlash orqali bayon qilingan.

Darslik oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan barcha talabalarga, shuningdek, professor-o'qituvchilarga va falsafa ilmiga qiziquvchi kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

J. Yaxshilikov – falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

N.Muhammadiev – falsafa fanlari doktori, professor

И.Совфназаров – falsafa fanlari doktori (DS), professor

©. Muxammadiyeva., 2025.

©.TerAIRI., 2025.

ISBN: 978-9943-6254-8-8

©"PUBLISHING HIGH FUTURE" OK, 2025

SO'Z BOSHI

O'zbek xalqining falsafiy tafakkur qilish tarzi uzoq moziyga borib taqaladi. Birinchi va ikkinchi Renessans ana shu falsafiy tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Bunyod etilajak Uchinchi Renessansning ham ma'naviy zaminini umuminsoniy va milliy falsafiy tafakkur tarzi ustiga qo'riladigan o'zbek falsafasi tashkil qiladi.

Mustaqillik sharofati tufayli jahon falsafasining sarchashmalaridan suv ichayotgan o'zbek falsafasi «Yangi O'zbekiston orzusi»ni amalga oshirishda mustaqillikka odamlarimizning falsafiy dunyoqarashi tubdan o'zgarish uchun, chunonchi, bir tomondan, o'ta zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi orqali bir qator tabiat olamining sir-asrorlaridan voqif bo'lish, inson haq-huquqlarini himoya qilish, gender masalalarini hal etish, iqtisodiy integratsiya jarayonlarining shiddat bilan kechayotganliklarini; ikkinchi tomondan esa xalqaro terrorizm, hududiy kelishmovchiliklar, elatlar, millatlar o'rtasidagi ziddiyatlar, katta va kichik darajadagi geoiqtisodiy urushlar, ekologik kataklizmalar, ochlik va kambag'allik, oziq-ovqat tanqisligi, narkotiklar iste'moli va savdosi, SPID, koronavirus pandemiyasi va boshqalarning tajavvuzkor mohiyatini tezlikda anglab olishda metodologik qurol hisoblanadi

Bunday murakkab sharoitda har bir inson o'zining ichki dunyoqarashiga mos tarzda olam va unda sodir bo'layotgan narsa, voqea, jarayonlar orasidagi o'rinni anglab yetishi orqali qanday tarzda xatti-harakatlar sodir etishi belgilovchi o'rinni egallaydi. Zero, mavjud vaziyatning qanday darajada kechish yoki kechmaslik jarayonida falsafa ilmi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki, u boshqa fanlardan farqli o'laroq inson borlig'ini, hayotining ma'nosini, jamiyatdagi qadr-qimmatini tushuntirib berish, uni yanada kengroq tasavvur etishning yangicha usul va yo'nalishlarini aniqlab berish kabi metodologik vazifalarni bajaradi.

Demak, XXI asr jahon sivilizatsiyasi tarixiga insonning haq – huquqlarini har tomonlama qadrllovchi transformatsiyalangan bosqich sifatida kirib kelar ekan, unda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy, texnik va texnologik o'zgarishlarni anglab yetish uchun o'zbek falsafasi ilmiga bo'lgan

ehtiyoji yanada ortib boraveradi. Aniqroq aytganda, falsafa fani odamlarning ongi, taffakkuri, madaniyatini har tomonlama shakllanib, rivojlantirib, kishilik jamiyatining kelgusidagi istiqbollarini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston xalqlari tarixidan shu narsa ma'lumki, IX-XII asrlarda birinchi Renessans yuzaga keldi va jahon ahliga M. A. Xorazmiy, A. R. Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk faylasuflarni; islom dini olamining Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mu'in Nasafiy kabi qomusiy mutafakkirlarini; XV-XVI asrda ikkinchi Renessans davrida Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olimlar, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sharafiddin Al Yazdiy, Mirxon, Xondamir, Kamoliddin Behzod kabi jahonga mashhur olimlar, tarixchilar, shoirlar yetishib chiqdilar va o'zlarining o'lmas asarlarini yaratib, ularni jahon xalqlarin tarixiy merosining oltin xazinasiga aylantirdilar.

Bugungi kunda ana shu buyuk mutafakkirlarning o'lmas ishlarini davom ettirish imkoniyatiga ega bo'lgan bugungi avlod Uchinchi Renessansning poydevorini yaratishga harakat qilmoqda. Bu poydevorning ma'naviy ustunini yangicha falsafiy tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishilargina qo'yishi mumkin. Yangicha falsafiy dunyoqarash sohibi bo'lish uchun esa butun jahonda kechayotgan jarayonlarning rivojlanish mantig'ini tezda anglaydigan, ularning rivojiga ta'sir qilayotgan obyektiv va subyektiv omillarni to'g'ri baholay olish uchun falsafiy aql, falsafiy tarbiya ko'rgan mutaxassislar yangi avlodini tarbiyalab voyaga yetkaziy zarur bo'ladi. Bunga esa har qanday butun borliqda kechayotgan jarayonlarning metodologik asoslarini o'zida aniq ifodalab beruvchi falsafiy o'quv adabiyotlarining yangi avlodlarini yaratish, shu orqali yosh avlodga falsafiy ta'lim berish va tarbiyalash ishlarini amalga oshirish orqali erishiladi.

Muallif darslikni yozishda B. O. To'rayev, N. A. Shermuhamedova, S. Otamuradov, Q. Nazarov, Sh. Madayeva, J. Ya. Yaxshilikov, N. E. Muhammadiyev kabi olimlar tomonidan yozilgan kitoblardan bevosita va bilvosita tarzda foydalangan.

Mazkur darslikni yozishdan asosiy maqsad – yoshlarning dunyoviy, falsafiy va diniy bilimlarni o'rganishi asosida, ulardan ijtimoiy hayotda maqsalli foydalanish va to'g'ri fikrlash mahoratini shakllantirishdan; vazifalari esa yoshlarga falsafiy qonunlar va kategoriyalarni o'rgatish orqali mazkur voqelik haqida tizimli, kreativ fikrlash; falsafiy tafakkur nuqtayi nazaridan yondashish orqali shaxsiy, ijodiy jihatdan baholay olish; o'zini va o'zligini anglagan holda haqiqiy vatanparvar inson bo'lib yetishish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Bu ish qanchalik sodda va ravon tilda yozilsa, unga qiziqish ham shunchalik darajada ortib boradi va ishning natijasi samarali bo'ladi. Shuning uchun ham mazkur darslikni imkoni boricha soddaroq, hamma tushunishi mumkin bo'lgan tilda bayon qilishga harakat qilingan.

Darslik globallashtirish sharoitida shiddat bilan o'zgarib borayotgan tabiat olami, jamiyati hayoti, inson tafakkurida yuz berayotgan narsa, hodisa va jarayonlarning kelib chiqishining sabab va oqibatlarini, ularning mazmun va shaklini, kelgusida voqelikka aylanishi mumkin bo'lganligini bilishda dastur - amal vazifasini o'taydi, deb umid qilamiz.

I BOB. FALSAFA VA UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI

1-§. FALSAFANING PREDMETI, ASOSIY MASALALARI, TUZILISHI, FUNKSIYALARI, YANGI SOHALARI.

1.1. «Falsafa» va «filosofiya» atamaları haqida tushuncha. «Falsafa» atamasi qadimgi yunon tilidagi «filosofiya» soʻzidan olingan boʻlib lugʻaviy maʼnoda «donishmandlikni sevish» («*phileo*»- sevaman, «*sopia*» - donolik) degan mazmunni anglatadi. Bu soʻz dastlab taxminan eramizdan oldingi VI asrda yashagan taniqli matematik olim **Pifagor** tomonidan ishlatilgan va Yevropa madaniyatiga qadimgi yunon faylasufi **Aflotun** (mil. avv.427-347-y.) asrlari orqali kirib kelgan. Abu Nasr Forobiy «Falsafaning maʼnosi va kelib chiqishi haqida» nomli asarida «falsafa» atamasi yunon tilidan kelib chiqqanligini tasdiqlaydi. Demak, «Falsafa» va «filosofiya» atamaları bir xil maʼnoga ega boʻlib, uning kelib chiqqan makoni qadimgi Yunoniston hisoblanadi. Ular barcha ilm sohalarini filosofiya deb atashgan va «*barcha fanlarning otasi*» sifatida eʼtirof etishgan. Bugungi kunda ham katta ilmiy yutuqlarni erishgan ilm ahliga «*matematika fanlari boʻyicha falsafa doktori*», «*tibbiyot boʻyicha falsafa fanlari doktori*» kabi ilmiy unvonlar berilib, uning «otalik» maqomi ajdodlardan avlodlarga oʻtgan holda saqlanib kelinmoqda.

1. Falsafaning predmeti. Falsafaning predmeti bugun emas, balki, u oʻtgan ming yilliklarni oʻz ichiga olgan tarixiy davrlarda odamlarning madaniy taraqqiyot darajasiga mos ravishda shakllanib borgan. Falsafa ilm sohasi sifatida tarixiy rivojlanishining boshlangʻich davrlarida tabiat, kosmos va odam toʻgʻrisidagi barcha bilimlarni oʻz ichiga olgan holda kengayib borgan. Shu sababli qadimgi davr odamlari faylasuflarini har tomonlama bilimga ega boʻlgan olimlar, yaʼni qomusiy bilim egalari deb atashganlar.

Kishilar tomonidan «falsafa» nimani o'rganadi deyilsa, ularga falsafa hamma narsani o'rganadi deb javob berish mumkin. Chunki, faylasufning sinchkov aqli tabiiy va ijtimoiy hayotning eng har xil burchaklariga kirib boradi. Bu yerda yana bir bor shuni ta'qidlash kerakki, eng umumiy, eng keng qamrovli, eng muhim muammolar va masalalar tom ma'nodagi falsafaning bahs mavzulari-predmeti hisoblanadi. Ularni maxsus, butun tafsilotlarini o'rganish xususiy fanlarning faoliyat sohasi bo'lmish predmetini tashkil etadi.

3. Falsafaning predmeti. Madomiki, falsafa ijtimoiy ong shakli sifatida mavjud ekan, uning predmetini nimalar tashkil qiladi, ya'ni nimalarni o'rganadi degan savol tug'iladi? Bu savolga falsafaga turli davrlarda yashagan mutafakkirlar: falsafa – bu «donolikni sevish» (**Pifagor**), «tadqiqot bilan shugullanish» (**Geraklit**), «ezgulik va yovuzlikni bilish vositasi» (**Suqrot**), «narsalarning sababi va prinsiplarini tadqiq qilish» (**Arastu**), «baxt-saodatga aql bilan erishish vositasi» (**Epikur**), **Abu Nasr Forobiy**: «Mavjudot haqidagi bilim qo'lga kiritilsa, shu haqda ta'lim berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa, narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli dalil-hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fanni falsafa deymiz. ...

Falsafa bilimi ochiq-oydin ishonchli dalil-hujjatlarga ega bo'ladi. Odamlar falsafa yo'li bilan isbot etilgan mavjud narsa haqida to'la ishonch va qanoatga ega bo'ladilar.

Faylasufning xulq-atvori, axloqi ham o'z kasbiga loyiq bo'lishi kerak. Shuningdek, o'z xalqining ra'yini va o'z xalqida bo'lgan eng yaxshi urf-odatlarini qattiq tutgan bo'lishi kerak.

*Faylasuf bo'lmoqchi bo'lgan odam o'z axloqi va xislatlari bilan bu aytilgan shartlarga javob bera olsa, shundan keyin u falsafa bilimini o'rganishga va uni boshqalarga o'rgatishga kirishuvi mumkin»¹, – degan bo'lsa, «tushunchalar orqali ifodalangan bir butun fan», (**F. Bekon**), «to'g'ri fikrlash orqali bilishga erishish»*

¹ Forobiy Abu Nasr, Fozil odamlar shahri. – Toshent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.283.

(T. Gobbs), «umumiy aql haqidagi fan, umuman predmetlarga fikriy yondashish» (Gegel), «bor narsani bilish» (L. Feyrbax), «dumyoning mohiyatini abstrakt tushunchalar shaklida ifodalovchi ilm sohasi» (A. Shopengaur), «foydali narsalarni bilish jarayoni» (J. Dyui) o'rganadidegan ta'riflarni berganlar. Bunday ta'rif va tavsiflar falsafa tarixida ko'plab uchratish mumkin.

Zero, shunday ekan bugungi kunda ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan falsafa ilmiga ta'rif berishning o'ziga xos bo'lgan qiyinchiliklari ham mavjuddir. Buni *birinchidan*, insoniyat rivoji tarixining turli davrlarida yashagan mutafakkirlar tomonidan falsafaga berilgan ta'riflarning xilma xilligi; *ikkinchidan*, har qanday falsafiy ta'limotlarning barchasi har doim ham ilmiy bo'lmaganligi; *uchinchidan*, falsafa faqat sof aqliy bilishdan emas, balki turli xil dunyoqarashlar, axloqiy normalar, baholash mezonlari, qadrlash tamoyillarining u yoki bu jihatlari o'zida ifodalashi bilan izohlash mumkin.

Falsafa tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XVI asrning oxiri XVII asrga kelib tabiiy-tajribaviy fanlarning keng quloch yoyishi, ya'ni falsafadan oldin yer va osmon jismlari mexanikasi, astronomiya va matematika, so'ngra fizika, kimyo, biologiya fanlarining ajralib mustaqil fan maqomiga bo'lishi, yangi sharoitda falsafa fanining ham o'ziga xos bo'lgan predmeti aniqlab olish zaruriyati paydo bo'ldi. Badiiyoq qilib ifodalaganda, bunday tarixiy sharoitda *«barcha fanlarning otasi bo'lmish falsafa o'zining bor-yo'g'ini bolalariga bo'lib berdi, endi yashashi uchun uning o'zida nimalar qoldi»*, degan shaklidagi holat yuz berdi.

Bunday vaziyatning vujudga kelishida har doim falsafa bilan maxsus fanlar o'rtasida chegarani aniqlab olish orqali falsafaning o'ziga xos bo'lgan predmetini shakllantirish va rivojlantirib borish zarur bo'ladi. Buni maxsus aniq fanlarning predmetlari bilan falsafaning predmetini solishtirish-taqqoslash natijasida amalga oshirish mumkin. Buni isbotlash uchun ba'zi bir argumentlarni keltiramiz.

1. Falsafa fan sifatida butun olam haqidagi bilimlarni eng umumiy tarzda o'rganadi va umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan «borliq», «ruh», «ong», «qonun», «qonuniyat», «sababiyat» kabi kategoriyalarga aks ettiradi va tushuntiradi. Maxsus aniq fanlar esa borliqning u yoki bu tomonlarini, ularning tarkibiy tuzilishiga va

harakatlanish mexanizmlariga oid bo'lgan ba'zi bir tomonlarini alohida tarzda o'rganadi va maxsus alohida tushunchalarda aks ettirgan holda bayon qiladi. Masalan, «yurak», «jigar», «buyrak» va shunga o'xshash.

2. Aniq ilmiy bilimlar har bir narsani aniq, ravshan holda bayon qiladi va boshqacha tarzda talqin qilishiga hojat qoldirmaydi. Falsafiy bilimlar esa plyuralistik ahamiyatga ega bo'lib, bir masalani bir necha xil tarzda talqin qilish xususiyatlariga egaligi bilan aniq ilmiy bilimlardan farq qiladi. Shuning uchun ham falsafani tabiat va jamiyatda yuzaga kelgan muammoning umumiy yechimini topish, istiqbollari oldindan bashorat qilishni turli xil nuqtayi nazardan (din va fan, dunyoviylik yoki dahriylik) hal etishga qaratilgan umumiylik maqomiga ega bo'lgan fan sifatida e'tirof etiladi.

3. Falsafa fan sifatida aniq ilmiy fanlar bilan yaqinlashar ekan, o'zining holatini mantiqiy jihatdan asoslash, isbotlash, ularni nazariy shaklda ifodalashga harakat qiladi. Aniq ilmiy bilimlar obyektiv bo'lib, insonning maqsadlari va qadriyatlariga nisbatan betaraflik kasb etadi. Masalan, fizika va kimyo formulalari axloqiy qadriyatlar jumlasiga kirmaydi. Dunyoga nisbatan bo'ladigan falsafiy qarashlar hamma vaqt subyektiv bo'lib, u yoki bu narsa, hodisa, jarayonlarga nisbatan «befarq» emas. Chunki, har qanday falsafiy fikr odamlarning maqsad va manfaatlarini prizmasi orqali hosil qilinadi. Bunda, aniq fanlar «nega, nimaga», falsafa esa «qanday maqsadda, kim, nima uchun», degan savolga javob topishga urinadi.

4. Maxsus aniq fanlarning qonunlari borliqdagi narsalarning obyektiv aloqadorliklarini, munosabatlarini mavjud sharoitda o'zgarmas, doimiylik tarzda aks ettiradi. Masalan, kimyo, fizika, biologiya qonunlari insonning amaliy faoliyati davomida ulardan unumli foydalanish maqsadida kashf qilinadi. Aytaylik, fizika va mexanika qonunlari kashf qilinmaganda - zamonaviy kosmik tadqiqotlar yoki inson fiziologiyasi qonunlari kashf qilinmaganda - zamonaviy tibbiy davolash ham bo'lmagan bo'lar edi. Demak, falsafa ilmining boshqa maxsus aniq fanlardan farqi, unda empirik qonunlarining yo'qligidir. Shuningdek, uning bilish usullari sifatidagi eksperimental yoki matematik bazaning mavjud emasligidir. Bu esa falsafa o'rganadigan muammolarining natijalarini aniq tekshirib ko'radigan vositalar bilan

jihozlangan tashkilotlariga ega emasligi sababli, qoidaga muvofiq, yagona falsafiy etalonining ishlab chiqilmaganligidir. Boshqa aniq maxsus fanlarning barcha ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan o'ziga xos etalonlari mavjud bo'lib, ularning soni yil sayin ortib borishi bilan odamlarda katta qiziqish o'yg'atayotganligi bilan xarakterlanadi.

5. Barcha aniq maxsus fanlar inson faoliyatiga bog'liq bo'lmagan moddiy olamning obyektiv tarkibiy tuzilishini, ayni vaqtda inson dunyosining ko'proq tashqi tomonini bilish shakli sifatida faoliyat yuritisa, falsafa esa inson refleksiyasi shakli sifatida inson ma'naviy dunyosining ichki tajribasi rivojini o'rganish bilan shug'ullanadi. Fan odamlarning faoliyatiga bog'liq bo'lmagan obyektiv olamni bilish shakli bo'lsa, *falsafa esa* insonning reflektiv shakli hisoblanadi.

*Refleksiya*² –bu insonning dunyoni ma'naviy jihatdan o'zlashtirish hodisasi bo'lib, uning predmetini inson ichki dunyosining tashqi dunyoga munosabati tashkil qiladi. Shu sababli, uning xulosasi fandagi bilishga mos kelavermaydi. Shunday qilib, falsafa insonning inson faoliyatining umumiy asoslarini aks ettirish bo'yicha tizimlashtirilgan, oqilona aks etishi, inson ma'naviyatining rivojlanish tajribasini umumlashtiruvchi ta'limotdir. Falsafa – bu inson ma'naviyatining alohida o'lchovidir.

Shunday qilib, agar har xil davrlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlar tomonidan falsafaning predmetini belgilashga oid qarashlarni birlashtirsak, «falsafa»ni taxminan «haqiqatga doimiy muhabbat» va «haqiqatni sevish, donishmandlikka intilish», deb tushunish mumkin³. Ayni vaqtda, *falsafa insonning inson faoliyatining umumiy asoslarini aks ettirish bo'yicha tizimlashtirilgan, oqilona aks etishi, inson ma'naviyatining rivojlanish tajribasini umumlashtiruvchi ta'limotdir. Falsafa inson dunyoqarashining o'ziga xos, maxsus, intellektual faoliyatning boshqa yo'nalishlari va turlarini*

² *Refleksiya* – lotincha *reflexio* – ortga qaytish, aks etish ma'nosini anglatgan holda, falsafa ilmida-kishining o'z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida bir shakli sifatida tushuniladi.

³ Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – B. B.273-274.

takrorlamaydigan shakldir. Uning predmetini subyekt-obyekt munosabati nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadigan bo'lsak «odam – olam» munosabatlari tashkil qiladi.

Shunday qilib, falsafa:

- 1) olamning tabiati va mohiyatini;
- 2) odamning tabiati, mohiyati va maqsadini;
- 3) umuman «odam – olam» tizimining holati va umumiy tuzilishini o'rganadi.

Demak, falsafa – bu olamda odamning tutgan o'rni va uning mavjud dunyoga nisbatan turli xil shakldagi munosabatlarini ifodalovchi eng umumiy ilmiy-nazariy qarashlar tizimidir. Falsafa – bu inson ma'naviyatining alohida o'lchovidir.

2. Falsafiy bilimlarning predmetlari bo'yicha tuzilishi. Falsafaning predmetidan ham ko'rinib turibdiki, falsafa «odam-olam» munosabatlarining eng umumiy tomonlarini o'rganar ekan, shunga muvofiq tarzda odamlar bilishi, belgilashi, tadqiq qilishi mumkin bo'lgan sohalar bo'yicha bir qator falsafiy bilimlar yuzaga kelib, ular moddiy va ma'naviy olamning eng umumiy rivojlanish qonuniyatlarini tadqiq qilish orqali, boshqa fanlar uchun umummetodologik ahamiyat kasb etmoqda.

Ularni olamning mavjudlik va reallik sohalarini o'rganishlariga qarab, ya'ni predmetlari bo'yicha tuzilishga qarab quyidagilarga ajratish mumkin.

Bunda 1) Koinot va tabiatni anglab yetish bo'yicha – ontologiya, tabiat falsafasi, taraqqiyot nazariyasi;

2) *jamiyat va uning tarixini bilish bo'yicha* – sotsiologiya, ijtimoiy falsafa, tarix falsafasi, madaniyat falsafasi, akseologiya;

3) *insonni o'rganish bo'yicha* – falsafiy antropologiya, antroposofiya;

4) *ma'naviy jarayonlar bo'yicha* – gnoskologiya, mantiq, etika, estetika, din falsafasi, huquq falsafasi, falsafa tarixi, axborotning falsafiy masalalari va boshqa shu kabi falsafiy bilim shakllari ko'payib bormoqda.

Mazkur falsafiy bilimlarning predmetlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- ontologiya – borliq qonunlari to'g'risidagi ta'limot;
- natur falsafa – tabiat to'g'risida falsafiy ta'limot;
- teologiya – xudo to'g'risida gi ta'limot;

- falsafiy antropologiya – inson to'g'risidagi ta'limot;
- ijtimoiy falsafa – jamiyat rivojlanish to'g'risidagi ta'limot;
- gnoseologiya, yoki epistemologiya – bilish to'g'risidagi ta'limot;
- etika – axloq va odob to'g'risidagi ta'limot;
- logika – tafakkur qonunlari to'g'risidagi ta'limot;
- estetika – go'zallik qonunlari to'g'risidagi ta'limot;
- aksiologiya – qadriyatlari to'g'risidagi ta'limot;
- falsafa tarixi – falsafa rivojlanishi to'g'risidagi ta'limot;
- germenevtika – ma'no-mazmun to'g'risidagi ta'limot va boshqa sh. k.

3. Falsafaning paydo bo'lishi va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati.

Dastlabki hozirgi ma'lum, shakllangan falsafiy ta'limotlar milloddan avvalgi VII va VI asrlarda bir vaqtning o'zida har xil mintaqalar – Qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy, Qadimgi Yunonistonda, Qadimgi Turonda paydo bo'lgan. Shu bilan birga shunday asoslash borki falsafiy manbalar xitoy, hind, misr, turon va boshqa sivilizatsiyalar tarixining ilk davrlariga to'g'ri kelganligini mifologik, diniy va falsafadan oldingi adabiy manbalarda aks ettirilgan ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Dastlabki inson va jamiyat to'g'risida qadimgi qarashlarda ildiz otgan falsafiy donishmandlik an'anaviy turmush tarzini tanqiy tahlil qilishning ifodasi bo'lib, uning birinchi kurtaklari kundalik, an'anaviy, patriarxal hayotning adolatligi va haqiqiylikiga shubha bilan qarashlar asosida paydo bo'lgan edi. Umuman falsafa mifologik-diniy ongning usullari tabiiy va ijtimoiy voqelikni tushuntirishga qurbi yetmay inqirozga uchragan davrida haqiqiylikni umumiylikdan, asillikni yasamalikdan ajratish, yangi mustahkam dunyoqarashni yaratish va yangi hayotiy yo'nalishlarni aniqlash zaruriyati tufayli vujudga keldi. Bu vazifalarni hal etishga bo'lgan urinish esa, o'z navbatida dunyo va odam to'g'risida tanqidiy, aqlan fikrlash to'g'risidagi dunyoqarashning yangi turi bo'lmish falsafaning rivojlantirishga sabab bo'ldi.

4. Falsafaning asosiy masalasi: bahslar va yechimlar. Falsafaning asosiy masalasi to'g'risida har xil qarashlar mavjud. Masalan, hind klassik falsafasi uchun u insonni azob-uqubattan qutqazishning amaliy yo'llarini izlash, mayi hokimiyati

(xayollar), karm (savob qonuni), azoblar dunyosida – yer dunyosida doimo qayta tug'ilishning zarurligi bilan bog'liq. Hind donishmandlari uchun falsafa oliy ma'naviy dunyoda o'limsiz hayotga erishish vositasidir. O'rta asr diniy falsafasida eng muhimi jonni saqlash va Xudoni bilishdir. Nemis faylasufi Immanuel Kant falsafaning bir nechta masalalarini ifodalaydi: «men nimani bilaman?» «men nima qilishim kerak?» «nimaga men ishonishim kerak?»

Markscha-lenincha falsafada ruh va materiya (ong va borliq) ning munosabati asosiy masala sifatida qaraladi. Bu holda, bu masalaning ikki jihati bor. Birinchi: nima birlamchi – ruh yoki materiya (ontologik jihat). Bu savolga javob berishiga qarab filosoflar materialistlar va idealistlarga bo'linadi: materialistlar (Brixaspati, charvak maktabi, Levkipp, Demokrit, Kondilyak, Lametri, Golbax, Gelvetsiy, Feyerbax, Marks, Engels, Lenin va boshqalar) va idealistlar (Budda, Platon, Aristotel, Origen, Avgustin, Foma Akvinskiy, Dekart, Leybnis, Shelling, Gegel, Solovyev, Berdyayev va boshqalar). Idealizm doirasida obyektiv va subyektiv idealistlar mavjud. Materializm doirasida: qadimgi tarqoq, sodda qadimgi materializm, Yangi dunyoning mexanik materializmi va XIX-XX asrlardagi dialektik materializm.

Ikkinchi marksistlarcha falsafa asosiy masalasining (gnoseologik) jihati: dunyoni bilish mumkinmi? degan savol. Yanada aniqroq ifodalansa u quyidagicha: ong borliqni aynan ifodalashga qodirmi? Dunyoni to'la va qisman bilishni inkor qiluvchilar agnostiklar (sofistlar maktabi, D. Yum, pozitivizm va neopozitivizmdagi ba'zi bir oqimlar, Dj. Santayana va boshqalar) deyiladi.

Hozirgi kunda ularning muqobili sifatida sinegetik materializmning tabiat va jamiyat olamini tushuntirib berishga qaratilgan harakatlari ham falsafiy ta'limot sifatida falsafiy bilimlar tizimidan joy olmoqda.

Ba'zi falsafiy oqimlar nuqtayi nazaridan «falsafa bosh masalasi»ning marksistlarcha qo'yilishi xato hisoblanadi. Masalan, teosofiya va «Tirik Etika» (Ye. P. Blavatskaya, Ye. I. Rerix va boshqalar) ruh va materiyani Yagona kosmik substansiya (Birlamchi) asosiy belgi sifatida qaraydi. Shuning uchun ular materiya va ruhning birlamchiligining marksistlarcha ifodalanishi uydirmadir, deb hisoblaydilar.


Bugungi kunda tarixiy ildizi juda qadimiy bo'lgan o'zbek falsafasi o'zining asosiy masalasini – moddiy va ma'naviy olamning uzviy birligi sifatida talqin qilmoqda. Masalaning bunday yechim topishi bizning milliy shakldagi dunyoqarashimizga mos keladi.

5. Falsafiy tizim va an'analarning tasnifi. Falsafa fani 3-2,5 ming yillik tarixga ega ekan, uning bosib o'tgan yo'lini, jamiyat rivojiga qo'shgan hissasini, kelgusidagi istiqbollarini hisobga olgan holda konkret dunyoqarash va nazariy asoslash yo'nalishlari, ochiqligi va hammabopligi, tarixiy belgilari, geografik belgilari, moddiy va ma'naviy asoslar birlamchiligi masalasining yechimi, aniq mafkuraviy konsepsiyalar, nazariyalar, g'oya va dinlar kabi mezonlar bo'yicha quyidagicha tasniflash mumkin. (1-jadvalga qarang)

Falsafaning tasnifi (1 qism)



Falsafaning tasnifi (2 qism)



7. Falsafaning maqsadi va asosiy funksiyalari. *Falsafa fanining maqsadi – bu «odam – olam» munosabatlari doirasida olamning borligini, birligini, harakat va rivojlanishda ekanligini ilmiy-amaliy jihatdan tushuntirishdan iborat.*

Falsafaning funksiyalari – bu falsafaning inson bilimlarining boshqa sohalariga va hayot jabhalariga ma’lum darajada o’z ta’sirini o’tkazadigan munosabatlarning nazariy – amaliy ifodasidir.

Falsafaning jamiyat hayotida katta va betakror rol o’ynashi uning bajaradigan asosiy funksiyalarida yanada aniqroq namoyon bo’ladi. Uning asosiy funksiyalari quyidagilardir: 1) dunyoqarashlik; 2) ontologik; 3) metodologik; 4) gnoseologik; 5) ijtimoiy; 6) aksiologik; 7) evristik funksiyalaridir.

1. Dunyoqarashlik funksiyasi. Falsafa dunyoni bir butun holda aks ettirib, unda insonning dunyoga munosabati haqidagi barcha bilimlarimizni nazariy jihatdan umumlashtirib, uni o’zlashtirish asosida bizni borliq, materiya, tabiat, jamiyat, inson, uning ongi va tafakkuri, insonning dunyoni bilishi to’g’risidagi eng umumiy qarashlar bilan qurollantiradi. Bu falsafaning dunyoqarash funksiyasi bo’lib, u falsafaning, falsafiy bilimlarning asosiy xususiyatidir.

2. *Ontologik funksiyasi* – bu borliqni, uning tuzilishini, rang-barangligini, shakllarini o'rganishda namoyon bo'ladi.

3. *Metodologik funksiyasi*. Borliqning turli tomonlarini xususiy fanlar o'z metodlari bilan tahlil qilishadi. Shu bilan birga, borliqni o'rganishda xususiy fanlar umumiy xulosalar chiqarish uchun falsafiy metodlardan ham foydalanishadi. Chunki falsafiy metodlar borliq, tabiat, jamiyat, bilish, ong va boshqa kategoriyalarning, narsa va hodisalarning mohiyatini, eng umumiy tomonlarini, bog'lanish va aloqadorligini bilish imkoniyatini beradi. Aniq fanlar rivojlangan sari falsafiy metodlarning ahamiyati ham ortib boradi. Falsafiy metodlar aniq fanlar yutuqlarini umumlashtirib, olam haqida yaxlit tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Aynan shu vazifani falsafiy metodologik umumlashmalar, falsafiy metodlar bajaradi.

Umuman, falsafa alohida fanlar uchun, ularning tabiat va jamiyatning borliq va ongning aniq tomonlarini o'rganishda, tadqiq qilishda eng umumiy metod rolini o'ynaydi.

4. *Gnoseologik funksiyasi*. Falsafa dunyoni bilish muammosini o'rganar ekan, uning umumiy metodlarini ishlab chiqib, inson bilish jarayonining umumiy nazariyasini yaratadi. Shu asosda inson bilish, uning rivojlanish tendensiyalari va eng umumiy qonunlarini ochib beradi. Falsafa inson amaliy tajribasida hosil bo'lgan bilimlarning haqiqatligini tekshiruvchi mezonlarni ham tadqiq etadi.

Falsafa inson oldiga, avvalo, o'zini anglash va so'ngra borliqni o'rganish masalasini ham qo'yadi. Dunyoni bilish asosida inson o'zi o'zgarib, dunyoni oqilona anglab, so'ngra amaliy faoliyatida falsafiy umumlashmalarga tayanadi. Bunday hollarning barchasida falsafaning gnoseologik vazifasi namoyon bo'ladi.

5. *Ijtimoiy funksiyasi*. Jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribasi o'rganilib va tahlil qilinib, xulosalar chiqarib boriladi. Uning hozirgi kundagi imkoniyatlari, ehtiyojlarini bilishdan kelib chiqqan holda jamiyatning kelgusidagi istiqboli aniqlanadi.

6. *Aksiologik funksiyasi*. Jamiyat hayotining hozirgi sharoitida falsafaning aksiologik funksiyasi ko'proq ahamiyat kasb etmoqda. Bu funktsiyaning mohiyati shundaki, falsafa inson hayotining mohiyatini, asosiy mazmunini, insonning


turmushdagi qadr-qimmatini, jamiyatda tutgan o'rnini, uning axloqiy, gumanistik prinsiplar va g'oyalarni baholash asosida tushuntiradi. Shu jihatdan qaraganda, hozirgi kunda insoniyat boshiga xavf solayotgan jahon termoyadro urushi, qurollanish poygasining yanada avj olishi, ekologiya buzilishi, energiya zaxiralarining tugab borishi, jamiyatda yuz berayotgan moliyaviy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy tangliklar sharoitida turli maqsadlar va faoliyat natijalarining gumanistik g'oyalar bilan qo'shib borishi, insoniyatning yer yuzida yashab qolishi muammolari umuminsoniy qadriyatlarni birinchi o'ringa chiqarmoqda. Inson o'z qadr-qimmatidan kelib chiqqan holda o'zini ehtiyoqlashga, tabiatni qo'riqlashga intilib boraveradi. Insoniyat o'z tarixiy rivojlanishi davrida manfaatlar bilan bog'liq juda ko'p qadriyatlarni yaratgan. Falsafa esa uni ogohlikka chaqirmoqda.

7. *Evristik funksiyasi.* Evristika (yunon. «Evriko» so'zi «izlayman», «ochaman» degan ma'noni anglatadi) - metodik jihatdan yangilik ochishga oid qo'llanma, yangilik kashf etish san'atidir. Falsafaning evristik funksiyasi yangilik ochishga qaratilgan bo'lib, yangilik ochishga xizmat qiladi. Masalan, yangi g'oya va dalillar ochish hamda ilmiy bayonda tizimli bayonlashga qarama-qarshi bo'lgan holda yangi ilmiy natijalarga erishish yo'lini tasvirlab berish shular jumlasidandir.

8. Falsafaning metodlari. Falsafaning metodlariga quyidagilar kiradi.

1. *Dialektika metodi.* «Dialektika» yunon tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Dialektika olamdagi narsa va hodisalar doimo o'zgarishda, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikda, taraqqiyot va rivojga – nishda deb tushunishdir. Dialektikaga ko'ra, olamda o'z o'rniga va joyiga, yashash vaqti, harakat yo'nalishiga ega barcha narsa, hodisalar o'zaro bog'liq hamda aloqador tarzda, bir-birlarini taqozo etadigan, doimiy va takrorlanib turadigan bog'lanishlar orqali namoyon bo'ladi.

2. *«Metafizika»* yunoncha so'z bo'lib, so'zma-so'z tarjimai «fizikadan keyin» degan mazmunni bildiradi. Bu tushuncha falsafa tarixida birinchi marta, qadimgi Yunonistonning buyuk faylasufi Arastuning «ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.



Metafizika – tabiatshunoslikdan falsafiy metod sifatida falsafaga kiritilgan bo'lib, dunyodagi narsa va hodisalarni bir – biridan ajralgan holda, umumiy bog'lanishdan tashqarida tekshirishga va shuning natijasida narsa, hodisalarni harakatda emas, balki harakatsiz holatda, muhim darajada o'zgaradigan narsalar sifatida emas, balki abadiy o'zgarmaydigan, tirik emas, balki o'lik narsalar sifatida tekshirishga qaratilganligi bilan ifodalanadi.

3. *Sofistika* («ataylab xato dalillar asosida», «ko'p ma'noli so'zlarga asoslanib fikr yuritish») - bilib turib, xato asoslardan yolg'on xulosa chiqarish (bu yerda so'fiylik falsafasi emas, o'rta asrlarda Yevropada keng tarqalgan alohida falsafiy ta'limot nazarda tutiladi).

Sofistik tafakkur usuli dastlab qadimgi yunon falsafasida paydo bo'lib, ayniqsa o'rta asrlarda keng tarqaladi va rivojlanadi. Qadimgi davr yunon falsafasida biror-bir bilim sohasini mukammal egallagan kishilar *sofistlar* deb atalgan bo'lsa, keyin chalik o'rta asrlarga kelib, notiqlik, bilimdonlik, donishmandlik bilan nom chiqargan kishilar hamda turli omonim so'zlar asosiga qurilgan turli fikrlar bilan kishilarning boshini qotiradigan, ustomonlik bilan ular fikrlarini chalg'itadigan kishilar ham sofistlar deb atala boshlagan.

Sofistik tafakkur usuli sofistlik muhokama jarayonida bila turib, atayin yolg'on asoslardan yolg'on xulosalar chiqarish asosida fikr yuritishdir.

4. *Eklektika* (yunon. - «tanlayman») turli qarama-qarshi nazariya – larni, qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli bo'lib, narsa va hodisalarning muhim va nomuhim, asosiy va asosiy bo'lmagan xususiyatlari, ular o'rtasidagi bog'lanishlar mexanik ravishda birlashtirilib, qorishtirilib ifodalanadi.

5. *Dogmatika* (yunoncha «o'zgarmas», «qotib qolgan», «aqida») - aniq shart-sharoitlarni hisobga olmay qo'llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir. Dogmatik tafakkur falsafadagi amaliyot va fanning yangi ma'lumotlarini hisobga olmay, aniq makon va zamon bilan bog'liq bo'lmagan, o'zgarmas tushuncha hamda qoidalar bilan ish ko'ruvchi tafakkur usulidir.

6. *Sinergetika* olamning o'z-o'zini tashkil etish, makon va zamonda narsa va hodisalarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan

tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmui – dir. U asosan XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ta'limot bo'lib, asoschisi Nobel mukofoti sovrindori I. Prigojindir. Bu ta'limotni dialektika asosida shakllangan va uni to'ldiradigan ilmiy qarashlar majmuasi deydigan, ularga qarshi o'laroq, dialek – tika endi kerak emas, uni sinergetika bilan almashtirish lozim deb hisoblovchilar ham bor.

Sinergetikaning XX asrdagi shaxdam odimlari o'rta asrlarda Yevropada aniq fanlar sohasida induksiya va deduksiya usullarining muvaffaqiyatli qo'llangani, katta mavqega ega bo'lgani va pirovard natijada, falsafiy metodga aylanganini eslatadi. Sinergetikani XX asr tabiiy fanlarining falsafa sohasiga kiritayotgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Ammo, bu uning dialektikani falsafadan butunlay surib chiqarganini bildirmaydi. Zero, falsafada har bir ta'limot metodning o'z o'rni, faoliyat darajasi bor. Dialektikaning falsafadagi o'rni, qadr-qimmatini juda katta va u falsafaning asosiy qismlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Falsafiy bilimlar juda keng qamrovli bo'lib falsafa tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri taraqqiyotining eng umumiy qonunlarini o'rganadi va insonlarda falsafiy dunyoqarashni shakllantiradi.

2.9. Falsafaning inson va jamiyat hayotda tutgan o'rni. Falsafaning inson va jamiyat hayotida tutgan o'rni – bu uning inson va jamiyat rivoji uchun qo'shgan hissassi va kelgusida nimalarni bajarishga qodir ekanligi bilan belgilanadi.

Falsafaning inson va jamiyat hayotidagi amaliy ahamiyati:

1. Olamning eng umumiy qonunlari va prinsiplarini bilish.
2. Olamda o'zining tutgan o'rmini va umrining mazmunini anglash.
3. Haqiqiy hayotiy qadriyatlarni ajrata bilish va shunga qarab o'z hayotini tashkillashtirish.
4. Dialektik tafakkur tarzini egallash, ya'ni hayotning barcha qarama-qarshiliklarini anglash va ular orasidan to'g'ri yo'lni tanlash.
5. O'zining barkamolligini ta'minlash yo'lida falsafiy aql-zakovatni ishga solish.

6. O'zining ichki ma'naviy dunyosini har xil hayotiy «*taqdir zarba*» lariga bardoshli qilib chiniqtirishni mustahkamlash.

7. Hozirgi zamon bilimlari puxta o'zlashtirgan holda, uning kelgusidagi istiqbollarini ko'ra bilish bilan belgilanadi.

2.11. Falsafaning hozirgi kunda yangilanib borish zaminlari. Hozirgi zamon falsafasining shakllanib borish zaminlari – bu uning yangi sharoitda rivojlanishini, yetakchilik xususiyatini ta'minlashga xizmat qiluvchi ijtimoiy shart-sharoitlar, ilmiy kashfiyotlar va nazariy iitanmalarning ko'lamini bilan belgilanadi.

Falsafaning hozirgi kunda yangilanib borish zaminlarini:

- informatsion-texnologik ishlab chiqarishning qaror topishi va tobora rivojlanib kengayib borishi;

- jahonda «*o'rta hol*» aholi qatlamining o'sishi natijasida ijtimoiy munosabatlar va jamiyatning ijtimoiy strukturasi yuz berayotgan o'zgarishlar;

- texnogen iktisodiyotdan neoiqtisodiyotga o'tishda yangi tipdagi professional, zamonaviy falsafiy tafakkur madaniyatini egallagan ishchi va xizmatchilar avlodining dunyoga kelayotganligi;

- fundamental fanlar sohasida qilinayotgan buyuk kashfiyotlar (sinergetika, vakuum nazariyasi, antrop prinsipi, mikroelektronika va boshqalar) va ularning dunyoning zamonaviy ilmiy manzarasini yaratish borasidagi sa'y – harakatlari;

- falsafa sohasida amaliyotdan kelib chiqqan holda yangi nazariy g'oyalarni ishlab chiqish va uni ijtimoiy sohada qo'llash va boshqalar tashkil etadi.

Dunyoqarashning mohiyati, tuzilishi va asosiy funksiyalari.

Falsafani o'rganish dunyoqarash tushunchasining mazmunini bilib olishdan boshlanadi. Dunyoqarashda butun olamning mohiyati va xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar va ularning yechimi to'g'rida fikrlar yuritiladi. Bu muammolar olamning kelib chiqishi va uning nechtaligi, strukturasi va tashqi shakli, o'zgarish va rivojlanish qonuniyatlari, katta kichikligi va nimadan tashkil tongani va shu kabi murakkab ilmiy-nazariy masalalarni ichiga oladi. Ularni barcha fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlarni umumlashtirish natijasida bir muncha to'g'ri hal qilish mumkin.

1.2. Dunyoqarash tushunchasi. Har bir insonning o'zini o'rab turgan turfa olam – dunyoga nisbatan qarashlari bo'ladi. O'zbek tilida «**Dunyo**» [arabcha–jahon, olam] so'zi quyidagi: «1) butun borliq; koinot, olam; 2) borliqning, mavjudotning ayrim bo'laklari yig'indisi, to'plami; 3) jonli tabiatning ayrim qismlari, ular yashaydigan muhit; 4) ijtimoiy hayot yoki turmushda yuz bergan (mavjud bo'lgan) holatga nisbatan, unga qarama-qarshi bo'lgan boshqa bir holat; 5) atrofimizni o'rab turgan butun mavjudot; atrof muhit; 6) Yer yuzi va undagi barcha odamlar, insoniyat; 7) Yer yuzi, undagi barcha qit'alar, mamlakatlar; 8) hayot, tiriklik; 9) kishilarning ma'naviy, ruhiy olami, hyoti; 10) ma'lum bir im-fan, kas-hunar, ijtimoiy hodisa sohasi; 11) ma'lum bir ijtimoiy tuzumga, o'ziga xos madaniy va ijtimoiy-tarixiy xususiyatlarga ega bo'lgan omillar bilan birlashgan kishilik jamiyati va u mavjud bo'lgan davr; 12) boylik, davlat»⁴, – degan ma'nolarni anglatish uchun ishlatiladi. Demak, *dunyoqarash – bu «dunyo» so'zidan olingan bo'lib, individ, shaxs, katta va kichik jamoalar, elat, millat, xalqlarning – butun dunyoga, unda o'zining egallagan o'rniga, atrofdagi real voqelikka, ularning ayrim voqea-hodisalariga bo'lgan ilmiy, mafkuraviy, ma'naviy, ilohiy qarashlar tizimidir.* Falsafiy adabiyotlarda ko'pincha «dunyo» va «olam» atamalari sinonim so'zlar sifatida qo'llaniladi. Chunki, «olam» so'zi ham arabcha bo'lib, odatda dunyo, jahon; koinot; xalq, omma ma'nosini anglatadi⁵.

Dunyoqarash bu shunchaki olam to'g'risidagi qarashlar tizimidan iborat emas, balki unda odamzod ongu-tafakkurining o'ziga xos bo'lgan o'zini o'zi anglash shakli ham, demakdir. Bunda «odam – olam» munosabatlari dunyoqarashning asosiy masalasini tashkil qiladi. Shunga ko'ra dunyoqarash – inson ongining muhim atributlaridan biri hisoblanadi. Yevropa olimlarining fikriga ko'ra «Dunyoqarash» tushunchasini birinchi bo'lib nemis mumtoz faylasufi Immanuel Kant ilmiy bilimlar tizimiga kiritgan, emish.

⁴ Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – T.: "Uzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B. 662-664

⁵ Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. 3-jild. – T.: "Uzbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B. 105

1.4. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilishi. Dunyoqarash murakkab tuzilishga ega bo'lgan ma'naviy hodisa bo'lib, uning mazmun-mohiyatini belgilashda bilimlarni umumlashtirish, ishonch, qadr-qimmat, ideal, e'tiqod, faoliyat, hayot normalari muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoqarashga yarim funksionallik xos bo'lib, uning asosini odamning dunyo sir-asrorlarini bilishda fizio-psixologik mehanizmlar orqali mo'ljall olishi tashkil qiladi. Bunda so'z inson ma'naviy dunyosining hissiyot, aql, erk va ularning birgalikda harakat qilishi haqida ketmoqda. Shunga ko'ra, dunyoqarashning tarkibiy qisimlariga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi.

Dunyoqarashning tarkibiy qismlari:

a) *dunyoni sezish* – bu odamlarning olamdagi real mavjud narsalarni sezgi organlari orqali his etishi bo'lib, uni dunyoqarashning emotsional – ruhiy;

b) *dunyoni idrok etish* – kishilarning atrof-borliqni orttirilgan tajribasi tufayli timsoliy idrok etishi bo'lib, uni dunyoqarashning dunyo haqida tasavvurlarning shakllanish;

v) *dunyoni tushunish* – dunyoning mohiyatini, undagi narsa va hodisalarning o'zaro aloqalarini bilib olish bo'lib, uni dunyoqarashning intellektual darajalaridan tashkil topgan bo'ladi.

Demak, odamlarning tabiat va jamiyat haqidagi bilimlari sintezlanib dunyoning umumiy manzarasi, tabiatshunoslik ilmlarining qo'shilishidan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi, ijtimoiy fanlarning mantiqiy birlashishidan dunyoning ijtimoiy-tarixiy manzarasi, dunyoning mafkuraviy manzarasi kabilar yaratiladi. Dunyoning umumiy manzarasini ishlab chiqish esa barcha ilm sohalarining vazifasi hisblanadi.

Dunyoqarashni sohiblariga ko'ra ikkiga ajratimiz.

1. Individual dunyoqarash.

2. Ijtimoiy dunyoqarash.

1. *Individual dunyoqarash* deb dunyo to'g'risida bir kishiga yoki alohida shaxsga xos bo'lgan qarashlarga aytiladi. Uning sohibi – bu konkret odam hisoblanadi. Masalan, fuqaro Olim Ahmedovning dunyoqarashi individual dunyoqarashlar jumlasiga kiradi.

2. *Ijtimoiy dunyoqarash deb dunyo-olam haqida mehnat va xizmat jamoalari, ijtimoiy guruhlar, partiyalar, elat, millat, xalqlar, xullas butun jamiyatga xos bo'lgan qarashlar tizimiga aytiladi.* Bunga, masalan, O'zbekistondagi siyosiy partiyalarning dasturlarini kiritish mumkin. Ijtimoiy dunyoqarashning negizida alohida odamlarning dunyoqarashlari yotadi. Har qanday dunyoqarash – ko'p o'lehovli tizim bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishida inson ong va ong ostining turli xil sezgi, kayfiyat, intilish, ishonch, bilim, qadriyat, baho, kabi qismlari ishtirok etadi. Yuqoridagi tarkibiy qismlar, bir butunlikni tashkil qilib, insonning real hayotida u yoki bu darajada o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad fuqarolarimizning dunyoqarashini o'zgartirishdan iboratdir. Milliy tiklanishdan–milliy yuksalishga o'tish borasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida Sh. M. Mirziyoyev aytganidek» Dunyoqarashni – ilm, daromad, manfaat o'zgartiradi»⁶.

1.7. Dunyoqarashning tasnifi. *Dunyoqarashni tasniflash deb ularning umumiyligi, egallagan o'rni, shakllari, nazariy yetukligi darajalariga qarab bir nechta turlarga ajratishga aytiladi.*

Bunda dunyoqarashni quyidagi:

- 1) *umumiyligi bo'yicha:* individual; jamoaviy; umuminsoniy;
- 2) *tarixiy shakli bo'yicha:* mifologik; diniy; falsafiy;
- 3) *tarixiy o'rni bo'yicha:* antik-qadimgi; o'rta asr; zamonaviy;
- 4) *nazariy yetukligi bo'yicha:* kundalik ommaviy; nazariy turlarga ajratish mumkin.

1.8. Dunyoqarashning darajalari. Dunyoqarashning darajasi har bir odamning ongida sifati bo'yicha qanday dunyoqarash qaror topganliginn bildirali. Odamning dunyoqarashini uning darajasi bo'yicha asosan *hayotiy-tajribaviy va ilmiy-nazariy turlarga* bo'lish mumkin.

Har bir odam o'ziga xos va o'ziga mos bo'lgan dunyoqarashga ega bo'ladi. Bir odam barcha fanlar asoslarini teran bilmasada, olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va

⁶ <https://www.uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoev-dunyo-arashni-nima-uzgartiradi-ilm-daromad-manfaat>

hako-zolar mohiyatlarini o'zining ko'p yillik shaxsiy va ijtimoiy hayoti va mehnat tajribasi asosida birmuncha bilib oladi. Ko'p-umr ko'rgan odamlarning dunyoqarashi o'z hayoti tajribasidan olgai bilimlarga boydir. Shuning uchun ham xalqimiz orasida «Qari bilganini pari bilmas» va «Qari bor uyda pari bor» degan gaplar bejiz keng tarqalmagan. O'zbek xalqining eng nodir udumlaridan biri ham qariyalarni e'zozlash va ularning pand – nasihat-lari bo'yicha yashashdir. Halqimizning bir necha ming yillik hayotiy tajribasidan kelib chiqqai dunyoqarashga taalluqli nihoyatda boy va nodir fikrlari mavjud. Respublikamiz mustaqil va suveren davlat bo'lishi tufayli halqimiz bunday ziyo va durdona aql sarchashmasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga ulug' avlod-ajdodlarimiz bizga benihoya katta ma'naviy boylik qoldirib ketgan. Respublikamiz taraqqiy etgan davlatlar qatoriga tezda o'tib olishi uchun xalqimiz bu ma'naviy boylikdan bema-lol bahramand bo'lishi kerak.

Hayotiy-tajribaviy darajali dunyoqarashning ahamiyati va salohiyati ancha cheklangan, chunki u borlikning obyektiv konunlari va odamlarning o'zgaruvchan mohiyatlariga asoslanmaganligi sababli, kelajakni oldindan bilish va jamiyatni ilmiy asosda boshqarishga imkon bermaydi.

Dunyoqarashning ilmiy-nazariy darajasi olam, tabiat, jamiyat, odam, ong va hako-zolarning mohiyati va barcha fanlarla erishilgan tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarga asoslangan *bo'lib*, har bir odamning shaxsiy va ijtimoiy hayotida eng to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi vosita sifatida xizmat qiladi. O'zining ilmiy – nazariy darajali dunyoqarashiga asoslanib, har bir odam o'zligini bilib va haqiqiy inson bo'lib yetishi uchun jamiyatla o'z o'mini topib olishi mumkii. Albatta, bunday odamlar o'z vatani va xalqining haqiqiy jonkuyariga aylanadi.

1.9. Dunyoqarashning tarixiy tiplari. Falsafa ilmida dunyoqarash asosan uchta tarixiy tip⁷ga ajratilib tadqiq qilinadi.

⁷ **Tip** yunoncha "typos – iz, belgi, shakl, namuna" so'zlaridan olingan bo'lib, muayyan bir tur(guruh)dagi narsalarning muhim belgilarga ega bo'lgan namunasi, shakli, modeli, degan ma'noni anglatadi// O'zbek tilining izohli lug'ati. 4-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 106

Bularga quyidagilar kiradi:

1. Mifologik dunyoqarash.
2. Diniy dunyoqarash.
3. Falsafiy dunyoqarash

1. Mifologik dunyoqarash va unga xos bo'lgan xususiyatlar. Mifologik dunyoqarash inson va jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlariga xos bo'lib, ma'naviy madaniyatning alohida shakli sifatidagi mifologiya bilan bog'liq, uning vositasida qurshab turgan dunyoni va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish amalga oshiriladi. Mifologik ong o'zining sinkretikligi – bir butunligi, bo'linmasligi bilan farqlanadi. Afsonalarda diniy ishonch, ilmiy bilimlar kurtaklari, falsafa, san'at, siyosiy va ijtimoiy qarashlar murakkab tarzda o'ylab topilib, talqin qilinadi. Afsonalarning ifodalanish shakllari ko'pincha sezgi-shoirona tarzda bo'lib, ularda aql-idrok tushunchasi ham shakllanmagan bo'ladi. Afsonalarda taqqoslash, kinoya, o'xshatish, ishoralar tez-tez foydalaniladi.

Ijtimoiy hayotda faqat ijtimoiy voqelikni anglash va maqsadli takomillashtirish, shunchaki an'analarga, marosimlarga, qaror topgan xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlarga tayanish mifologik ongga xosdir. Shu bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solish amalga oshiriladi.

Insonning madaniy yutuqlari, dunyo va insonning kelib chiqish masalalari, tarixiy voqealar, hayot va o'lim masalasi, yaxshilik va yomonlik – shuningdek abadiy falsafiy muammolar, inson va dunyoning kelajagini bilishga intilish mifologiya­ning predmeti hisoblanadi. Ilk mifologiya xayoliy (bolalarcha) yarim xayoliy dunyoqarash sifatida baholandi, unda tarqalgan fikrlarga binoan, real voqelik g'alati qiyshiq oynadagiday buzib ko'rsatildi. Hozirgi tadqiqotchilar bunday bir tomonlama baholashdan chekinib, miflarni ilk, ba'zan xayoliy sifatida, lekin borliqni bilishda unumli va chuqur urinish sifatida qaramoqda.

Hozirgi davrda mifologik dunyoqarash qoloq xalqlar o'rtasida hukmronlik qilmoqda. Bir shakldan boshqa shaklga o'tgan mifologik qoldiqlarning turlari

ijtimoiy ongda va rivojlangan millatlarda saqlanmoqda. Masalan, ijtimoiy-siyosiy mif turlarida («xalq dohisi», «kuchli qo'l», bir millatning ikkinchi millatdan ustunligi, «tanlangan millat» to'g'risida va boshqalar).

Shunday qilib, mifologik dunyoqarash (grekcha «mifos» - afsona, ertak va «logos» - tushuncha, ta'limot) - bu ibtidoiy odamlarning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelikni naql, rivoyat, afsonalar shaklida jonlantirilgan obrazlar vositasi orqali tasavvur qilishi va shu asosda tushuntirilishidir. Bunday holat, birinchidan, ibtidoiy odamning o'zini hali o'rab turgan tabiiy muhitdan ajratmaganligi, ikkinchidan esa, ibtidoiy odam tafakkurining emotsional-ruhiy holatlardan aqliy bilish tomon aniq ajralmaganligi bilan ifodalanadi.

Mifologik dunyoqarash o'zining sinkretligi, ya'ni bir biridan ajralmagan holdagi aralash-quralashlik xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Mifologik dunyoqarashga xos bo'lgan xususiyatlar:

1) mifning odamni tabiatning bir bo'lagi deb bilgan holda uni tabiatdan ajrata olmaganligi, ya'ni uni tabiiy va ijtimoiy tomonlar uyg'unligining mahsuli sifatida tasavvur qila olmaganligi;

2) mifdagi afsonaviy shaxslarning mavjud fenomn olamda yashaganlarliklarini aks ettirganligi (Zevsning Olimi tog'ida, Alpomishning Boysun tog'ida yashaganligi);

3) mifda odam ruhining o'ziga qon-qarindosh bo'lgan boshqa narsalar ruhi bilan aloqadorligi bosh ma'naviy jarayon sifatida qaralganligi bilan ifodalanadi.

Vaqt o'tishi bilan mifologik dunyoqarash tarkibidan quyidagi ma'naviy faoliyat sohalari birinchilar qatorida ajralib chiqqan

2. Diniy dunyoqarash va unga xos bo'lgan xususiyatlar. Din⁸ ilk, rivojlanmagan shakllarda u amalda mifologiya bilan qo'shilib ketadi, chunki orliqni ustun darajada his-sezgilar bilan idrok qilish bilan bog'liq va mifologik

⁸ - bu arabcha "e'tiqod,ishonch" degan so'zlardan olingan bo'lib,ilohiy kuchga,Xudoga asoslangan dunyoqarash,tasavvur,urf-odat va marosimlar majmu,degan ma'noda idi.

g'oyaviy platformaga asoslanadi. Kechki, rivojlangan shakllarda aniq falsafiy, ratsional-tushuncha asosiga tayanadi.

«Din» atamasi ikkita asosiy ahamiyatga ega. Birinchi, kengroq (religare – birikish, bog'lanish, ittifoq) so'zlarining kelib chiqishi bilan bog'liq inson jonining oliy borliqda (xudo, ruh, Atman, Adi-Budda, Kosmik aql, qoinot ongi va boshqalar) qo'shilish amaliyotini nazarda tutadi. Ikkinchi, tor ma'noda ahamiyati (dunyoqarash) ong turlaridan birini, shuningdek ongning shu turining konkret ijtimoiy ifodasini aniqlaydi – ijtimoiy hodisa sifatida konkret dinni ko'rsatadi. Bundan keyin matnda «din» atamasi ikkinchi ma'noda ishlatiladi.

An'anaviy diniy dunyoqarash beshta muhim xususiyatlarni ifodalaydi:

- 1) «ishonch» bilim va aqlga bo'yingan holda tamoyil darajasiga ko'tariladi;
- 2) tabiat qonunlari va insonning bilish imkoniyatlari doirasidan chiqadigan g'ayritabiiy, sababdan tashqari, tushuntirib bo'lmaydigan hodisalar inkoniyatiga ishontirish;
- 3) diniy ibodatlarining mavjudligi (marosimlar) va boshqalar;
- 4) mutlaq haqiqat, xudoning vahiylogi sifatida qabul qilinuvchi, diniy aqidalar, muqaddas yozuvlarning mavjudligi;
- 5) konkret din manfaatlari bilan bog'liq ijtimoiy institut (tashkilotlar) sifatida cherkovlarning amal qilishi.

Xudo, vafotidan keyingi borliq, savob, axloqiy me'yorlar, dunyo va insonning paydo bo'lishi to'g'risidagi ma'lum qarashlar, diniy amaliyot va boshqalar diniy e'tiqodning predmeti hisoblanadi. Odatda Xudo dunyoning Yaratuvchisi, uning qonunlarini nazorat qiluvchi oliy shaxs (Mutlaq Shaxs) sifatida tushuniladi.

Diniy dunyoqarash tarixiy bosqich va dinning konkret xususiyatlariga bog'liq, ijobiy va salbiy rol o'ynagan.

Hozirgi dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy ma'noda qoloq va yuqori darajada rivojlangan millatlar o'rtasida turli diniy dunyoqarashlar tarqalgan.

Shunday qilib, diniy dunyoqarash – bu borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudodga, yani

Xudoga nisbatan bo'lgan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar tizimidir.

Diniy dunyoqarashga xos bo'lgan xususiyatlar:

- e'tiqod, ya'ni xudoning bor ekanligiga ishonish, unga aql va bilim bilan itoatda bo'lish;
- qandaydir g'ayri tabiiy kuchlarga, ular tomonidan sodir etilajak mo'jizalarga ishonish va e'tiqod qilish;
- diniy ibodatlarining borligi;
- *diniy* «muqaddas yozuv – kitoblarning mavjudligi;
- cherkov, machitlarning diniy tashkilot sifatida faoliyat olib borishi bilan ifodalanadi.

Diniy dunyoqarashning mifologik dunyoqarashdan farqi:

- a) diniy ongning o'z obyekti va subyektni qat'iy tarzda ajrata olishi, mifning esa odamni tabiatdan ajrata olmasligi;
- b) dinning olamni jon va tana, ruh va vujud, yer va osmon, tabiiy va g'ayri tabiiy sohalariga ajratishi, mifning esa o'z afsonaviy shaxslarining faqat mavjud moddiy olam qo'ynida yashaydi deb tushunishi;
- v) dinda e'tiqodning amaliy xatti-harakatlar bilan chambarchas bog'liqligi, mifda esa uning hali amaliy e'tiqod darajasiga ko'tarilmaganligi;
- g) dinda odamning Xudo bilan ruhan birlashuvi masalalarining aniq ifoda etilganligi, mifda individning o'z qarindosh urug'lari bilan birlashuvining tasvirlanishi bilan belgilanadi.

Diniy dunyoqarashni **teologiya** («*teo*» - *Xudo*, «*logos*» - *ta'limot*) deb ataladigan fan o'rganadi.

Dunyoqarashning uchinchi nisbatan rivojlangan tarixiy tipi falsafa hisoblanadi.

3. Falsafiy dunyoqarash: ta'rifi va xususiyatlari. *Falsafiy dunyoqarash – nu olam va odam munosabatlaridigi tabiat, jamiyat va insonning eng umumii o'zaro bog'lanish, aloqadorlik va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish asosida kundalik holiyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya shakllanadigan va rivojlanadigan bir butun olam haqidagi ilmiy, tarixiy,*

mantiqiy, universal, maqsadli, goyaviy, nazariy bilim va amaliy xatti-harakatlarning yaxlit tizimidir.

Falsafiy dunyoqarashga xos bo'lgan xususiyatlar:

Falsafiy dunyoqarashning:

1) voqelikni mifologik yoki diniy dunyoqarashdagi hissiy – obrazli idrok ettirishdan tashqari abstrakt-tushunchalar orqali o'zlashtirishi;

2) tarixiy taraqqiyot silsilasida muayan bir tizim tarzida shakllangan tafakkur mahsuli bo'lgan ilmiy dunyoqarashning nazariy shakli bo'lib, uning dunyoqarash masalalarini tanqidiy ko'z bilan tadqiq etish va aniq dalil-isbotlar bilan hal qilishga asoslanishi;

3) mifologik va diniy dunyoqarashdan farqli o'laroq, ularni qanoatlantiruvchiga qandaydir asoslariga tayanishi bilan emas, balki, ilmiy dunyoqarashning yadrosini tashkil etishi va ularning bir butunligini, o'zaro aloqadorligini va aniqligini ta'minlashi;

4) olamni anglashda ilmiy bilimlarga tayanishi va shu bilan bir vaqtda falsafa fanlarning rivojiga ham o'zining kuchli ta'sirini o'tkazishi hamda ilmiy bilishning umumiy metodologiyasi vazifasini bajarishi;

5) inson borlig'i muammosini imkon boricha aniq va mutlaq tarzda hal etishga urinishi;

6) insoniyat olamidagi axloqiy va estetik, ijtimoiy – siyosiy, qadriyat, bilish kabi muammolar tadqiqi bilan shugullanishi;

7) avtoritetga emas, balki zaruriyatga qarab ijtimoiy na individual faoliyat uchun zarur bo'lgan mezon va **tamoyillarpi** ishlab chiqishi bilan ifodalanadi.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy tamoyillari. *Falsafiy dunyoqarash tamoyillari – bu olam va odam munosabatlarida tabiat, jamiyat, insoniyat olamnni anglab yetish uchun o'ziga asos qilib olgan, unga og'ishmay amal qiladigan qonun-qoida, nuqtayi nazar , qarash, maslaklar yig'indisi hisoblanadi va ularga quyidagilar: ilmiylik; tarixiylik; mantiqiylik; universallik; maqsadlilik; g'oyaviylik; nazariya va amaliyot birligi kabilar kiradi.*

1. *Falsafiy dunyoqarash ilmiydir*, chunki u narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarni kundalik ong darajasidagina emas, balki nazariy ong darajasida ham ifodalaydi.

2. *Falsafiy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili* jamiyatning o'tmishi dunyoqarashlar tarixidan iboratligini va uzluksiz rivojlanishini ifodalaydi.

3. *Falsafiy dunyoqarashning mantiqiy izchillign tamoyili* har qanday dunyoqarash shakli va darajasining mantiqiy birikmalar orqali ifodalanishi bilan izohlanadi.

4. *Falsafiy dunyoqarashning universalligi* boshqa dunyoqarash shakllarining mazmunini tashkil qilishi bilan sifatlanadi, ya'ni har qanday dunyoqarash shakli o'ziga xos falsafiy xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

5. *Falsafiy dunyoqarash maqsadga muvofiq* bo'lib, insoi manfaatlariga mos keladi. Chunki, inson muayyan maqsad, orzu – umidlar bilan yashaydi, ularni o'z dunyoqarashida aks ettiradi.

6. *Falsafiy dunyoqarashning goyaviylik tamoyili* uning asosida muayyan g'oya yotgani bilan ifodalanadi. Falsafiy dunyoqarash shu g'oyani e'tiqodga aylantirish va uning amalga oshishi uchun xizmat qiladi.

7. *Falsafiy dunyoqarashning nazariya va amaliyot birligi tamoyili* dunyoqarashning nazariya sifatida mavjudligi ijtimoiy amaliyot tajribalarini ijodiy umumlashtirib, istiqbol rejalarini belgilashda qo'l kelishi bilan izohlanadi.

Falsafiy dunyoqarashning asosiy vazifalari. *Falsafiy dunyoqarashning vazifalari – bu dunyoqarash subyektlarini uning tamoyillaridan kelib chiqqan holda olam va odam munosabatlarida sodir bo'layotgan narsa, hodisa, voqea va jarayonlarning tub mohiyatini anglab yetish uchun baholash, boshqarish, nazarat qilish, birlashtirish va tarbiyalash ishlarini amalga oshirishdan iboratdir.*

1. Falsafiy dunyoqarashning *baholash* vazifasi – bu insonning, o'z ehtiyoj va manfaatlaridan kelib chiqqan holda narsa-hodisalarni yaxshi-yomon, foydali-zararli, savob-gunoh, oriyat-benomuslik kabi qarama-qarshi mezonlarga ajratishidir.

2. Falsafiy dunyoqarashning *boshqarish* vazifasi – bu inson faoliyatini axloqiy e'yor, diniy qadriyat, huquqiy hujjat va siyosiy mexanizmlar kabi usul-vositalar li idora etishidir

3. Falsafiy dunyoqarashning *nazorat qilish* vazifasi – bu inson faoliyatini jamoatchilik fikri tarzida nazorat qilishidir.

4. Falsafiy dunyoqarashning *birlashtirish (kommunikativ)* vazifasi – bu turli dunyoqarash yo'nalishlarini milliy va umuminsoniy g'oyalar atrofida uyg'unlashtirishdir.

5. Falsafiy dunyoqarashning *tarbiyaviy* vazifasi – bu kishilarda keng va teran fikrlash qobiliyatini vujudga keltirish asosida bagrikenglik, murosas, har qanday ziddiyatlarni madaniy yo'l bilan hal qilish, kelajakka umid va ishonch ruhini shakllantirishdan iborat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. «Filosofiya» atamasining lug'aviy ma'nosi nimani anglatadi?
2. Falsafaning bahs mavzusi nima?
3. Falsafaning asosiy funksiyalari mohiyatini ochib bering.
4. Falsafa fanining izlanish uslublarini tavsiflab bering.
5. Falsafa faniga berilgan to'g'ri ta'rifni mohiyati nimadan iborat?
6. Olamning asosini nima tashkil qilishi haqida qanday falsafiy qarashlarni bilasiz?
7. Falsafiy bilimlar tizimiga nimalar kiradi?
8. O'zbek falsafasining rivojini ta'minlashda qaysi jihat – lar alohida o'rin tutadi?
9. Qaysi ta'rif materialistik yo'nalishga mos tushadi?
10. O'zbek falsafasini yanada taraqqiy ettirish uchun oldimizda qanday vazifalar turibdi?
11. Falsafaning gnoseologik vazifasi nimani anglatadi?
12. Falsafaning aksiologik vazifasi nimadan iborat?
13. Falsafaning metodologik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
14. Falsafaning dunyoqarashlik vazifasini qanday tushunasiz?
15. Falsafa boshqa fanlardan nimasi bilan farq qiladi?
16. Falsafa fanidagi metafizika uslubining mohiyatini ifoda –lovchi ta'rifni yoritib bering.

II BOB. Tafakkur taraqqiyoti bosqichlari

1-§. Qadimgi Sharq falsafasi

Sharq qadimiy madaniyat o'chog'i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta'riflamagan. G'arb madaniyati tarixini o'rganish jarayonida Yevrotsentrizm nazariyasiga og'ib ketish g'ayriilmiy bo'lgani kabi masalaning Sharq bilan bog'liq jihatini tahlil etganda ham Osiyotsentrizm ta'siriga tushmaslik lozim.

Falsafa jamiyatdagi quyidagi ehtiyojlar tufayli shakllana boshladi:

- 1) rivojlanayotgan olamga, insonga, uning ongiga, qarashlariga doir ta'limotlarni yaratish zarurati;
- 2) olamning boshlang'ich asoslari va rivojlanishi qonunlarini ishlab chiqish kerakligi;
- 3) olam haqidagi tafakkurning oqilona asoslangan uslubiga, mantiqiy fikrlashga va bilish nazariyasiga tug'ilgan ehtiyojlarning paydo bo'lganligi;
- 4) afsonaviy va diniy tasavvurlardagi xayoliy fikrlarga munosabat belgilash, odamlarning ilmiy bilishdagi, falsafiy tafakkur qilishdagi ongsizligiga barham berish zarurati.

1.1. Qadimgi Bobil va Misr falsafasi. Miloddan oldingi to'rtinchi ming yillikning oxiri va uchinchi ming yillik boshlarida qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki diniy-falsafiy fikrlar, olam haqidagi fanlar, ya'ni astronomiya, kosmologiya, matematika, mifologiyaga oid qarashlar rivoj topgan.

Bobilda shu davrlardayoq odamlarning dunyoda ro'y berib turadigan xilma-xil voqea va jarayonlarga bo'lgan munosabatlari va qiziqishlarini garchi sodda, yuzaki, tashqi shaklda bo'lsa-da, o'zida aks ettirgan falsafiy qarashlar namoyon bo'la boshlagan. Qadimgi Bobil adabiyotining ko'zga ko'ringan mashhur asarlaridan biri «Gil'gamesh haqidagi doston» bo'lib, unda tuproq, suv, havo, issiqlik inson hayoti

va tirikligining abadiy manbai ekanligi, Gil'gameshning obihayot qidirib boshidan kechirgan sarguzashtlari va chekkan azob-uqubatlari, odamlarning tabiiy qonunlar asosida yashashi zarurligi, hayot va o'lim sirlarini bilishga azaldan intilib kelgan – ligi hikoya qilingan. Gil'gamesh haqidagi Bobil afsonasida qadimgi kishilarning baxt va farovonlikka, salomatlik va bardamlikka, o'limni yengib, mangu hayot kechirishga, abadiy umr ato qiluvchi «obi – hayot», o'simlik turli xil meva va ma'danlarni izlab topish haqidagi orzu-niyatlari o'z ifodasini topgan.

«Adapta» haqidagi dostonda esa insoniyatning abadiy hayot to'g'risidagi fikrlari, abadiy yashashga bo'lgan intilishlari o'z ifodasini topgan. Unda «o'lgan va qayta tirilgan» xudolarga, jumladan, Bobil xudosi Mardukka nisbatan berilgan.

Inson o'zini qurshab olgan tabiiy muhit bilan o'zaro aloqadadir. Ushbu muhit, koinot haqida o'ylaydi, fikr yuritadi, yer yuzidagi hodisa va jarayonlarni koinot bilan bog'lashga intiladi, samoviy sir-asrorlar haqida xayol suradi, faraz qiladi, har xil ertaklar, rivoyatlar, afsonalar to'qiydi. Bobilliklarning «Etapa» haqidagi afsonalari ana shu zaminda paydo bo'lgan va yuqorida aytib o'tilgan dostonlarda bo'lgani kabi odamlarning Quyosh, Oy va sayyoralar, samoviy hodisalarning sir-sanoatlarini bilishga qiziq-qanliklarini, Bobil xalqining tabiiy hodisalar mohiyatini, yilning fasllarga bo'linib, o'zgarib turishini, yil davomida tabiatda bo'ladigan o'zgarishlar boisi nimadan iborat ekanligini tushunib olishga bo'lgan intilishlarini, shuningdek ularning din va axloqqa doir falsafiy qarashlarini ilgari surgan asardir.

Qadimgi bobilliklarning «Jafokash avliyo haqida doston» va «Xo'jayinning qul bilan suhbat» degan asarlarida yaxshilik bilan yomonlik, hurlik bilan xo'rlikning bir-biriga tubdan zid, qarama-qarshi va murosasizligi haqidagi falsafiy g'oyalar ilgari suriladi. «Jafokash avliyo haqida doston'da baxt va baxtsizlik, adolat va adolatsizlik to'g'risida, ularning sabablari, bartaraf etish yo'llari xususidagi dastlabki falsafiy tasavvurlar va g'oyalar ilgari surilgan.

Inson amaliy faoliyati ehtiyojlari va ishlab chiqarishning rivojlanishi o'rtaga qo'ygan talablar asosida Bobilda tabiat hodisa – lari mazmunini tushunib olish va ulardan turmushda foydalanish zarurati tobora kuchayib borgan. Mahsulot va mollarning miqdori, og'irligini o'lchash, ishchi kuchlari sonini aniqlash, binolar

hajmini belgilash, dalalarning yer sathini hisoblab chiqish zarurati eng qadimgi matematik hisoblarning paydo bo'lishiga va bu sohaga tegishli bilimlar to'planishi hamda dastlabki arifmetika va geometriya fanining paydo bo'lishiga olib kelgan. Vaqtni hisoblash zarurati taqvim paydo bo'lishiga sabab bo'lib, bu o'z navbatida odamlardan astronomiya sohasida ma'lum bilimlarni talab qilgan. Bobilliklar Quyosh soatini, Quyosh ko'rsatkichini va kunning 2 bo'lakka bo'linishini azaldan bilishgan. Antik davr ma'lumotlariga ko'ra, Bobilda matematika, arifmetika, geometriya, astronomiya bilan bir qatorda tibbiyot, tarix va musiqa, tasviriy san'at, astrologiya ham sekin-asta rivojlana boshlagan.

Qadimgi Sharq xalqlarining madaniyatlari singari Bobil xalqi madaniyati, falsafasi, axloqi, urf-odatlar, dunyoqarashi ham asosan diniy g'oyalar bilan sug'orilgan edi. Odamlarda diniy e'tiqod kuchli bo'lgan. Quyosh, Oy, yulduzlar xudo hisoblangan, ibodatxonalarda ularga topinganlar. Xalqlarning, davlatlarning, hukmdorlar va odamlarning kelgusidagi taqdirini yulduz va sayyoralar vaziyatlariga qarab oldindan aytib berish qadimgi Mesopotamiya va Bobilda astrologiya nomini olgan.

Bobilliklarning qadimgi madaniyati, diniy e'tiqodlari, falsafiy qarashlari, adabiy asarlari, afsona va rivoyatlari nasldan – naslga o'tib Sharqdagi ko'pgina xalqlarning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga, ijtimoiy-falsafiy fikrlari rivojiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatgan.

Bobil madaniyati singari Misr madaniyati ham jahon madaniyatining eng qadimgilaridan hisoblanadi. Qadimgi Misrda ilk madaniy yodgorliklar miloddan to'rt ming yil ilgari vujudga kelgan. Qadim – gi Misr mifologiyasida hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va hamma narsada havo bor, deyiladi. Shuning uchun ham misrliklar suvni odamga oziq-ovqat beruvchi dastlabki ulug' ne'mat, deb bilganlar. Ular ularga butun tabiatning asosi bo'lib, ko'ringan. Misrliklar hayot suvdan iborat deb bilgan, deb bilib suvsiz hech qanday hayot bo'lmasligini ko'rib, suvni ulug'lovchi qanchadan-qancha rivoyat va afsonalar to'qigan – lar. Ular Nil daryosini ilohiylashtirganlar, uni «odamlarga hayot baxsh etish uchun toshib turadigan Nil», deb ulug'laganlar.

Misrliklar o'zlarining dunyoviy va diniy-falsafiy poeziyalarida odamlarni bu dunyoning butun noz-ne'matlaridan to'la bahramand bo'lib yashashga, quvnoq, shod-xurram hayot kechirishga, o'lim, oxirat haqida o'ylayvermaslikka chaqirgan. Misrliklarning ilk falsafiy tasavvurlari haqida birmuncha ma'lumot beruvchi qadimiy manbalar – dan biri «Nasihatnoma»da bilimning xosiyati haqida, bilimdon kishining qadr-qimmati to'g'risida aytib o'tilgan. «Agar sen bilim – don odam bo'lsang, yozish-o'qishni chuqur egallab, ko'nglingga makkam jo qilib olsang, ana shunda har bir aytgan gaping hammaga manzur bo'ladi».

Qadimgi misrliklarning halq og'zaki ijodiyotida, ayniqsa, diniy-mifologik asarlarida tabiat hodisalari va tabiat kuchlari ilohiylashtiriladi. Usimlik va daraxtlarga topinish Misrda eng qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. «Hayot osmon daraxti» to'g'risidagi qadimgi afsonada o'simliklar ramzi bo'lgan daraxt insonning yer yuzidagi hayoti uchun zarurdir, degan fikr ilgari surilgan. Misrliklarning tabiatni, dunyoni uning o'ziga asoslanib turib tushun – tirish uchun qilgan urinishlari har holda sodda bo'lsa-da, o'z davrida katta ahamiyatga ega edi.

Kasalliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarini aniqlash, ular – ning oldini olish, inson salomatligini tiklash va mustahkamlashga bo'lgan zarurat qadimgi Misrda tibbiyot fanini yuzaga keltirdi. Qadimgi misrliklar kasalliklarning juda ko'p turlaridan, masalan bosh og'rig'i, sariq kasal, yo'tal, qon ketish, bod va boshqa juda ko'p kasalliklarni keltirib chiqaruvi omillarni bilganlar. Misrliklar diagnostika-tashxis sohasida katta tajriba to'plaganlar. Misrda jarrohlik va ko'z kasalliklarini davolash ancha rivojlangan. Ular insondagi ko'p kasalliklar yurak qon aylanish tizimining qandayli – giga bog'liq ekanligini alohida ta'kidlashgan. Misrda tabiblik – ning siri yurak harakatini bilishdan boshlanadi, tomirlar butun a'zoyi badanga shundan tarqaladi, deb hisoblashgan.

Qadimgi Bobil va Misrdagi falsafiy qarashlarning vujudga kelishi va shakllanishiga xulosa qilib, shuni alohida aytish mum – kinki, ularning yozma yodgorliklarida o'lganlardan hech kim qaytib kelmaganligi, u dunyoning yo'qligi, kishi tanasi o'lgandan so'ng chirib tuproqqa aylanishi, chin ma'nodagi hayot faqat yer yuzidagi hayot ekanligi, kishilar bu dunyoda baxt-saodat uchun kurashishi

kerakligi ta'kidlangan. Mil. avv. 2500-2000-yil burun Misr va Vavilonda stixiyali materializm vujudga keldi. Bu falsafiy qarashlar o'sha davrdagi reaksiyon aristokratiyaning cheksiz hukmron mafkurasiga va hukmronligiga qarshi kurash olib bordi.

Falsafiy fikrlarning keyingi rivojlanish bosqichi qadimgi Hindiston va Xitoy mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida o'z aksini topadi. Umuman olganda Qadimgi Bobil va Misr falsafasi Qadimgi Hindiston va Xitoy falsafasi rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu Sharq mamlakatlarining falsafiy qarashlari bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir.

1.2. Qadimgi Hindiston falsafasi Hindistonda dastlabki falsafa – fiy qarashlar Hindiston madaniy merosining yozma yodgorligi bo'lgan asosan to'rt «Veda»da o'z ifodasini topgan. Vedalarda diniy-falsafiy shaklda hind falsafasining navbatdagi mazmuni, taraqqiyot yo'lini belgilab bergan g'oyalar bayon etilgan. Ularda «olami jon braxman va yakka shaxs joni – atmaning birligi haqidagi, jonning o'lmasligi, uning tug'ilishidan ikkinchi tug'ilishga o'tishi to'g'risidagi g'oyalar ilgari suriladi. Hozir ham hindlarda tirik maxluqlar o'tgan ajdodlarning qayta tirilib, shu maxluqlar qiyofasiga kirishidir, degan tasavvurlar bor. Bu vedalardan eng muhimi «Rigveda» miloddan avval 500-yil oldin vujudga kelgan, Rigveda (madhiyalar), «Yajurveda» (qurbonlik qilishlar), «Samaveda» (qo'shiqlar), «Atxorveda» (duolar)dan iborat. Bu vedalar braxman dinining asosini tashkil qilib, bu idealistik oqim yo'nalishining mazmuni shundan iboratki, birdan-bir real dunyoviy ruh braxman bo'lib, moddiy dunyo esa uning ijodiy mahsulidir, deb ta'kidlashadi. Vedalarni falsafa deb atash mushkul. Biz ular bilan tanishishda muayyan afsonaviy olamga g'arq bo'lamiz. Agar hind ma'naviy hayotida afsonadan logosga, ya'ni real ta'limotga o'tish haqidagi qarashlar «Upanishad»larga tegishli deyish mumkin. «Upanishad» veda dunyoqarashining tanqidiy jihatdan idrok etilishidir. Vedalar asosan madhiyalardan iborat bo'lsa, «Upanishad»larga dalil-asoslar muvofiq keladi.

«Upanishad» atamasi donishmandning o'z shogirdlariga ta'lim berish jarayonini anglatadi. Vaqt o'tishi bilan bu atama shu jarayonda beriladigan mazmunni ifodalaydigan falsafiy matnni ham ifoda – laydigan bo'ldi. Muayyan

ma'noda «Upanishad»larni Platonning dialoglari bilan o'xshatish mumkin. Upanishadlarning markaziy mavzularidan biri tug'ilish va o'limning abadiy «almashinuvi» g'oyasidir. Bunday g'oya tirik mavjudotlarning o'limdan keyin yana qayta tirilishini nazarda tutadigan, ular ruhlarning ko'chib yurishi (reinkarnatsiya) haqidagi ta'limotga asos qilib olingan. Tug'ilish bilan o'lim o'rtasidagi abadiy qayta tiklanib turadigan sikl sansara deyiladi. Aynan ana shunday sikl insonning eng teran «mohiyati» (atman) takror va takror qayta tiklanaveradi.

Upanishadlarning yana bir muhim qoidasi atman bilan braxman – ning bir-biriga tenglashtirilishidir. Braxman absolyut, hamma narsani qamrab oluvchi ilohiy sifatida tushunilgan. Atman bilan braxmanning tenglashtirilishi natijasida atman (inson joni) ham absolyutdir degan tezis yuzaga keladi. Faqat ana shunday sharoitda individ o'limdan keyingi yangi qayta tirilishlarga qodir bo'ladi, deb ta'kidlanadi. Upanishadlarning reinkarnatsiyaga qayta tug'ilish – ga ishonch, axloqiy sababiylik g'oyasi bilan chambarchas bog'langandir. Axloqiy sababiylik deganda koinotning adolat bilan sug'orilganligi tushuniladi. Har bir kishi o'zi xizmat qilgan narsani oladigan olamda yashaydi, shuningdek bu yerda yana keyingi hayotda yaxshiroq holatga erishish imkoniyati ham mavjuddir. Boshqacha aytganda, saxovatpesha kishi uchun yaxshilikka, gunohkor odamga esa yomonlikka tomon istiqbollar ochiladi. Dunyodagi barcha nomukammalliklar va azob-uqubatlar odamning o'z xatti-harakatlarining oqibatidir. Biroq, muayyan tabaqaga mansublik odam uchun yaxshi va yomon bo'lib hisoblanadigan narsani jiddiy darajada taqdim etadi. Shunday qilib, Upanishadlar tabaqali tizimni legitimlashtiradi.

Odamlar muayyan tabaqaga mansub bo'lish huquqini o'zlarining bundan oldingi hayotida ishlab topgan. Shu bilan birga, vedalarda diniy qarashlar bilan bir qatorda olam, odam va axloq haqida ayrim masalalar ham ilgari surilgan. Keyinchalik vedalarni turlicha talqin etuvchi maktablar vujudga kela boshladi.

Hindistonda vujudga kelgan diniy-idealistik oqimlarga vedanta, mimansa, sankk'ya, yoga, n'yaya, vaysheshika maktablari kiradi.

Materialistik oqimlarga esa jaynizm, lokayata, chorvak maktab – lari kiradi.

Miloddan oldingi VII asrlarda Hindistonda «Lokoyata» (faqat – bu dunyoni e'tirof etuvchi kishilarning qarashlari) materialistik oqimi vujudga keladi. Lokoyata o'z davrining hukmron diniy prin – siplarini qattiq tanqid qilib, din va idealizmnining narigi dunyo to'g'risidagi davolarini rad etib, bu moddiy dunyoning yagonaligini e'tirof etadi. Bu ta'limotning asoschisi Brixaspati bo'lib, u o'zining materialistik ta'limotida asketizmga (tarkidunyochilikka) qarshi kurashib, kishilarni yerdagi baxtli hayot kechirish uchun kurashishga chaqiradi. Ular yerdagi hayotdan boshqa hayotning bo'lishi mumkin emas, degan fikrni ilgari suradilar.

Lokayata falsafiy oqimidan Charvak falsafiy oqimi vujudga keladi. Charvak falsafiy oqimi izchil materialistik oqimdir. Charvak (hindcha «chor» to'rt, «vak» so'z, ya'ni «to'rt so'z» demakdir) materia – listik oqim sifatida miloddan oldingi VI asrlarda vujudga keldi.

Charvak falsafiy oqimi vakillarining ta'limoticha, olam – moddiydir. Moddiy olam to'rt elementdan – suv, havo, tuproq va olovdan tashkil topgan. Tirik tabiat shu jumladan inson ham shu moddiy elementlardan tashkil topgan. Charvak vakillari bilish nazariyasi masalasini ham materialistik hal qiladilar. Ularning fikricha, moddiy dunyoni bilish hamda haqiqatga erishish manbai sezgi va hissiy idrokdir. Inson va uning jamiyatdagi o'rni to'g'risida ham shunday fikrlarni ilgari suradilar: «Inson faqat bir marta yashaydi. Shuning uchun, u baxtli hayot kechirishga, o'zining oqilona ehtiyoj va manfaatlarini qondirishga intilishi kerak. Yomonlik manbai jamiyatdagi shafqatsizlik va adolatsizlik bilan bog'liq.

Diniy tasavvurlarning barcha tizimini, narigi dunyo va jonning ko'chib yurishini inkor etib, unga qarshi chiqadi».

1.4. Qadimgi Xitoy falsafasi. Xitoydagi dastlabki falsafiy ta'limotlarda dunyo abadiy va u besh unsur – olov, suv, tuproq, havo, daraxt yoki metallardan tashkil topgan deb uqtiriladi.

Miloddan oldingi UP-UI asrlarda Xitoyda «Dao» qonuniga binoan harakat qiluvchi «Si» elementining mavjudligi haqida fikr yuritiladi. Xitoy mutafakkirlari fikricha, tabiat hodisalari «Si» degan moddiy zarralardan tarkib topib, «Dao» degan obyektiv tabiiy qonuniyatga bo'ysunadi.

«Daosizm» soʻzining oʻzi «dao» - qonun, «si» - materiya degan maʼnoni anglatadi. Dunyoning asosini qonun bilan materiya tashkil qiladi. Daosizmning asoschisi Lao-szi boʻlib, u dunyo abadiy harakat va oʻzgarishda boʻladi, deb hisoblaydi. Masalan, Lao-szi bu haqda shunday degan edi: «Ulugʻ dao hamma yoqqa qarab oqadi. U oʻnga ham, soʻlga ham yoyilgan. U tufayli jami mavjudot tugʻiladi, bu mavjudot hamisha oʻzgarishda boʻlib, bir joyda toʻxtab qolmaydi».

Daosizm butun olam qarama-qarshiliklarning bir-biriga bogʻ – liqligiga amal qiladi, tabiat hodisalari oʻz-oʻziga zid holatlarda aylanib rivojlanadi, deya fikr yuritadi. Taʼkidlanishicha, goʻzallik va xunuklik, balandlik va pastlik, yaxshilik va yomonlik, borliq va yoʻqlik, uzun va qisqalik, bir-birini tugʻdiradi, birin-ketin keladi, oʻzaro bogʻliq boʻladi, tabiatdagi barcha mavjudot, barcha hodisalar qarama-qarshiliklarni oʻz ichiga oladi.

Daosizm vakillari bilishda hissiyot va amaliyotni ahamiyatini kamsitib, aqliy bilishni boʻrttirib yuborishadi.

Miloddan oldingi U-Sh asrlarda vujudga kelgan Konfutsiy – chilik Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan falsafiy taʼlimotlardan hisoblanadi. Uning asoschisi Xitoy mutafakkiri Konfutsiy mil. avv. 551-479-yillarda yashagan. U taʼlimotida: «odamlarning hammasi tugʻma xususiyatlariga koʻra bir-biriga yaqin, tugʻilgandan keyin hosil qilgan xususiyatlariga koʻra ular bir-birlaridan farq qiladi», degan fikrni ilgari suradi.

Konfutsiyning falsafiy-axloqiy taʼlimoti muayyan jamiyatda – gi mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilishga qaratilgan, yaʼni jamiyatda osmondan yuborilgan «Jen» (insonparvarlik) qonuni amal qilinadi. Bu qonunni oʻrganib olish uchun inson «Li» ijtimoiy axloq normalariga amal qilishi, oʻzining jamiyatdagi daraja – siga qarab ish tutishi lozim. Ana shu gʻoyalar eramiz boshida Xitoyda konfutsiychilik dini shakllanishiga sabab boʻldi. Konfutsiychilik koinlik, mistikadan xoli boʻlib, unda diniy marosimlar asosini ajdodlar ruhiga sigʻinish tashkil etadi. Ibodatlar ancha ixcham va qulay boʻlib, u oilaviy doirada oʻtkaziladi. Natijada tarbiyada oilaning maqomi oshadi. I asrdan boshlab, Xitoyga buddachilik kirib kela boshladi va Xitoyda ijtimoiy-falsafiy qarashlar buddizm taʼlimoti bilan sugʻorilgan.

III BOB. FALSAFANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI.

G'ARB FALSAFASI

1.1.Qadimgi Yunon va Rim falsafasi

Milodgacha VI asrdan boshlab Qadimgi Yunonistonda savdo va sanoat tez rivojlanib, shahar davlat – lari paydo bo'la boshladi. Milet shahri o'zining qulay geografik sharoiti tufayli Yunoniston bilan Eron, Misr va Bobil hamda Qora dengiz mamlakatlari o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalar markazi – ga aylandi. Dastlabki falsafiy ta'limot esa shu shaharda «Milet maktabi» bilan mashhur bo'ldi. Milet maktabining asoschilari – Fales, Anaksimandr, Anaksimenes olamning asosiga moddiy unsumni qo'yadilar. Masalan, Fales uchun suv, Anaksimandr apeyron, Anaksimenes uchun havo bu moddiy olamning asosini tashkil qiladi. Barcha narsa – lar shu unsurlarning turlicha holatda namoyon bo'lishidir. Ular olamning moddiyligi va murguligini isbotlashga urinadilar.

Geraklit (530-470-y.) ulardan farqli ravishda olamdagi barcha narsalarning asosini olov tashkil qiladi, hatto kishi ongi olov – ning o'tkinchi holat turidir deydi. Uning falsafiy, diqqatga sazovor fikri olamni doimiy harakat va jarayon sifatida olib qarashi – dir. Geraklit dialektik tafakkurga asoslanib, olamdagi hamma narsa o'zgarishda, vujudga kelishda va barham topishida, deb qaraydi.

Pifagor (mil. avv. VI asr) raqamlar borliqning ibtidosi, matematika qonuniyatlari olam turmushining asosidir, deb aytadi. Uning izdoshlari raqamlar sehr-jodusini, xususan, dastlabki o'n raqam ilohiy hissalarga ega, deb ta'kidlashadi. Masalan, Filolay – ning fikricha, «o'nlik ilohiy, samoviy va insoniy hayotning fao –
ti va ibtidosidir». Umuman pifagorizmga ko'ra, ideal raqamlar xudo yaratgan
larning dastlabki qiyofasidir.

Demokrit (mil. avv. 460-370-y.) atomistik nazariyaga asos soladi. Uning
ha, olam moddiy bo'lib, ong esa ikkilamchi mod – diy narsaning mahsulidir.

U olamning doimiy harakatda ekanli – gini ta'kidlaydi. Olamdagi narsa va hodisalar atomlarning tur – licha yo'nalishidan tashkil topgan, atomlar o'zlarining fazodagi tartibsiz harakatlari jarayonida o'zaro to'qnashib bir-birlarini parchalab boradi. Ikkinchi tomondan bir-biriga qo'shilib, tuproq, suv, olov, o't va ulardan quyun shaklida harakatlanuvchi ko'p dunyolar – ni vujudga keltirishni asoslashga urinadi.

Demokritning bilish nazariyasiga ko'ra, bilish obyekti moddiy olam bo'lib, ongimiz esa moddiy olamning sezgilar orqali in'ikos ettirishidan iborat. Uning fikricha, hissiy bilish orqali biz narsalarning (atomlarning qo'shilishi tufayli mavjud bo'lgan) sifat xususiyatlarini bilsak, aqliy bilish orqali sezgilarimiz bilan bevosita bilib bo'lmaydigan hodisalarni bila olamiz. Aql yordami bilan atomlar (narsalar)ning mohiyati belgilanadi. Demokrit falsafa tarixida birinchi bo'lib bilish jarayoni in'ikos jarayoni ekanligi haqidagi fikrni aytadi. Uning talqinicha, kishilarning beshta sezgi a'zolari orqali hosil qilgan tushunchalari moddiy olamdagi narsa va hodisalarning obrazidir.

Demokrit qadimgi Yunonistonning qomusiy olimi bo'lgan va fanning turli sohalari falsafa, fizika, matematika, biologiya, tibbiyot, pedagogika, ruhshunoslik, etika, mantiq va ijtimoiy hayot masalalariga doir fikrlarni ilgari surgan. Demokritning merosi – da insonni har tomonlama kamol toptirish, unda insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, odob-axloq, e'tiqod, vijdon va boshqa olijanob insoniy fazilatlarini shakllantirishga oid qimmatbaho fikrlar mavjuddir. Ular hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Levkip (mil. avv. 500-440-y.) Demokrit bilan birgalikda atomistik nazariyaga asos soladi. U birinchi bo'lib, sababiyat qonuni va yetarli asos qonuniga ta'rif beradi.

Qadimgi Yunonistonda Pifagor, Suqrot, Aflotun asos solgan fal – safiy oqimlar idealistik dunyoqarashni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Aflotun (Platon) mil. avv. 427-377-y.) ta'limoticha, olamda «g'oya»lar dunyosi birlamchi bo'lib, moddiy dunyo ikkilamchi, uning mahsulidir. «G'oyalar dunyosi» Aflotunda moddiy olamdan ajralgan bo'lib, uni mustaqil, moddiy dunyoni yaratgan ilohiy kuch deb biladi. Uning bilish nazariyasiga ko'ra, bilish obyekti «g'oyalar dunyosi»dir, moddiy dunyo va undagi narsa va hodisalar hissiy bilishning

manbaidir. Hissiy bilish haqiqat emas, chunki u orqali kishilar g'oyani emas, balki moddiy buyumlarni sezadilar, ular to'g'risida tasav – vurga ega bo'ladilar. Moddiy buyumlarning asosi va mohiyati bo'lgan «g'oyalar dunyosi»ni faqat sof tafakkur yordamida bilish mumkin.

Aflotun Yunonistondagi quldorlar aristokratiyasi davlatini eng adolatli va ideal deb hisoblaydi. U jamiyatni uch tabaqaga bo'ladi.

Davlat arboblari – faylasuflar, soqchilar (harbiylar) hamda dehqon va hunarmandlar. Uning fikricha, davlat faylasuf – aristokratlar qo'lida bo'lishi kerak, harbiylar esa aristokratiya davlatini mustah – kamlash uchun xizmat qilishlari lozim, davlat zo'rlik va zulm majmui – dan iborat bo'lib, quldor uchun zarur sharoitni yaratishdan iborat.

Aflotun ta'limotini birinchi bo'lib tanqid qilgan uning vatandoshi Arastu (Aristotel mil. avv. 384-322-y.) dir. Arastu asarlaridan «Metofizika», «Fizika», «Jon to'g'risida», «Anali – tika «Kategoriyalar», «Etika», Siyosat», «Ritorika va boshqa asar – lari bizgacha yetib kelgan. Arastu Aflotunning g'oyalar dunyosini asossiz, g'oyalar bilan narsalar o'rtasida hech qanday farq yo'q, deb hisoblaydi. Uning fikricha, moddiy olam abadiy va obyektiv xarakterga ega bo'lib, hech qanday Aflotun «g'oya»siga muhtoj emas, deb ta'kidlab, moddiy dunyoning obyektiv mavjudligini e'tirof etadi. Hamma narsaning asosida materiya yotadi, narsalar materiya va shakldan paydo bo'ladi. Har bir narsa shakllangan materiyadir va shakl borliqning mohiyatidir. Materiyaning o'zida rivojlanishning faqat imkoniyati bor, xolos, u shakllantirishga muhtojdir. Shakl tufayligina materiya imkoniyatdan voqelikka aylanadi. Haqiqiy borliq materiya va shaklning birligidir. Bular bir-biriga o'tib turadi, shaklsiz materiya yo'q. Demak, shakl va materiya tushunchalari nisbiy xarakterga ega.

Arastuning fikricha, dunyoda to'rt xil sabab bor:

- 1) moddiy sabab yoki materiya (masalan, uy bunyod etish uchun zarur an qurilish materiallari);
- 2) shakli sabab yoki shakl (uy tuzilishi);
- 3) vujudga keltiruvchi sabab (uy quruvchi binokorlik san'ati);

4) so'nggi sabab yoki maqsad (bitkazilgan bino).

U qadimgi dunyodagi sodda dialektik fikrni eng yorqin ifoda – lagan mutafakkirlardan biri bo'lib, tabiatni ongli ravishda, o'zga – rishda, rivojlanishda deb qaraydi va buni u materiyaning shaklga ega bo'lish jarayoni, imkoniyatni voqelikka aylana borishi deb tushuna – di. Uning ta'limotida dialektikaga zid fikrlar ham mavjud bo'lib, materiya passiv, shakl esa aktiv bo'lib, narsani narsa qiluvchidir deydi. Uning bu fikrlari idealizm tomon og'ishini anglatadi. U shaklning aktivligi haqida gapirib, hamma shakllarning shakli – xudoning, dunyoviy ruhning, dastlabki turtkning ijodi, rolidir, deb ta'kidlaydi. Bu masalada u Platonga yaqin edi.

Arastu o'zining bilish nazariyasida Demokrit tarafdori bo'lib, uningcha, moddiy dunyo bilishning, sezgilarning, tajribaning assi dir. Sezgilar bizga ayrim aniq, narsalar haqida bilim bersalar, aqlimiz esa umumlashtirilgan bilimlar berishga qodir, deb ta'kid – laydi. Shuningdek, Arastu mantiq fanining barcha muhim masala – larini ishlab chiqadi va mantiq bilish uchun zarur bo'lgan tafakkur shakllari hamda isbotlash to'g'risidagi fandir, deb yozadi, Uning fikricha, fikrlar bog'liqligi mavjud obyektiv olam hodisalari bog'lanishlarining in'ikosidir.

Arastu kategoriyalar, tushunchalar, mulohaza va xulosalar to'g'ri – sidagi ta'limotlarni kashf etadi va falsafa tarixida birinchi bo'lib kategoriyalar tizimini ishlab beradi. Shuning bilan birga u kategoriyalarning bir-biri bilan aloqadorligini, bir-biriga o'tishini isbotlab beradi. Arastu qadimgi yunon faylasuflari orasidagi eng yetuk olim sifatida jamiyatga oid masalalar haqida ham muhim fikrlar bildirgan.

Qadimgi Yunonstonning mashhur faylasuflaridan yana biri Epikur bo'lib, (mil. avv. 341-270-y.) Demokritning atomistik nazariyasini rivojlantiradi. Demokrit asosan atomlarning shakl va miqdor jihatdan farqini aytgan bo'lsa, Epikur esa ularning hajmi va og'irligi jihatdan farqini ta'kidlaydi va atomistik materia – lizmni yana bir qadam ilgari suradi. Epikur ta'limoticha, atomlar doim bo'shliqda harakat qiladi, harakat esa mangudir. Atomlar og'ir bo'lganidan hamma vaqt pastga tomon to'g'ri harakat qiladi. Bundan tashqari ular o'zaro to'qnashuv oqibatida to'g'ri yo'ldan chekinib yon tomonga ham harakat qilishi mumkin.

Epikur olam cheksiz, son-sanoqsiz bo'lib, ba'zilar biz yashayot – gan dunyoga

o'xshaydi, ba'zilar esa o'xshamaydi, deb ta'kidlaydi. U dinning ashaddiy dushmani bo'lib, Xudo haqidagi turli fikrlarni puch deb hisoblaydi.

Afinaning buyuk faylasufi Suqrot (Sokrat mil. avv. 470-399-y.) avvalo sufiylar shogirdi bo'lib, keyinchalik ularning asosiy nuqtayi nazarlarini tanqid qiladi. Suqrot tadqiqotlari markazida inson hayoti, uning jamiyatdagi o'rni va maqsadi hamda adolatli ijtimoiy tuzum muammosi turadi. Falsafa odamlarga ezgulik bilan yovuzlikni anglab olishida yordam berishi kerak, deb ta'kidlaydi.

Umuman Qadimgi Yunonistonda fan, adabiyot va san'at rivoj – lanishi bilan juda noyob falsafiy fikrlar, maktablar, oqimlar yuzaga keldi. Yunon falsafasi jahon sivilizatsiyasida alohida o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lib, dunyoga tanilgan faylasuflarni yetkazib berdi.

Qadimgi yunon siyosiy mustaqillikni qo'ldan bergach, falsafa – ning rivojlanish jarayoni Rimga o'tadi. Endi Qadimgi Rimda falsafiy fikrlarning rivojlanishini ko'rib chiqamiz.

Qadimgi davrda Yunonistondan keyin falsafiy fikrlar rivoj – langan ilg'or mamlakatlardan biri Rim edi. Rimda siyosiy va mafku – raviy sohalarida demokratiya bilan aristokratiya o'rtasida keskin kurash sharoitida quldorlar sinfi demokratiya tarafdori eng yirik tibbiyotshunos olim, shoir va faylasuf-materialist Lukretsiy Tit Kar (mil. old. 99-55 yillarda yashagan) materializmi vujudga keldi. Lukretsiy materializmi Demokrit, Epikur, atomistik materializm – ning takomili va jadimgi Rim falsafasining eng yirik yutug'i edi.

Lukretsiy o'zining materialistik qarashlarini she'riy shaklda, asosan o'zining (Buyumlarning tabiati nomli poemasida batafsil bayon etadi. Uning ta'limoticha, olamda jism va bo'sh fazodan boshqa hech narsa yo'q. Olam undagi barcha narsa va hodisalar atomlardan iborat. Atomlar materiyaning mangu bo'linmas, buzilmas, ayda harakatchan zarrachalari bo'lib, ular hajm, shakl va og'irlikka ega. Uning ri – cha, materiya harakatsiz bo'lmaydi. Atomlar uch xil harakat qiladi:

- 1) turtki natijasida vujudga kelgan harakatlar;
- 2) og'irlik natijasida yuqoridan pastga harakat;
- 3) atomlarning o'z-o'ziga to'g'ri yo'ldan chekinishi.

Harakat manbai xudo emas, balki materiyadir. Atomning o'z – o'zidan harakati to'g'risidagi Lukretsiy mulohazasida dialektikaning elementi mavjudligi shubhasizdir.

Lukretsiy tabiatni materialistik asosda izohlab tabiatdagi hamma hodisalar atomlar harakati va o'zgarishi oqibatida vujudga keladi, deb ta'kidlaydi. Cheksiz atomlar o'zlarining mangu harakat – lari natijasida bir-birlari bilan qo'shilib, yangi-yangi dunyolarni vujudga keltiradi.

Lukretsiy ta'limotidagi eng buyuk yutuqlaridan biri materiya – ning, atomlarning saqlanish qonuni to'g'risidagi fikrlardir. Uningcha, materiya mangu, hech narsa yo'qdan bor bo'lmaydi, materiya atomlarining miqdori o'zgarmas va mangu saqlanadi. Lukretsiy ta'limotining yana bir yutug'i uning makon va zamon to'g'risidagi fikridir. Makon va zamon narsalar bilan bog'liq bo'lib, ularning borliq shaklidir. Uning fikricha, makon atom va narsalar egallagan o'rindan iborat. Zamon – narsa va hodisalarning harakati tinchligi, o'tmishi va kelajagi bilan bog'liq.

Lukretsiy bilish nazariyasi ham muhim ahamiyat kasb etib, moddiy olamni bilish mumkinligini e'tirof etadi. Uningcha, bilishning maqsadi buyumlarning tabiati bilan tanishish, kishi – larni olam to'g'risidagi diniy tasavvurlardan qutqarishdir.

Lukretsiy ta'limotiga zid keluvchi g'oyalarni tanqid qilib Plotin (mil. avv. 270-204-y.) Rimda o'zining falsafiy maktabini yaratadi. Plotin butun borliqning asosi va manbai deb yagona ilohiy kuchni – xudoni hisoblaydi, qolgan narsalar shu ilohiy kuchning birin-ketin oqishining (emanatsiyasining) natijasidir. Uning fikricha, Quyosh o'zidan nur chiqargani kabi ilohiy (xudo) ham o'zidan koinotning borlig'ini chiqarib yuboradi, bunga ruh, materiya ham kiradi. Inson jon va tana birligidan iborat. Inson hayotining oliy maqsadi – o'z jonining ilohiy kuch (Xudo) bilan qo'shilishiga erishu – vidir. Kishi bunga ekstaz holatda erishadi, bu holatda kishining joni, ruhi hissi dunyodan va tanadan xolos bo'ladi. Qadimgi Bobil va Misrda, Hindiston va Xitoyda, Yunoniston va Rimda vujudga kelgan falsafiy qarashlar, g'oyalar, bilimlar ular qanday shakllarda bo'lmasin, o'zidan keyingi Sharq va G'arbiy Yevropa mamlakatlarining fan va madaniyati rivojlanishiga katta ta'sirlar ko'rsatadi.

4-BOB. BORLIQ (ONTOLOGIYA) VA RIVOJLANISH FALSAFASI

4-§. Borliq (ontologiya) va rivojlanish falsafasi.

4.1. Ontologiya. Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarni o'rganuvchi qismi *ontologiya* deb ataladi. Ontologiya so'zi yunoncha *ontos* (mavjudlik) va *logos* (ta'limot) so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, «**mavjudlik haqidagi ta'limot**», ua'ni borliq haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi. Vu atama fan tarixida *X. Volf* (1679 -1754)ning falsafaga oid darsligida qo'llanilgan bo'lsada, ulardan ilgari qadimgi yunon faylasuflari ham ontologiyani mazmunini ifodalovchi turli fikrlarni ilgari surishgan. Ular ontologiyani «haqiqiy borliqni nohaqiqiy borliqdan ajratib oluvchi borliq haqidagi ta'limotdir» deb hisoblashgan.

Biz dunyo, materiya tuzilishi, makon, vaqt, harakat, hayot, ong va shu kabilar haqida tasavvur hosil qilish uchun asosan fizika, astronomiya va biologiya kabi tabiatshunoslik fanlariga murojaat etamiz. Lekin bu falsafada borliq muammolari o'rganilmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Bugungi kunda olimlar notirik, tirik dunyo va ijtimoiy dunyo nima, degan savollarga javob topishda jiddiu yutuqlarga erishganlar. Ular dunyo haqida o'tgan asrlarda yashagan o'z hamkasblariga qaraganda to'laroq va teranroq tasavvurga egadirlar. Ammo, dunyoning mohiyati haqidagi ko'pgina muhim savollarga hozir ham aniq va uzil-kesil javoblar mavjud emas. Masalan, nafaqat makon yoki vaqt tushunchalariga, balki nisbatan soddaroq hodisa bo'lmish gravitatsiya tushunchasiga ham dunyoda biron-bir fizik bugungi kunda ham aniq (ayni paytda tajribada aniqlanadigan) ta'rif bera olmaydi.

Shi sababli insonning dunyo haqidagi qarashlarida muhim rol o'ynaydigan, biroq ilmiy echimini topmagan muammolarni falsafiy anglab etishga kuchli

ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan va hozir ham saqlanib qolmoqda. Vi muammolarning aksariyati haqli ravishda «boqiy» muammolar deb ataladi, chunki ular predmeti tos kelsa ham bilish metodlari va vositalari har xil bo'lgan fan va falsafa ye'tiboripi o'ziga jalb qilmoqda. SHuni ta'kidlash lozimki, fizika va boshqa tiauuap fanlarga joiz bo'lmagan narsalar falsafa uchun joizdir. Aniq dalillarga tayanadigan va ularga muvofiq qarashlar birligiga erishishga harakat qiladigan tabiatshunoslikdan farqli o'laroq, falsafa yakdillikka intilmaydi va aupi bir muammolar bo'yicha ba'zap qarama-qarshi, bir-birini istisno etuvchi javoblar beradi. Shu tariqa dunyoqarashni kengaytiradi, eski muammolarning odatdagi talqinini o'zgartiradi, aniq fanlarning metodlari bilan amalga tatbiq etiladigan yangi echimlar ustida ijodiy izlanishga da'vat etadi.

Borliq tushunchasiga qarama-qarshi tushuncha – bu yo'qlikdir. Agar borliq tushunchasi nimaningdir mavjudligini ifodalasa, uo'qlik tushunchasi esa o'sha joyda nimaningdir mavjud yetasligipi anglatib, «nima»ning aksi bo'lgan «hech nima»ni aks ettiradi. Borliq, yuqorida qayd etganimizdek, absolyut mazmunga ega bo'lib, muayyan (konkret) narsalar shaklida va nisbatan muayyan sifatiy holda mavjud bo'lgan yaxlit ob'yektiv va sub'yektiv reallikni o'ziga qamrab oladi. Yo'qlik esa nisbiu mazmundagi tushuncha bo'lib, qaerdadir yoki nimadadir, nimaningdir ayni paytda mavjud emasligini ifodalaydi. Masalan, uo'qlik deb o'tmishdagi va kelajakdagi hodisalarning hozirgi zamonda (ayni shu vaqtda) uo'qligini aytishadi. Bugungi hodisa kecha hali uo'q edi, ammo potensial (imkoniyatdagi) borliq sifatida mavjud edi. Ertangi hodisa ham hozircha uo'qlik, ammo potensial borliqdir.

Biz o'tmishni bugungi kunda qoldirgan iziga qarab, kelajakni esa bugungi hodisalardagi o'zgarish sur'ati (temp'i) va tendensiyalariga qarab baholaymiz. Bugungi voqelik ertaga uo'qlikka aylanadi, ko'pgina tirik jonivorlar ertaga o'lik bo'ladi, ua'ni hayot o'limga aylanadi. O'lim – bu hayotning uo'qligidir. Olingan individning hayotiy borlig'i u o'lgach, uo'qlikka aylanadi. Ammo, uning qoldiqlari, tanasi birdan uo'qolmasligi mumkin. Ular ham uo'qolgach, odamlar xotirasida uning siymosi qolishi mumkin. Xullas, absolyut (mutlaq) uo'qlikning o'zi uo'qdir. Yo'qlik shu ma'noda nisbiy mazmun kasb etadi.

Shuningdek, falsafiy adabiyotlarda tabiat borlig'i va jamiyat borlig'ining quyidagi shakllari ham farqlanadi. **Tabiat borlig'i** odatda tabiatdagi narsalar (jismlar), jarayonlar, holatlar borlig'i sifatida tushuniladi. U ikkiga bo'linadi: azaliy tabiat borlig'i (yoki tabiiy tabiat borlig'i, u insondan ilgari va uning ishtirokisiz ham mavjud bo'lgan) va odam mehnati bilan ishlab chiqarilgan narsalar borlig'i («ikkinchi tabiat» borlig'i, ua'ni madaniyat). Ikkinchi tabiat borlig'i esa, o'z navbatida, quyidagi ko'rinishlarda uchraydi:

- **inson borlig'i** (insonning narsalar olamidagi borlig'i va odamning o'ziga xos bo'lgan insoniy borlig'i);

- **ma'naviy borliq** (individuallashtirgan va ob'yektivlashtirgan ma'naviy borliq);

- **sotsial borliq** (ayrim odamning tarixiy jarayondagi borlig'i va jamiyat borlig'i), u ijtimoiy borliq ham deb ataladi.

Borliqning moddiy shakli materiya o'ziga barcha jismlarni, hodisalarni, jarayonlarni va ularning xususiyatlarini qamrab oladi. Bundan tashqari u tafakkurni ham, olamda mavjud bo'lgan barcha aloqadorliklarni va munosabatlarni ham qamrab oluvchi umumiy falsafiy tushunchadir. Borliqning moddiy shakliga xos umumiylikni axtarishning bir u'nalishi moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish u'li bo'lib, yuqorida qayd etganimizdek, *substansiyani aniqlash* u'lidir. Ikkinchi u'l esa – moddiy olamning asosiy tarkibiga kiruvchi «qurilish elementlarini»- *substratni axtarish* u'li. Uchinchi u'l – hamma narsaning vujudga keltiruvchi bosh sababchisini, ota moddani, ua'ni *pramateriyani axtarish* u'li. Mana shu u'l haqida maxsus to'xtab o'taylik.

Olamning substansiyasini axtarishning bu usuli go'yoki meva iste'mol qilayotgan kishi, uning kelib chiqishini axtarib, dastlab daraxtga, so'ngra uning guliga, bargiga, ko'chatiga va urug'iga nazar solganidek, atrofimizdagi moddiy olamning o'zagida dastlabki yaratuvchi modda sifatida nima yotishini, ua'ni ilk materiyani, azaliy materiyaning «bobokolonini», «pramateriyani» axtarish usulidir.

Moddiy olamning asosida yotuvchi umumiy mohiyatni axtarish falsafada materiya haqidagi tasavvurlarning maydonga kelishiga va rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Materiya tushunchasi moddiy unsurga nisbatan ham, atomga nisbatan ham,

pramateriyaga nisbatan ham umumiyroq bo'lgan tushunchadir. Materiya olamdagi barcha moddiy ob'yektlarni, butun ob'yektiv reallikni ifoda etuvchi eng umumiu tushunchadir. Faylasuflar «Tom ma'nodagi materiya faqat fikrning maxsuli va abstraksiyasidir» deb yozishadi. Faylasuflar barcha moddiy ob'yektlarga xos xususiyatlarni umumiu tarzda ifodalash uchun qo'llaydigan tushuncha materiya deb ataladi. Demak, materiya moddiy ob'yektlarga xos eng umumiu tushuncha, falsafiy kategoriyadir.

XX asrning o'rtalariga kelib, kvant mexanikasi, nisbiylik nazariyasi va hozirgi zamon kosmologiyasi sohalaridagi ilmiy yutuqlar kishilarning ob'yektiv olam hakidagi tasavvurlarini tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada, tabiatshunos olimlar sezgilarimizga bevosita ta'sir etishining imkoni bo'lmaydigan realliklar haqida ham tadqiqotlar olib bora boshladi.

Olamning klassik mexanika nuqtayi nazaridan kelib chiqib, nisbatan kichik tezlikda harakatlanuvchi sistemalar haqidagi ilmiy manzarasi o'rmini yangicha ilmiy manzaralar egallay boshladi. Vu esa materiya haqidagi tasavvurlarning yanada rivojlanishiga sharoit tug'dirdi. Vu o'zgarishlarni hisobga olib, marksist-faylasuflar bu ta'rifga sezgilarimizga bevosita yoki bilvosita (ua'ni turli asboblari, qurilmalar vositasida) ta'sir etuvchi, degan qo'shimcha kiritishdi. SHunday qilib, bu ta'rif go'uo materiyaning moddaviy va nomoddaviy shakllarini, ua'ni modda va antimodda ko'rinishlarini qamrab oluvchi ta'rifga aylandi.

Materialistlar materiyaning ob'yektiv reallik, deb ta'riflashadi. Ob'yektiv reallik inson sezgilariga bog'liq bo'lmagan holda, undan tashqarida mavjud bo'lgan voqelikdir. Vu butun mavjudlikning sub'yektiv reallikdan tashqaridagi qismi hisoblanadi. Ob'yektiv reallikning mavjudligi qanday namoyon bo'ladi? Vu savolga javob topishda, borliqning ajralmas xususiyatlarini o'rganishga to'g'ri keladi. Nar qanday jismning ajralmas xususiyati lotincha «atribut» so'zi bilan ataladi.

4.2. Moddiy va g'oyaviy borliq. Atrofimizni o'rab turgan dunyo ikki xil reallikdan tashkil topgandir. Ob'yektiv reallik va sub'yektiv reallik. Ongimizdan tashqarida va unga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan reallik *ob'yektiv reallik*

deyiladi. Vu tushunchani materialistlar materiya tushunchasi bilan aynan bir ma'noda ishlatishadi. Reallikning inson ongi bilan bog'liq bo'lgan va ongning mahsuli hisoblangan qismi *subektiv reallik* deyiladi.

Aktual va potensial borliq. Aktual borliq borliqning auri paytda va shi joydagi voqelikda patouop bo'lib turgan va shi voqelik bilan aloqadorlikdagi qismi. VI ob'yektiv reallik tushunchasiga tos keladi, chunki ob'yektiv reallik borliqning shi joyda berilgan va shi onda atal qilayotgan qismidir. Dunyoning hamma tomoni birdan berilgan yetas. Biz borliqning hozirgi zamonga tegishli qismi bilangina aloqadamiz VI qismi o'tmishga aylanib, uning o'rnini kelajakdagi qismi egallaydi. Hozirgi zamonda kelgusi voqelikning kurtaklari mujassamlashgan bo'ladi. Aktual borliqning hali voqelikka aylanmagan va kelgusida voqelikka aylanadigan murtak holidagi qismi potensial borliq deyiladi. Potensial borliq hali voqelikka aylanishga ulgurmagan, salohiyotdagi aktual borliqdır.

Real va virtual borliq. Borliqning biz uchun mavjud qismi real borliq deyiladi. Real borliqni naqd borliq ham deyish mumkin. Atto borliqning shunday qismi ham borki, uning bo'lishi ham, bo'lmashligi ham mumkin. Borliqning bunday qismi ehtimoliy mazmunga ega. U hali reallikdan uzoqda. Mapa shunday mazmundagi borliq virtual (lot. virtuales – ehtimol) borliq deyiladi.

Notirik tabiat o'z shakllari va holatlarining son-sanoqsizligi va rang-barangligi bilan aqlni lol qoldiradi. U turli jismlar, predmetlar, zarralar, gazlar, maydonlar, xossalar, hodisalar ko'rinishida amal qilar ekan, muttasil harakat va o'zgarishlar jarayonini boshdan kechiradi.

Harakat tushunchasi. Fazo va vaqt – materiya mavjudligining ob'yektiv shakllari.

«Harakat» tushunchasi «Borliq falsafasi» mavzuida yoritilganligi sababli, bu erda uning quyidagi qisqa ta'rifi bilan cheklanamiz: harakat deb olamdagi har anday o'zgarishga aytiladi. Rivojlanish tushunchasi esa quyidan yuqoriga, tiydan murakkabga tomon ilgarilab boruvchi harakatni ifodalaydi. Lekin bu

jarayon goh to'g'ri chiziqli, goh asta-sekin kengayib boradigan spiralsimon shakldagi harakatdan iborat bo'lishi mumkin.

Bunda doimiy bir tomonga, masalan, vaqtning o'tmishdan kelajakka tomon o'tishi ham, lekin makonda voqea va hodisalarning takrorlanishi, zamonda orqaga qaytishlar ham sodir bo'lib turadi. Va'zida taraqqiyotning ma'lum bir bosqichida oldingi bosib o'tilgan davr takrorlangandek bo'ladi, ammo bu ilgarigidan farq qiladigan, boshqacharoq tarzda takrorlanishdir.

Nesh qachon bir xil tong otmaydi, deb bejiz aytmaydilar. Holbuki, har kuni tongda o'sha Quyosh chiqadi, o'sha tog'u toshlarni, bog'u biyobonlarni, biz yashayotgan zaminni yoritadi. Odamlar ham, ish va tashvishlar ham hamon o'sha-o'shadek. Kimdir ishga shoshadi, kimdir o'qishga, kimdir yana ilgarigi kundek bekorchilikdan zerikadi. .. Ammo dunyo o'zgarmadimi bu bir kunning ichidag' unda minglab bolalar tug'ilmadimi, son-sanoqsiz jarayonlar ro'u berib, Yer sayyorasining turli burchaklaridan boshqa joylarga qanchadan-qancha axborotlar tarqatilmadimi. Ona zamin o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishini davom ettirmadimig' Bularning barchasi bir kunu-tunda ro'u bergan botiniy va zohiriy o'zgarishlarning namoyon bo'lishidir.

Harakatning turlari haqidagi mulohaza, asosan, o'zgarishlarning xususiyatiga asoslangan. O'zgarishlar oddiy fazoviy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy o'zgarishlargacha takomillashib borgan. SHu tufayli harakatga faqatgina fazoviy siljish, deb qaramaslik lozim. Bunday qarash olamdagi barcha jarayonlarga mexanik harakat nuqtayi nazaridan yondashishni vujudga keltiradi. Aslida olamda o'zgarishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular bir-biridan sifatiy farq qiladi.

Mexanik, ximiyaviy, biologik, fizik o'zgarishlar bilan ijtimoiy o'zgarishlarni aslo taqqoslab bo'lmaydi. To'g'ri, bu o'zgarishlar uchun umumiu bo'lgan fazoviy siljishlar harakat shakllarining hammasida ham, u yoki bu ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Lekin hamma o'zgarishni ham, faqatgina fazoviy siljishdan iborat, deb bo'lmaydi. Masalan, Erning Quyosh atrofidagi. Oyning Yer atrofidagi harakatini fazoviy siljishning yaqqol ko'rinishi deyishimiz mumkin. Lekin Yer bag'rida ro'u berayotgan murakkab geologik jarayonlarni, Yer sirtidagi biosferaning yashash

usulini birgina mexanik siljish bilan izohlab bo'lmaydi. Harakatning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, u bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar ham shu qadar murakkab bo'ladi. Materiyaning tashkiliy struktura darajasi qanchalik yuqori darajada bo'lsa, unda fazoviy siljish ham shu qadar kam seziladi.

O'zgarishlarning shunday bir shakli borki, uni falsafada rivojlanish deb ataladi. **4.3. Rivojlanish** bu – muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgari noma'lum bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

SHu jihatdan harakatning ikki xil turi bir-biridan farq qilinadi. Harakatning birinchi turi jismda uning sifati va turg'unligini saqlagan holda ro'u beradigan ichki o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. YA'ni har qanday jismda beto'xtov ichki o'zgarishlar ro'u berib turadi, lekin bu o'zgarishlar shu jismning tashqi sifatiga jiddiu ta'sir ko'rsatmaydi.

Atrofimizni qurshab turgan har bir jism molekulalardan, molekulalar esa atomlar va elementar zarrachalardan tashkil topgan ekan, bu jismlarning molekulyar va atom tuzilish darajasida ham beto'xtov o'zgarishlar ro'u berib turadi. SHuningdek, har bir jism o'zining atrofidagi boshqa jismlarning va ulardan tarqalayotgan nurlanishlarning ta'siriga ham uchrab turadi. Bunday tashqi ta'sirlarni o'zida in'ikos ettirish jarayonida ro'u beradigan o'zgarishlar ham bu jismning sifatiy o'zgarib ketishiga olib kelmasligi, uning turg'unligi va asosiy sifati saqlanib qolishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Biz yuqorida qayd etgan ichki va tashqi ta'sirlar oqibatida ro'u beruvchi o'zgarishlar asta-sekin to'planib, keyinchalik jismda keskin sifatiy o'zgarishning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Mana shunday o'zgarish, ua'ni jismning sifati o'zgartiruvchi harakat ikkinchi turdagi harakatga kiradi va u rivojlanish deb ataladi.

Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari. Bizni qurshagan dunyo mazmuni, borliqning umumiy xossasi bo'lgan borliq haqida so'z yuritir ekanmiz, makon va vaqt tushunchalarini chetlab o'tishimiz mumkin emas. Zero, har qanday jism, narsa, hodisa doim borliqning boshqa predmetlari va hodisalari bilan yonma-

uon keladi, ko'lamlilik xususiyatiga ega bo'ladi. SHuningdek ular o'z ichki va tashqi holatlarini bir-biriga nisbatan o'zgartiradi va bu turli hollarda har xil tezlik, marom, sur'at va davomlilik bilan yuz beradi. Alohida holda ayrim yagona deb qaraladigan bu ko'rsatkichlar majmui bizga vaqt haqida tasavvur beradi. Makon va vaqt o'z rang-barangligida cheksiz borliqning shakllari sifatida amal qiladi.

Makon va vaqt falsafa tarixida. Makon va vaqt mohiyati haqida odamlar o'z rivojlanishining dastlabki bosqichlaridayoq fikr yuritganlar va o'tmishning aksariyat mutafakkirlari ularning tabiatini aniqlashga harakat qilganlar. Vu avvalo inson amaliyoti va bilishining rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan. Zero ular kengayib va takomillashib, mazkur kategoriyalarni yanada aniqroq va teranroq tushunishni talab qilgan. Xususan, antik davrdayoq falsafadan ko'lamli shakllar va ularni o'lchash usullari haqidagi fan sifatida ajralib chiqqan geometriya ilk aniq fanlardan biriga aylandi. Vaqtga astronomik kuzatishlar hamda koinotning boqiyliigi va inson hayotining tezoqarligi haqidagi mulohazalar nuqtayi nazaridan ham alohida ye'tibor qaratilgan. Keyinchalik «makon» va «vaqt» kategoriyalariga qiziqish hech qachon susaymagan. Ular bilan bog'liq ko'r sonli masalalar yuzaga kelgan. Ularning eng muhimlaridan biri quyidagicha yangraydi: makon va vaqt mustaqil mohiyatlarmi yoki ular faqat nimagadir bog'liq holda keladimi? SHu munosabat bilan falsafa tarixida shakllangan ikki muhim va bir-biridan butunlay farq qiladigan uo'nalish – substansional va relyasion uo'nalishlarni farqlash mumkin.

Substansional uo'nalishda makon va vaqt materiya va ongga bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida qaralgan. Substansional konsepsiya asoschilari Demokrit (makon muammosi bo'yicha) va Platon (vaqtga nisbatan yondashuvlarda) makon va vaqtни materiyaга ham, bir-biriga ham bog'liq bo'lmagan mustaqil mohiyatlar sifatida talqin qilganlar. Demokrit atomlar harakatlanuvchi bo'shliq amalda mavjudligi haqidagi yondashuvni ilgari surgan. Uning fikricha, bo'shliqsiz atomlar harakatlanish imkoniyatidan mahrumdir. Demokrit va Epikur makonni atomlardan iborat joy deb tasavvur qilgan va uni bo'shliq bilan tenglashtirgan. Makon mutlaq, bir jinsli va harakatsiz bo'ladi, vaqt esa bir tekis oqadi deb hisoblangan. *Demokrit, Epikur va Lukretsiy Kar ta'litotiga*

ko'ra, makon ob'yektiv, bir xil va cheksiz. U atomlar joylashadigan joy. Vaqt (zamon)pi abadiyat bilan tenglashtirish mumkin – o'tmishdan kelajak sari bir maromda kechuvchi sof davomlilikdan iborat. Vaqt – voqealar uiz beruvchi joy. Qadimgi yunon faylasuflari materiya, harakat, makon va vaqtni mustaqil substansiyalarga ajratuvchi bu g'oyalar keyinchalik Nyuton klassik mexanikasida rivojlantirildi. XVIII-XIX asrlarda substansional konsepsiya – mutlaq makon va vaqt konsepsiyasi falsafa va tabiatshunoslikda etakchilik qildi, biroq, bi o'z mohiyatiga ko'ra metafizik konsepsiya edi, chunki i harakatlanuvchi materiya, makon va vaqtning aloqadorligini ye'tiborga olmas edi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, materiyadan tashqarida sof makon yoki moddiy jarayonlar bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan vaqt mavjud bo'lishi mumkin edi. SHunga qaramay, makon va vaqt haqidagi bu tasavvurlar muayyan empirik asosdan xoli emas edi. Odatdagi tajriba va past tezliklar sohasida, makrodunyoda (makrodunyo esa inson yashaydigan asosiy muhitdir) makon, vaqt va harakatlanayotgan narsa o'rtasida bevosita aloqa kuzatilmaydi. Ob'yekt muayyan joydan uzoqlashishi mumkin, lekin buning natijasida makon o'zgarmaydi va yo'qolmaydi. Vaqt ham shunday tushuniladi, u ob'yektlarga bog'liq emas. SHuning uchun ham bunday yondashuvlar saqlanib qolgan, ayniqsa, tabiatshunoslik mikrodunyoni o'rganishga hali yaqinlashmagan sharoitda keng tarqalgan.

Ammo dialektik tafakkur sohibi bo'lgan F. Hegel bunday yondashuvlarni qat'iu inkor etgan. U makon mustaqil bo'lishi mumkin emasligini qayd etgan, vaqt haqida esa shunday degan: «hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o'zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir»⁹ degan ye'tirozlarida F. Hegel haq edi. Umuman, Hegel o'zining ob'yektiv idealizmida makon va vaqtga ye'tibor qaratmagan, chunki u vaqtdan tashqari, boqiy, «sof mantiqiy» xususiyatga ega bo'lgan bilimlarning mutlaq tizimini yaratishga harakat qilgan.

⁹ Hegel G. Nauka logika. -M.: Nauka, 1994. -S.161

Relyasion (lot. relativus – nisbiy) uo'nalish makon va vaqtni mustaqil mohiyatlar sifatida yetas, balki real dunyo ob'yektlari va jarayonlari o'rtasidagi alohida munosabatlar sifatida tushunish bilan bog'lanadi. «Vaqt nima?», degan savolga javob berar ekan, Aristotel shunday mulohaza yuritadi: harakatda ham, vaqtda ham doim muayyan «oldin» va undan farq qiluvchi «keyin» mavjud. Aynan harakat tufayli biz har xil, o'zaro mos kelmaydigan «hozir»ni farqlaymiz. Vaqt shu «hozir»ning ketma-ketligi, ularning almashuvi, sanog'i, hisobi, «oldingi va keyingiga bog'langan harakatlar soni»dir¹⁰. Aristotelda makon harakatsiz yulduzlar sohasi bilan cheklangan, ularning ortida – makon va vaqtdan tashqarida yotuvchi va hamma narsani harakatga keltiruvchi boqiy, harakatsiz, ilohiy osmon joylashgan. Mazkur nuqtayi nazardan ko'rsatilgan munosabatlar doirasidan tashqarida makon va vaqt mavjud bo'lmaydi. Vu uo'nalishning atoqli namoyandasi G. Leybnits (1646-1716) hisoblanadi.

Makon va vaqt talqinidagi bu ikki tendensiya, ua'ni makon va vaqt borliqning mustaqil, ob'yektiv hamda moddiy mazmunga bog'liq bo'lmagan asoslari sifatida yoki harakatlanuvchi materiyaning ajralmas qismi sifatida talqin qilish keyinchalik o'z rivojini topdi. Birinchi substansional konsepsiya ayrim o'zgarishlar bilan yigirma asrdan ko'proq davr amal qildi. Nyutonning materiya joylashadigan harakatsiz, uzluksiz va bir xil uch o'lchovli joy sifatidagi makon to'g'risidagi fikri o'z mohiyatiga ko'ra, Demokritning makon haqidagi g'oyalari bilan bir edi. Nyuton konsepsiyasiga ko'ra, makon absolyut bo'lib, cheksiz ko'lamga ega. SHuning uchun u o'zida barcha materiyani sig'dira oladi va turli jarayonlarga bog'liq emas. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, vaqt ham absolyut bo'lib, turli o'zgarishlarga bog'liq bo'lmagan holda kechadigan teng davriylikdir. Unda barcha narsalar paydo va uo'q bo'lib turadi. Muxtasar qilib aytganda, Nyuton makon va vaqt bir-biridan ajralgan va materiya bilan harakatga bog'liq bo'lmagan mustaqil narsa, deb tushungan.

Makon va vaqt tabiati haqidagi metafizik yondashuvlarni rad etuvchi tabiiy ilmiu dalillar XIX asr oxirida fizikada elektromagnit nazariyasi yuzaga kelishi bilan

¹⁰ Aristotel // Vsemirnaya ensiklopediya. Filosofiya. -M.: Sovremenniy literator. 2001.-S.69

shakllana boshladi. Uning rivojlanishi faylasuflarni bo'shliq haqidagi tasavvurlardan voz kechishga majbur qildi. Dastlab u «efir» to'g'risidagi g'oua bilan almashtirildi. Efir hamma joyda to'liq, lekin mutlaq va hech narsaga bog'liq bo'lmagan makonning shakli vazifasini bajardi. Keyinchalik bu tasavvurlardan ham voz kechildi.

Ammo substansional va relyasion konsepsiyalar, Gegelning ob'yektiv idealizmi doirasidagi makon va vaqt haqidagi tasavvurlar singari, makon va vaqtning ob'yektiv mavjudligiga shubha qilmas edi. Makon va vaqtni mutlaqo mustaqil atributlar sifatida qayd etuvchi metafizik substansional konsepsiya XIX-XX asrlarda fanning rivojlanish jarayonida o'z ahamiyatini butunlay uo'qotdi. Lobachevskiy makon va vaqtning evklid geometriyasi tavsiflamagan xossalari mavjud, degan taxminni ilgari surdi. Vu taxmin absolyut makon konsepsiyasini inkor etadi, chunki makon faqat geometrik tavsiflanishi lozim edi. Asosiy g'oyalari A. Eynshteyn tomonidan 1905-yilda ta'riflangan *maxsus nisbiylik nazariyasida makon va vaqtning geometrik xossalari ularda gravitatsion massalarning taqsimlanishiga bog'liq ekanligi aniqlandi. Unga ko'ra og'ir ob'yektlar yaqinida makon va vaqtning geometrik xossalari evklid geometriyasi tamoyillaridan uzoqlasha boshlaydi, vaqtning o'tish sir'ati esa susayadi. A. Eynshteyn (1916-yilda) o'zining umumiy nisbiylik nazariyasi bilan nafaqat makon va vaqtning substansional konsepsiyasiga, balki makon va vaqt mohiyatining sib'yektivistik aprioristik talqinlariga ham qaqshatqich zarba berdi. U makon va vaqt xossalari moddiy tizimlar harakati va o'zaro ta'siriga bog'liq ekanligini ko'rsatib berdi. A. Eynshteyn o'z nazariyasining mohiyatini tushuntirar ekan, shunday deb qayd etdi: «Ilgari qandaydir mo'jiza yuz berib, barcha moddiy narsalar birdan uo'q bo'lib qolsa, makon va vaqt qoladi, deb hisoblashgan. Nisbiylik nazariyasiga ko'ra esa, bu holda narsalar bilan birga makon va vaqt ham uo'q bo'lib ketgan bo'ladi»¹¹. Ya'ni, Eynshteynning nisbiylik nazariyasiga muvofiq makon va vaqt o'z holicha ham, bir-biridan ajralgan holda ham mavjud bo'lmaydi, balki materiya bilan shu darajada*

¹¹ Eynshteyn A. Fizika v jizni moyego pokoleniya. -M.: 1963.-S. 53

uzviu bog'liq bo'ladiki, pirovardida hech qanday mustaqillikka ega bo'lmaydi va yagona rang-barang yaxlitlikning atributlari sifatida amal qiladi. Yagona makon va vaqt kontinuumini tashkil etar ekan, ular moddiy jismlar harakatining tezligiga ham bog'liq: jism harakatining nisbiu tezligi oshganida uning ko'lam ko'rsatkichlari qisqaradi, uning vaqti esa o'z oqimini sekinlashtiradi. Eynshteyn nazariyasi Rimani, Lobachevskiy, Gauss va Puankarening ilg'or g'oyalariga qo'shilgan holda, makon va vaqtning gravitatsiya bilan uzviu aloqasini ham asoslab berdi.

Hozirgi zamon tabiatshunosligi va falsafiy xulosalar nuqtayi nazaridan ob'yektiv borliq makon, vaqt, harakat hamda modda va maydon turlari o'zaro ta'sirining uzviu bog'lanishidan iborat. Hozirgi olimlar yagona va ob'yektiv makon va vaqt kontinuumi to'g'risida so'z yuritishni ma'qul ko'radilar. Makon va vaqt moddiy jismlar mavjudligining o'zaro bog'langan shakllari sifatida tushuniladi.

Makon – materiya borlig'ining ko'lamlilik, tarkibiylik kabi xossalari va uning o'zaro ta'sirlaripi ifodalovchi shakli.

Vaqt – materiya borlig'ining barcha ob'yektlar mavjudligining davomiyligini va keyingi holat o'zgarishlarini tavsiflovchi shakli.

Dunyoda mavjud barcha jismlar makonda aynan uch uo'nalish bilan chegaralangani, barcha shakllarning eng yassisi ham uzunlik, kenglik va balandlikka ega bo'lgani sababli, makonimizning uch o'lchovlilik empirik jihatdan hamma joyda namoyon bo'luvchi dalil hisoblanadi. O'z makonimizda biz uning o'lchamlarini geometrik ifodalovchi uch perpendikulyarni bilamiz. Ammo jism makonda, aniqrog'i, uning makrodarajasida harakatlanmasdan, balki doimo vaqtda harakatlanadi. Shu ma'noda, voqealarni ularning ketma-ketligi tartibida ajratuvchi masofani vaqt deb nomlash mumkin. Vu masofa o'tmishdan kelajak sari uo'nalishda bosib o'tiladi, mazkur uo'nalishni makonda tasavvur qilsak, u makon va vaqt kontinuumining to'rtinchi mezoni (o'lchovi) sifatida amal qiladi. Bundan dunyoda yuz bergan muayyan voqeani aniqlash uchun to'rt son zarur, degan xulosa kelib chiqadi. Vaqt nafaqat vaqt tartibini vujudga keltiradi, balki makon va vaqtning birlashgan tartibini belgilab beradi hamda Olamning kauzal (sababiy) tuzilishini ifodalaydi.

Shunday qilib, *nisbiylik nazariyasida makon, vaqt va harakat materiya mavjudligining atributlari, asosiy shakllari sifatida qaraladi va i bilan uzviy bog'liq bo'lgan holda, materiya kabi, mustaqil holda mavjud bo'la olmaydi. Muttasil harakatda bo'lgan dunyo esa muqarrar tarzda faqat makon va vaqtda mavjud deb qaraladi.*

4.4. Inson olamning tarkibiy qismi. Insonning tabiati va mohiyati.

Falsafa tarixida insonga murojaat etmagan, inson moddiy va ma'naviy borlig'ining turli tomonlarini bevosita yoki bilvosita tahlil qilmagan faylasuf yoki falsafiy uo'nalishni topish deyarli mumkin emas. Aksariyat falsafiy va diniy tizimlar katta olam yoki makrokosmga zid o'laroq, insonga mikrokosm yoki kichik Koinot sifatida qarab, uni butun olamni tushunish kaliti deb hisoblaganlar. Faylasuflar inson sirining tagiga etish borliq jumbog'ining tagiga etish bilan barobar ekanligini qayta-qayta anglab etganlar.

Falsafaning ikki yarim ming yillik tarixi mobaynida insonga juda ko'r ta'riflar va tavsiflar berildi, u ko'r sonli sinonimlar orttirdiki, falsafiy tahlilning boshqa biron-bir ob'yektida bunday holga duch kelish mushkul. Zero, falsafa tarixida inson:

- «aqli mavjudot»;
- «siyosiy hayvon»;
- «tabiat gultoji»;
- «hayotning boshi berk ko'chasi»;
- «hayotning soxta qadami»;
- «mehnat qurollari yasovchi hayvon»;
- «o'zlikni anglash qobiliyatiga ega mavjudot»;
- «ma'naviy va erkin mavjudot» va hokazolar sifatida talqin qilingan.

Fikrlarning bunday rang-barangligi sababini, avvalo, insonning o'z tabiatidan izlash lozim. Inson tabiatining siri, hech shubhasiz, «boqiy muammolar»dan biri bo'lib, falsafa o'z predmetining mohiyati va xususiyatiga ko'ra unga qayta-qayta murojaat etgan va shunday bo'lib qoladi. Vu erda mazkur sohadagi barcha fikr-mulohazalarga mo'ljal beruvchi insonning kelib chiqishi haqidagi masala ayniqsa

muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qaerdan va qanday paydo bo'lgani haqidagi ko'rsonli g'oyalar orasidan eng muhimlarini ajratib olsak, ularning barchasini ma'lum darajada shartlilik bilan ikki asosiy konsepsiya – *insonning tabiiy va g'ayritabiiy kelib chiqishi haqidagi konsepsiyalar* doirasida birlashtirish mumkin.

Insonning kelib chiqishi haqidagi birinchi yondashuv insonning paydo bo'lishiga olib kelgan tabiatning qonuniy rivojlanishi g'oyasidan kelib chiqadi. Bunda inson jonsiz, keyinchalik esa – jonli moddaning tabiiy evolyusiyasi mahsuli sifatida qaraladi. Mazkur konsepsiya 1859-yilda inson kelib chiqishining tabiiy-ilmii talqiniga asos bo'lgan Sh. Darvinning «Hayvon va o'simlik turlarining kelib chiqishi haqida» deb nomlangan mashhur asarini ye'lon qilgan evolyusion nazariyasiga tayanadi va hozirgi vaqtda molekulyar biologiya va gen injeneriyasi sohasida erishilgan eng so'nggi yutuqlar ta'sirida o'z shakl-shamoyilini sezilarli darajada o'zgartirib, aksariyat olimlar uchun ularning ilmiu faoliyatida o'ziga xos dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, insonda nafaqat o'ta rivojlangan tirik jonzorlar, balki o'ta sodda mavjudotlar bilan ham kuchli genetik o'xshashlik mavjud. Xususan, shimpanze bilan bunday o'xshashlik 98% ni, kalamush bilan – 80% ni va hatto banan bilan – 50% ni tashkil etadi.

Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, «tabiiy» yondashuv tarafdorlari inson kelib chiqishining dunyoviy konsepsiyasiga ham (masalan, darvinchilar bilan bog'liq holda bo'lganidek), kosmik konsepsiyasiga ham tayanishlari mumkin.

Ikkinchi yondashuv insonga, Xido yoki kosmik Aql mehnatining mahsuli sifatida qarab, ipi g'ayritabiiy asosdan keltirib chiqaradi. Garchi bu konsepsiya isbotlanganlik jihatidan birinchi ta'limotga hozirgi zamon tabiatshunosligi nuqtayi nazaridan uon bersa-da, lekin falsafiy nuqtayi nazardan u insonning tabiiy-ilmii kelib chiqishi konsepsiyasi kabi mavjudlik huquqiga egadir, zero birinchi yondashuv ham, ikkinchi yondashuv ham oqilona asoslangan va uzil-kesil dalil-isbotlar keltirmaydi.

1982-yil Vatikandagi Rim Papasi fanlar akademiyasi tashkil etgan kongress ishtirokchilari – dunyoga mashhur antropologlar, bioximiklar va genetiklar hozirgi

zamon tabiatshunosligiga tayanib, inson va hayvonot dunyosi o'rtasida yaqin aloqa mavjud, degan umumiy xulosaga keldilar.

Inson nima va uning mohiyati qanday degan savollarga javob topish uchun u o'z ochadigan ba'zi bir muhim muammolarning ta'riflanishini ham ilmiy tadqiqotlarning shak-shubhasiz natijasi deb hisoblash lozim. Ularning eng muhimi – insonning kelib chiqishi, shuningdek ong, til, ijod, axloq, ma'naviyat va shu kabilarning tabiatini aniqlashdir.

Ko'rsatilgan muammolarni anglab etishga ahd qilgan har qanday odam,

- o hayot nima?
- o birinchi odam qaerda va qachon paydo bo'lgan?
- o inson ma'naviyatining tabiati qanday?
- o Erda inson paydo bo'lishining sababi nimada?
- o bunda muayyan mantiq, qonuniyat, azaldan belgilangan muqarrarlik mavjudmi yoki bunga qandaydir tasodif, anomaliya, kimningdir xohish-istagi sabab bo'lganmi?

- o hayot kosmik hodisami yoki faqat bizning sayyoramizda mavjudmi?
- o inson butun Koinotdagi birdan-bir aqlli mavjudotmi? , kabi masalalarni ye'tibordan chetda qoldirishi mumkin emas.

Vu va boshqa shunga o'xshash masalalar echimini topish ustida falsafiy tafakkur ham, ilmiy tafakkur ham tinimsiz izlanadi.

Shu ma'noda S. Sheroziyning «Inson nimadan boshlanadi?», degan savolga hech ikkilanmasdan: «Inson marhumga motam tutishdan boshlanadi», deb javob beradi¹². Dunyoga keldimu, bozorga bordim, kafanni oldimu, mozorga bordim¹³.

Shunday qilib, haqiqiy falsafada muayyan masalalar, ayniqsa inson bilan bog'liq murakkab masalalar xususida bir xil fikrlash hollari kuzatilmaydi.

Introvertiv yondashuv insonning og, jon, ruhiyat, instinklar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, ipi «ichdan» tushunish, anglab etishni nazarda tutadi.

¹² Qarang: Sa'diy Sheroziy. Ruboiylar. –T.: Sharq, 1995. –B.26

¹³ Sa'diy Sheroziy. Ruboiylar. Ruboiylar–T.: Sharq, 1995. –B. 26

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtidan» amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rip oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilan aloqasi tahlil qilinadi.

Insonning mohiyatini tushunishga harakat qilish jarayonida i nafaqat tashqi, balki ichki, pinhona xususiyatlarga ham ega ekanligini, ular jamuljam holda insonning individ, individuallik, shaxs kabi tushunchalarda aks etadigan tianuap obrazini shakllantirishini ham hisobga olish lozim. Boshqacha aytganda, insonning mohiyatini uning ichki va tashqi borlig'i birligida, uning dunyoga faol munosabatida izlash kerak.

Shunday qilib, individ tianuap insonning umumiy obrazi sifatida atal-qilsa, individuallik ipi tianuap o'ziga xos xususiyatlar sohibi sifatida tavsiflasa, «shaxs» tushunchasiga yanada torroq ta'po yuklanadi, chunki aupi holda inson uning barcha ijtimoiy sifatлари bilan jamuljam holda olinadiki, bi faqat ijtimoiy munosabatlarning i yoki bi tizimini nazarda tutgan holda shaxs to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Ya'ni keng talqinga uo'l qo'yadigan «individ» va «individuallik» tushunchalari nafaqat insonga nisbatan, balki individual xususiyatlarga ega bo'lgan ayrim tirik mavjudot, hayvonga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin. «Shaxs» tushunchasi esa doim ijtimoiy mavjudot sifatidagi inson bilangina bog'liq bo'lib, faqat shu ma'noda, ayrim insonni uning jamiyatdagi o'rni, «ijtimoiy qiyofasi» nuqtayi nazaridan tavsiflaydi.

Kezi kelganda yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har qanday shaxs zamirida oqilona faoliyat yotuvchi ongli-ixtiyoriy faollik tavsiflanadi. Shuningdek inson yangi moddiy va ma'naviy boyliklar yaratib, o'z ijodiy imkoniyatlarini izchil ro'yobga chiqarish orqali shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi zamon fanida shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi uch muhim omil: irsiyat, madaniy muhit va yashash sharoiti farqlanadi. Vu omillar o'zaro ta'sirga kirishishi natijasida inson shaxs sifatida o'ziga xos xususiyatlar majmui: tegishli ehtiyojlar, qiziqishlar, mijoz, qobiliyatlar, maqsadlar, mo'ljallar, ma'naviat va shu kabilarga ega bo'ladi. Insonning mazkur betakror individual xususiyatlari

asosan u yashayotgan muhitdagi ijtimoiy va madaniy shart-sharoitlar ta'sirida shakllanadiki, bu shaxsning shakllanishi va kamol topishida jamiyat juda muhim rol o'ynashini qayd etish imkonini beradi. Ayni vaqtda shaxs umumiy ta'rif etilgan me'yorlarga muvofiq yoki ularga zid shakllanishi va kamol topishi mumkin. Bu ma'noda ijobiy shaxslar to'g'risida ham, salbiy shaxslar to'g'risida ham so'z yuritish mumkin.

Hozirgi vaqtda aksariyat olimlar va faylasuflar inson evolyusiyasidagi ijobiy jarayonlarni va ijtimoiy o'zgarishlar imkoniyatlarini ijtimoiy munosabatlarning insonparvarlashuvi, odamlar ongidan umuminsoniy me'yorlar mustahkam o'rin olishi bilan bog'lamoqdalar. Bunda inson o'zining butun umri mobaynida, bir tomondan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga harakat qilib, boshqa tomondan esa – o'zini qurshagan ijtimoiy va tabiiy muhit ta'sirini his etib, yaxlit bir butun hodisa sifatida, uzluksiz tadrijiy rivojlanishini ye'tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, o'zining kamol topish jarayonida u doim ham sub'yekt, ham ob'yekt hisoblanadiki, bu shaxsning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi va hayot mazmunini izlashi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim falsafiy muammo yuzaga kelishini belgilaydi.

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiy an'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin. Shundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani uo'q, zero, avvalgidek, odamzotning hayot uo'li tug'ilish va o'lish sanalari an chegaralanadi. SHuningdek, birinchi sana doim muayyan, aniq bo'lsa, ikkinchi inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'ziga aniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Vu dunyoda nima uchun yashayapman?». deb so'raydi o'zidan inson va agar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga

muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilan anglay boshlaydi. Abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi.

Albatta, jamiyatda inson o'zini bu darajada yolg'iz his etmaydi, biroq, ekzistensialistlar fikriga ko'ra, bu hol toki inson boshqalarning ham o'z hayoti borligi va ular ham o'z hayotining mazmuni va o'zining vazifasi haqidagi o'ta shaxsiy muammolarni mustaqil echish zaruriyati qarshisida turganini anglab etgunga qadar davom etadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Borliq falsafasi (Ontologiya). Ontologiya borliq haqidagi ta'limot.
2. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borlig'i va ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq va inson borlig'i.
3. Olamning birinchi relyativistik modeli. In'ikos nazariyasi. Dunyoning chekliligi va cheksizligi.
4. Makon va vaqt borliqning fundamental shakllari.
5. Insonning tabiati va mohiyati.
6. Inson hayotining mazmuni va mohiyati.

5-BOB. BILISH FALSAFASI (GNOSEOLOGIYA).

5-§. Bilish falsafasi (gnoseologiya).

Bilish muammosining falsafada qo'uilishi va hal qilinishi. Haqiqat tushunchasi.

«Gnoseologiya» - sof falsafiy kategoriya. Uning nomi yunoncha **gnosis** – bilim, ilm va **logos** – ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqqan. So'zma-so'z ma'nosi - «bilish haqidagi ta'limot (fan)». Falsafiy adabiyotlarda, shu jumladan falsafiy qomuslar va lug'atlarda «gnoseologiya» atamasi «bilish nazariyasi» deb tarjima qilingan. Shu bilan bir qatorda, ayni shu mazmunni ifodalash uchun falsafiy adabiyotlarda «epistemologiya» so'zi ham qo'llaniladi.

Umuman olganda, hozirgi zamon falsafasida gnoseologiya bilish jarayonining umumiu, aniqroq aytganda – falsafiy mohiyati hamda umumiu muammolariga ye'tiborni qaratadi.

Gnoseologiya yoki bilish nazariyasi falsafiy bilimlar (falsafa fani) bo'limi bo'lib, unda 1)insonning dunyoni bilish imkoniyati;

2) insonning o'zlikni anglash jarayoni;

3)bilishning bilmaslikdan bilit sari yuksalishi,

4)bilimlar tabiati va ularning mazkur bilimlarda aks etuvchi narsalar bilan o'zaro nisbati o'rganiladi.

Shunday qilib, umuman olganda, gnoseologiya *opg, bilish, bilimni o'rganish bilan shug'ullanadi.*

Shaxsiy va ijtimoiy tajribada biz ongning mavjudligini aniq sezamiz, ongning o'z-o'ziga, boshqa odamlarga va umuman jamiyatga ta'siri natijalarini fiziologik darajada his qilamiz va ko'ramiz. Biroq bu jarayonda ongning o'zi ko'rinmaydi. Moddiy dunyo hodisalaridan farqli o'laroq, ongni kuzatish mumkin emas. U go'uo vaqt va makon chegaralaridan tashqarida turadi. Gnoseologiyaning vazifasi bu ko'rinmas ongni idrok etish, uning moddiy narsa va hodisalar dunyosi bilan o'zaro

aloqalarini aniqlash, uni o'z muhokama va tadqiqot predmetiga aylantirishdan iborat.

5.1. Gnoseologiyaning asosiy muammosi bizning barcha bilimlarimiz tajribada sinalganmi? degan «oddiy» masalani echishdan iborat: Vi savolga javob izlash va masalaning echimini topishda gnoseologiyada ikki muxolif ap'apa: bilimlarimiz tajribada sinalganini qayd etuvchi empirizm va buni inkor etuvchi ratsionalizm to'qnashadi.

Kundalik amaliyotdan olinadigan bilimlar tabiat haqida, shuningdek odamlarning o'zlari, ularning yashash sharoiti, ijtimoiy aloqalari va hokazolar to'g'risida elementlar bilimlar beruvchi kundalik-amaliy bilimlar bilishning tarixan eng birinchi shakli hisoblanadi. Bilishning bu shakli kundalik hayot, odamlar amaliyoti tajribasidan kelib chiqqan.

O'yin vositasidagi bilim. Bilimning tarixan dastlabki shakllaridan biri — o'yin vositasidagi bilit nafaqat bolalar, balki kattalar faoliyatining ham muhim unsuri hisoblanadi.

Mifologik bilim. Mifologik bilim, ayniqsa, insoniyat tarixining dastlabki bosqichida muhim rol o'ynagan. Mifologik bilimning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u borliqning fantastik in'ikosi hisoblanadi.

Badiiy bilim. Borliqni tushunib etish refleksiyaning o'ziga xos shakli bo'lib, u san'at borlig'ining barcha bosqichlarida — asar g'oyasidan boshlab uning odamlar tomonidan qabul qilinishigacha — o'ziga xos tarzda ro'yobga chiqadi.

Diniy bilim. Dinning asosiy vazifasi — inson hayoti, tabiat va jamiyat borlig'ining mazmunini aniqlashdir. U insoniyat to'plagan tajribaga tayanib, inson hayotining muhim ko'rinishlari, chunonchi: oila va turmushdagi xulq-atvor, axloqiy qoidalar, mehnat, tabiat, jamiyat va davlatga munosabatni tartibga soladi.

Falsafiy bilim. *Falsafa*, san'at va din kabi, bilish vazifalarini echish bilangina kifoyalanmaydi. Uning bosh vazifasi san'at va din bilan uyg'un — inson dunyoda ma'naviu mo'ljal olishiga ko'maklashish. Falsafiy bilim ayni shu maqsadga bo'ysundirilgan. Falsafa umuman dunyo, uning «birinchi» asoslari, hodisalarning universal o'zaro aloqasi, borliqning umumiu xossalari va qonunlari haqida umumiu

tasavvurni shakllantiradi. Falsafa dunyoni insonga bog'lab o'rganadi. Me'orlar va ideallar, ilmiy bilimlar va san'at yutuqlari, insonning tashvishlari, ehtiyojlari, hayot mazmunini anglash uo'lidagi izlanishlari faylasufning dunyoqarashini, falsafiy mushohada yuritish shaklini belgilaydi.

Ilmiy bilim. Bilimning eng oliy shakli fandır. Ayrim fanlarning vakillari fanni ta'riflar ekanlar, uni muayyan tadqiqotlar sohasi bilan bog'laydilar. Ilmiy bilim boshqa bilim turlaridan o'zining aniqligi bilan ajralib turadi. Ilmiy bilim, ma'naviy ishlab chiqarishning barcha shakllari kabi, pirovardida inson faoliyatini tartibga solish uchun zarur. Bilishning har xil turlari bu vazifani turlicha bajaradi va mazkur farqning tahlili ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning birinchi va muhim sharti hisoblanadi.

Bilish dunyoning ob'yekt va sib'yektga bo'linishini nazarda tutadi. Falsafada bu tushunchalar jonli mavjudot bo'lgan inson bilish jarayoniga olib kiradigan va bu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sub'yektivlikdan uzoqlashish uchun ishlab chiqilgan. Bilimning ob'yektivligi, haqiqatning sub'yektdan mustaqilligi ye'lon qilingan. Sxolastika tabiatshunoslikning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan sharoitda ilmiy bilish sub'yektlarining o'tkinchi manfaatlari ko'pincha ob'yektivlikka xalaqit berardi, shu bois bu tushunchalarning aniq farqlanishi o'rinli bo'lgan. Faylasuflarni sub'yektning ob'yektga ta'siri muammolari, anglab etilayotgan ob'yektga sub'yektivlikning ta'siri uo'llari va xususiyati masalalari tobora ko'proq qiziqтира oshlagan hozirgi kunda ham bu muammo va tegishli tushunchalar o'z ahamiyatini to'qotgani uo'q.

Sub'yekt – bu bilish faolligining manbai. Sub'yekt deganda odatda individ ushuniladi. Biroq bu uncha to'g'ri emas. Sub'yekt – bu, albatta, avvalo barcha bilish qobiliyatlariga ega bo'lgan individ. Sub'yekt – bu mikrogruruh, ijtimoiy gruruh, inf, jamiyat hamdir. Ayni vaqtda, kichik gruruh ham «sub'yekt» bo'lishi mumkin. fikrlash jarayoni amalga oshadigan bosh miya ro'stlog'ida tafakkur mazkur muayyan insonning harakatlari, uning kechinmalari, his-tuyg'ulariga qaratilishi mumkin: bu holda ong o'zining alohida jihati – o'zlikni anglash sifatida amal qiladi, tafakkur (individ doirasida) nimaga qaratilgan bo'lsa, shu ob'yekt bo'ladi.

Bilishning haqiqiy sub'yekti hech qachon faqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lmaydi: u o'z mayllari, qiziqishlari, fe'l-atvori, mijozi, aql yoki aqlsizlik, qobiliyat yoki qobiliyatsizlik darajasiga ega bo'lgan, irodali yoki irodasi bo'sh tirik shaxs. Biroq ko'pincha bilish sub'yekti deganda intellektual faollikning qandaydir shaxssiz mantiqiy bo'lagi tushuniladi.

Ob'yekt – bu sub'yektning bilish faoliyati qaratilgan narsa yoki hodisa. Asbob ham (uni o'rganishayotgan va ta'mirlashayotganida), boshqa individ ham, yuqorida ko'rganimizdek, anglab etayotgan individ bilan bog'liq narsalar va hodisalar ham ob'yekt bo'lishi mumkin. «Ob'yekt» tushunchasini ob'yektiv borlik bilan aralashtirmaslik kerak. Masalan, hayvonlarning hujayralaridagi xromosomalar ular sitologiya va genetikada o'rganish «ob'yekti»ga aylanishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, biroq kashf etilganidan keyingina o'rganila boshlangan va «ob'yektlar»ga aylangan.

5.2. Hissiy darajadagi bilimning shakllari. Sezgi a'zolari orqali olingan bilim – hissiy bilimlardir. *Narsalarning xossalarini sezgi a'zolari sezish va idrok etish natijasida olingan bilit hissiy bilimdir.* Masalan, inson uchayotgan samolyotni ko'radi va buning nimaligini biladi.

Sezgi. *Bilish faoliyatida sezgi – narsalar ayrim xossalarining sezgi a'zolari orqali his qilingan oddiy obrazi, ip'ikosi, nusxasi yoki o'ziga xos surati dastlabki sezgi obrazi hisoblanadi.* Masalan, aplesinda biz to'q sariq rang, o'ziga xos hid, ta'mni sezamiz. Chunki, sezgilar insondan tashqaridagi muhitda yuz berayotgan va uning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatayotgan jarayonlarda yuzaga keladi. Ovoz va yorug'lik to'lqinlari, mexanik bosim, kimyoviy ta'sir va hokazolar tashqi ta'sirlantiruvshilar hisoblanadi.

Idrok. *Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi predmetlar, ularning xossalari va munosabatlarini aks ettiruvchi yaxlit obrazni idrok etish deb ataladi.* Insonning idrok etishi narsalar, ularning xossalari va munosabatlarini tushunish va anglab etishni o'z ichiga oladi. Bunda inson o'zining har bir yangi taassurotini mavjud bilimlar tizimiga kiritadi. Sezish va idrok etish inson tashqi dunyoga amaliy ta'sir ko'rsatishi jarayonida, mehnatda, sezgi a'zolari faol ishlashi natijasida amalga

oshadi va rivojlanadi; masalan, harakatsiz ko'z narsalar rangini farqlashga qodir emas.

Xotira o'tmish va hozirgi zamonni birlashtiradi, ularning bir-biriga o'tishini ta'tiplaudi. «Tovushlar va so'zlar soni ko'paygandan keyin, odamga uning xotirasi yordamga keladi. .. Yozuv ham xotira bilan birga inson imkoniyatlarini oshiradi». Agar obrazlar miyada unga predmet ta'sir ko'rsatgan paytda paydo bo'lib, bu ta'sir to'xtaganidan keyin darhol g'oyib bo'lganida, inson narsalarni har safar mutlaqo notanish narsalar sifatida qabul qilgan, u mazkur narsalarni tanimagan, demak, ularni anglamagan bo'lar edi. Biror narsani anglash uchun aqlning ishlashi – hozirgi holatni oldingi holat bilan taqqoslashi talab etiladi. Tashqi ta'sirlarning idrok etilishi va ularning vaqtda saqlanishi natijasida xotirada tasavvurlar uyg'onadi.

Tasavvurlar – bi bir paytlar insonning sezgi a'zolariga ta'sir ko'rsatgan va keyinchalik miyada saqlanib qolgan aloqalar bo'yicha gavdalanadigan narsalarning obrazlaridir.

5.3. Haqiqatning asosiy shakllari va konsepsiyalari. Haqiqat – bilish nazariyasining bosh kategoriyasi. U borliqning bilishdagi ideal ifodasi, chunki haqiqat ongdan, bilayotgan sub'yektdan tashqarida va undan qat'iu nazar mavjuddir. **Haqiqat – bilimlarning ob'yektiv borliqqa muvofiq bo'lgan mazmuni.** U bilish jarayoni, bilish in'ikosining natijasidir. Haqiqat ilmiu nazariyada mujassamlashgan anglab etilgan tasdiqlovchi mulohazalar ko'rinishida o'z ifodasini topadi. Nar ganday ilmiy nazariya rivojlantirilishi, ba'zap boshqa, yanada haqiqiyroq nazariya bilan almashtirilishi lozim. Shi ta'poda haqiqat – bilish rivojlanishining yakuni va omilidir.

Hozirgi zamon bilish nazariyasida haqiqiy bilim va uning shakllari haqida turli rlar mavjud.

Ob'yektiv haqiqat – bilimlarimizning inson insoniyatga bog'liq bo'lmagan zmmuni. Bizning bilimlarimizda doim uo muayyan odamga, uo muayyan ijtimoiy aruhga bog'liq bo'lgan unsur mavjud bo'ladi. Binobarin, o'z bilimlarimizda sub'yektiv unsurlarga bog'liq bo'lmagan va shu sababli ob'yektiv hisoblanadigan

mazmunni qayd etishimiz lozim. Ob'yektiv haqiqat rivojlanib, ikki shakl: nisbiu va mutlaq haqiqat shakllarida amal qiladi.

Mutlaq haqiqat – predmetni kelajakda to'ldirilishi yoki unga aniqlik kiritilishi mumkin bo'lmagan tarzda to'la, mukammal bilishdir. Olam vaqt va makonda cheksizligi tufayli bunday bilimga amalda erishish mumkin emas. Haqiqat tushunchasini mutlaq haqiqat tushunchasi bilan tenglashtirib, biz unga erishib bo'lmasligi, demak, umuman bilish mumkin emasligi haqida gapiramiz. Biroq fanning haqiqiy tarixi buning teskarisidan dalolat beradi: fan rivojlanadi, chunki u nisbiu va mutlaq bilimning birligi sifatida tushuniladigan haqiqatni bilishga qodir. Boshqacha aytganda, ob'yektiv haqiqat to'la va mukammal ko'rinishdagi mutlaq haqiqatdir. Ayrim hollarda, agar haqiqat vaqt o'tishi bilan o'zgarmasa, u'ni vaqt shart-sharoitlariga bog'liq bo'lmasa, u boqiy haqiqat deb ataladi.

Nisbiy haqiqat – borliqni asosan to'g'ri aks ettirsa-da, obraz ob'yektga uncha tos emasligi bilan ajralib turadigan bilat. Nisbiu haqiqat to'g'ri, biroq noto'liq, taxminiy, vaqt va joyning muayyan tarixiy shart-sharoitlari bilan cheklangan haqiqatdir.

Nisbiu va mutlaq haqiqat bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Nisbiu haqiqatlar bilish taraqqiyoti jarayonida rivojlanib, o'z chegarasi bo'lgan mutlaq haqiqatga yaqinlashadi.

Nisbiu va mutlaq haqiqat dialektikasi bizning bilimimiz atrofimizdagi olamni har tomonlama va aniq qamrab olishga intilib, qarama-qarshiliklarni echib, ob'yektiv borliqni yanada teranroq va mukammalroq aks ettirishini ko'rsatadi.

Fanning u yoki bu qoidasining haqiqiyliigi yoki soxtaligi, aniq-ravshan ko'rinish turmaydi. Faqat eng sodda mulohazalar o'zining haqiqiyliyini tasdiqlash uchun sezgi idrokidangina foydalanishni talab qiladi: ko'rsatish mumkin bo'lgan narsani isbotlashning hojati uo'q.

Takrorlash uchun savollar.

1. Bilishning mazmun mohiyati nima
2. Epistemalogiya tushunchasi nima
3. Gnostiklar va agnostiklar kimlar

6-BOB. MANTIQ

6-§. Mantiq.

«Mantiq» arabcha soʻz boʻlib, maʼnosi boʻyicha «logika» soʻziga muvofiq keladi. «Logika» atamasi esa, grekcha «logos» soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, «fikir», «soʻz», «aql», «qonuniyat» kabi maʼnolarga ega. Uning koʻrmaʼnoligi turli xil narsalarni ifoda qilishida oʻz aksini topadi. Xususan, mantiq soʻzi, birinchidan, obʼyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, «obʼyektiv mantiq», «narsalar mantigʻi» kabi iboralarda), ikkinchidan, tafakkurning mavjud boʻlish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar oʻrtasidagi aloqadorlikni xarakterlaydigan qonun-qoidalar yigʻindisini (masalan «subʼyektiv mantiq» iborasida), va nihoyat, uchinchidan, tafakkur shakllari va qonunlarini oʻrganuvchi fanni ifoda etishda ishlatiladi.

6.1. Tafakkur shakllari

«Ilmiy nazariya» tushunchasida esa, predmetlarning birorta sohasiga oid boʻlgan va ular haqida yaxlit tasavvur beradigan, maʼlum bir metod yordamida qurilgan tushunchalar sistemasi ifoda etilgan. Xuddi shuningdek, «predmetlarning birorta sohasiga aloqadorligi», «predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga imkoniyat berishi», «maʼlum bir metod yordamida qurilishi», «tushunchalar sistemasi shaklida boʻlishi» ilmiy nazariyaning muhim belgilari hisoblanadi. Agar tushuncha aks ettirayotgan predmetni A bilan, unda fikr qilinayotgan muhim belgilarni, uʼni fikrlash elementlarini $a, b, s, \dots, n$ bilan belgilasak, tushunchaning mantiqiy strukturasi $A(a, b, s, \dots, n)$ shaklida simvolik tarzda ifodalash mumkin.

Hukmlarda predmet bilan uning xossasi, predmetlar oʻrtasidagi munosabatlar, predmetning mavjud boʻlish yoki boʻlmaslik fakti haqidagi fikrlar tasdiq yoki inkor shaklida ifoda etiladi. Masalan «Temir-metall» degan hukmda predmet (temir) bilan uning xossasi (metall ekanligi) oʻrtasidagi munosabat qayd etilgan. «Axloq huquqdan ilgari paydo boʻlgan» degan hukmda ikkita predmet (axloq va huquq) oʻrtasidagi munosabat qayd etilgan. Mazmun jihatdan turli xil boʻlgan bu hukmlar

tuzilishiga ko'ra bir xildir: ularda predmet haqidagi tushuncha (S) bilan predmet belgisi haqidagi tushuncha (R) o'rtasidagi munosabat qayd etilgan, ua'ni R ning Sga xosligi tasdiqlangan. Umumiu xolda hukmning mantiqiy strukturasi (shaklini) S-R formulasi yordamida ifoda etish mumkin.

Xulosa chiqarish ko'rinishlari mazmuni bo'yicha turlicha bo'lishiga qaramasdan, bir xil mantiqiy strukturaga ega. Nar ikkalasida xulosani tashkil etuvchi tushunchalar xulosa chiqarish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan hukmlarda uchinchi bir tushuncha (birinchi misolda-«daraxt», ikkinchi misolda – «ximiyaviy element» tushunchasi) orqali bog'langan.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan tafakkur shaklining fikrning konkret mazmunidan nisbatan mustaqil holda mavjud bo'lishi va, demak, o'ziga xos qonuniyatlarga egaligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun xam mantiqda uni alohida o'rganish predmeti sifatida olib qarash mumkin.

Tafakkur qonuni muhokama yuritish jarayonida fikrlar (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat. Tafakkur qonunlari mazmunidan kelib chiqadigan, muhokamani to'g'ri qurish uchun zarur bo'lgan talablar fikrning aniq, izchil, etarli darajada asoslangan bo'lishidan iborat.

Formal mantiqqa to'g'ri tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi falsafiy fan, deb ta'rif berish mumkin.

Formal mantiqning asosiy qonunlari quyidagilardan iborat

1. Ayniyat qonuni.
2. Nozidlik qonuni.
3. Uchinchisi istisno qonuni.
4. Etarli asos qonuni.

Ayniyat qonuniga ko'ra ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir. Vu qonun formal mantiq ilmida «A-A dir» formulasi bilan ifodalanadi. \

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, xesh bo'lmaganda ulardan biri albatta

xato bo'lishini ifodalaydi. Vu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi.

Uchinchi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin uo'q ekanligini ifodalaydi. Vu qonun «A V yoki V emasdir» formulasi orqali beriladi.

Yetarli asos qonuni. To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ua'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati etarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnits ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashisha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun etarli asosga ega. Nar bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak. Etarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: «Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud».

Tushuncha – predmet va hodisalarning umumiu, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Nar bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo'lganligi uchun ko'r belgilarga ega. Ularning ba'zilar faqat bitta predmetga xos bo'lgan, uning individual, yakkalik belgilarini tashkil qilsa, boshqalari predmetning ma'lum bir guruhiga tegishli bo'lib, umumiu belgilar hisoblanadi. Masalan, har bir kishi faqat o'zigagina xos bo'lgan ruhiy kechinmalar va shu kabi individual belgilarga ega. SHuning bilan birga kishilarning ma'lum bir guruhiga (mehnat jamoasi, millat

va shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat qilish, fikr yuritish qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va shu kabilar) xos bo'lgan umumiu belgilarga ega.

Individual va umumiu belgilarning ba'zilar predmetning mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lib, uning tabiatini, mohiyatini ifodalaydi. Bunday belgilar predmetning muhim belgilari deyiladi. Masalan, davlatning mavjud bo'lishi uning o'z maydoni, aholisi, hokimiyat organlariga ega bo'lishini taqoza etadi.

Nomuhim belgilar predmetning mohiyatini tashkil qilmaydi. Ularning uo'qolishi bilan predmetning tabiati o'zgarmaydi. Masalan, qaysi irqqa, millatga, jinsga taalluqli bo'lishi individning inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas.

Tushuncha, hissiu bilish shakllaridan farqli o'laroq, inson miyasida to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. U ma'lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Vu usullar taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash, umumiu tomonlari va bir-biridan farq qildiruvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash analizni taqoza qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bo'lmaydi. Ular u yoki bu xossasiga ko'ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalar ajratilishi lozim. analiz yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida o'rganiladi.

Sintez analizga teskari usul bo'lib, u analiz davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holiga keltirishdan iborat. Sintez bo'lmasa predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib bo'lmaydi. Analiz va sintez uzviu bog'liqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiu va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhimlari chetlashtirilishi lozim. Vu esa abstraksiyalash yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiu, muhim xususiyatlariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so'z bilan uzviy bog'liq. Ular o'rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o'rtasidagi bog'lanishning konkret tarzda namoyon bo'lishidir.

Tushunchalar so'z va so'z birikmalari yordamida ifoda qilinadi. Masalan «talaba», «tarix fakulteti», «Buxoro davlat universiteti» va shu kabilar so'zlardan iborat. Lekin bundan tushuncha va so'z aynan bir xildir, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Bitta tushuncha har xil tillarda, ba'zan bir tilda ham turli xil so'zlar bilan ifoda qilinadi. Tilimizdagi omonim va sinonim hodisalari so'z va tushunchaning nisbiy mustaqil holda mavjudligidan dalolat beradi.

Shuni ham aytish lozimki, so'zning ko'r ma'noga ega bo'lishi ba'zan fikr yuritish jarayonida tushunchalarni aralashtirib yuborishga olib keladi. Shuning uchun ham fan va texnikada ko'proq terminlardan foydalaniladi. Termin qat'iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so'z bo'lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil ma'noda ishlatiladi.

Tushuncha o'zining mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning mazmunini unda fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari yig'indisi tashkil etadi. Masalan, «fan» tushunchasining mazmunini fanning muhim belgilari, u'ni uning amaliyot bilan aloqada ekanligi, predmetlarning birorta sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, prinsiplar shaklidagi ob'yektiv chin (haqiqiy) bilimlar sistemasidan iborat bo'lishi, dunyoqarashning shakllanishida ishtirok qilishi va shu kabilar tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi esa unda fikr qilinayotgan predmetlar yig'indisidan iborat. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan «fan» tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni o'zida qamrab oladi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi uzviy bog'liq bo'lib, u tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari nisbat qonuni yordamida ifodalanadi. Vu

qonunga muvofiq tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi. Masalan, «Fan» tushunchasining mazmuniga «mantiq»ga oid bo'lish» belgisini qo'shish bilan hajm jihatidan undan torroq bo'lgan «mantiq fani» tushunchasiga o'tiladi.

«Fan» tushunchasining hajmini kengaytirish bilan mazmun jihatidan unga nisbatan torroq bo'lgan «ijtimoiy ong shakli» tushunchasi hosil qilinadi. Bunda faqat fanga xos bo'lib, boshqa ijtimoiy ong shakllarida, masalan san'atda bo'lmagan spetsifik belgilar tushuncha mazmunidan chiqarib tashlanadi.

Bu qonun tushunchalar bilan olib boriladigan qator mantiqiy amallar asosida yotadi.

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadilar. Xususan, hajmiga ko'ra yakka va umumiu tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, «Yer planetasi», «BuxDU asosiy kutubxonasi» va shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiu tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. «Planeta», «Kutubxona» tushunchalari umumiu tushunchalar hisoblanadi. Umumiu tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «ximiyaviy element» tushunchasida fikr qilinayotgan predmetlar soni chegaralangan. Ularni hisobga olish mumkin. «Yulduz» tushunchasi hajmini tashkil qiluvchi predmetlar soni esa cheksiz, ularni hisobga olib bo'lmaydi.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va to'plovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiu tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfning har bir predmetiga xosdir. Masalan, «BuxDU talabalari ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiya materiallarini o'rganmoqda» degan fikr BuxDUning har bir talabasiga tegishli. Demak, «BuxDU talabalari» tushunchasi bu erda ayiruvchi tushunchadir. " BuxDU talabalari ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasi yakunlarini muhokama etishmoqda» degan fikrda esa, «BuxDU talabalar» tushunchasi to'plovchi tushuncha sifatida ishtirok qiladi, chunki fikr ularning to'plamiga nisbatan bildirilgan.

Mazmuni bo'yicha tushunchalar, avvalam bor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo'linadilar. Konkret tushunchalarda predmet o'zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi. Masalan «Inson», «Tabiat» tushunchalari-konkret tushunchalar, «qahramonlik» (insonga xos xususiyatni aks ettiradi), «Go'zallik» (borliqdagi predmetlarga xos xususiyatni ifoda qiladi) tushunchalari abstrakt tushunchalardir.

Mazmuni bo'yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo'lgan predmetlarni aks ettiradi. «Davlat», «Badiiy asar» ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo'lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, «O'qituvchi» va «O'quvchi», «Ijoby qahramon» va «Salbiy qahramon», «Sabab» va «Oqibat» tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba'zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar xam farq qilinadi. Ijoby tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, «Savodli kishi», «Vijdonli kishi» - ijobiy tushunchalar, «Savodsiz kishi», «Vijdonsiz kishi» - esa salbiy tushunchalardir.

Biz yuqorida tushunchalarning bir qancha turlari bilan tanishib chiqdik. U yoki bu tushunchaning ana shu turlardan qaysilariga mansub ekanligini aniqlash unga mantiqiy tavsif berish demakdir. Masalan, «Talaba» – umumiy, ayiruvchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushuncha; «A. Navoiy nomli O'zbekiston davlat kutubxonasi"-yakka, to'plovchi, chegaralangan, konkret, nisbatsiz, ijobiy tushunchadir.

Ob'yektiv dunyodagi barcha predmet va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi uchun, ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro ma'lum bir aloqalarda, munosabatlarda mavjud. Vu munosabatlar turli xil bo'lib, ularni aniqlash uchun, avvalambor, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarni farq qilish lozim.

Taqqoslanadigan tushunchalar umumiu belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jixatidan bir-biriga yaqin turgan tushunchalardir. Masalan, «Metallurg» va «Ishchi» tushunchalari ana shunday taqqoslanadigan tushunchalar hisoblanadi.

Taqqoslanmaydigan tushunchalar esa, bir-biri bilan uzoq aloqada bo'lgan, ko'r hollarda moddiy yoki ideal bo'lishdan boshqa umumiu belgiga ega bo'lmagan predmetlarni aks ettiruvchi tushunchalardir. «Ijtimoiy progress» va «Zuhro yulduzi», «Ideal gaz» va «Go'zallik» tushunchalari taqqoslanmaydigan tushunchalar deb hisoblanadi. Mantiqda taqqoslanmaydigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar o'rganilmaydi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi.

Sig'ishadigan tushunchalarning hajmi bir-biriga butunlay, to'laligicha yoki qisman mos keladi. Ular o'rtasida uch xil munosabat mavjud: moslik, qisman moslik va bo'ysunish. Moslik munosabatidagi tushunchalar bitta predmetni (predmetlar sinfini) aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ular bir-biridan faqat mazmuni bilangina farq qiladi. Masalan,

«I. A. Karimov», «O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti» tushunchalari xuddi shu munosabatda mavjuddir. Buni quyidagi sxema yordamida ko'rsatish mumkin.

A-I. A. Karimov.

V-O'zbekiston Respublikasi, birinchi Prezidenti.



Qisman moslik munosabatidagi tushunchalarning hajmi qisman umumiylikka ega. Masalan:

A-Sportchi.

V-Talaba.



Doiralarning shtrixlangan qismi bir vaqtning o'zida ham sportchi, ham talaba bo'lganlarni bildiradi.

Vo'ysunish munosabatida tushunchalardan birining hajmi ikkinchisining hajmiga to'liq kirib, uni tashkil qiluvchi qism hisoblanadi. Masalan:

A-Fan.

V-Mantiq.



Vu munosabatdagi tushunchalardan biri bo'ysundiruvchi (A), ikkinchisi (V) bo'ysinuvchi bo'lib, ular jins-tur munosabatida bo'ladi. Jins tushuncha predmetlarning birorta sinfini, tur tushuncha esa shu sinfga mansub predmetlarning bir guruhini yoki bittasini aks ettiradi. Mantiqda u yoki bu tushunchaning jins yoki tur ekanligi nisbiy harakterga egadir. Nar bir tushuncha o'zidan umumiyroq tushunchaga nisbatan tur, kamroq umumlashgan tushunchaga nisbatan jinsdir. Masalan, milliy g'oua, g'oua, fikr tushunchalari o'rtasida quyidagi nisbat mavjud: «G'oua» tushunchasi «Fikr» tushunchasiga nisbatan tur, «Milliy g'oua» tushunchasiga nisbatan jins bo'ladi.

Sig'ishmaydigan tushunchalar hajmi jixatidan umumiylikka ega bo'lmagan tushunchalar hisoblanib, bir sinfga kiruvchi har xil predmetlarni yoki predmetlar guruhini aks ettiradi. Ularning umumiyliigi faqat ana shunda. Vu tushunchalar o'rtasida ham uch xil munosabat bor: birga bo'ysunish, qarama-qarshilik, zidlik.

Birga bo'ysunish munosabati quyidagi tushunchalar o'rtasida mavjuddir.

A-Fan.

V-Mantiq.

S-Fizika.



Bunda «Mantiq» va «Fizika» tushunchalari hajmlari jihatidan birgalikda «Fan» tushunchasining hajmiga bo'ysunadi.

Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalarning hajmlari bir-birini istisno qiladi. Ular predmetning (predmetlar guruhining) qarama-qarshi belgilarini aks ettiradi, ua'ni biri predmetning ma'lum bir belgisini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiluvchi boshqa belgini aks ettiradi. Qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalar o'zlari bo'ysunadigan tushunchaning hajmini to'liq egallay olmaydi.

Masalan, «Baland bo'yli odam» va «Past bo'yli odam» tushunchalari «Odam» tushunchasining hajmini to'liq qoplay olmaydi.

A-Odam.

V-Baland bo'yli odam.

S-Past bo'yli odam.



Zidlik munosabatidagi tushunchalardan biri predmetning birorta xususiyatini ifoda qilsa, ikkinchisi uni inkor qiladi va mazmun jihatidan noaniq bo'lib qoladi. Zidlik munosabatidagi tushunchalar, qarama-qarshilik munosabatidagi tushunchalardan farqli o'laroq, bo'ysundiruvchi tushunchaning hajmini to'liq qoplaydi. Masalan,

A-Odam.

V-Baland bo'yli odam,

S-Baland bo'yli emas odam.



Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash ularning mazmuni va hajmini aniqlashtirishga, ularni bog'lab, bir fikr shaklidan boshqa fikr shakliga o'tishga yordam beradi. Masalan «Talaba» va «A'loshi» tushunchalari o'rtasidagi munosabatni aniqlash asosida «Va'zi talabalar a'loshilardir» degan mulohaza shaklidagi fikrni hosil qilish mumkin

6.2. Mantiq fanining pedagogik amaliyotda fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati.

Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari o'zaro farqlanadi. Dalillash deb, biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish uo'li bilan (kuzatish, tajriba-eksperiment va hokazo asosida) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berishga aytiladi. Dalillash bevosita yoki vositali bo'ladi. Bevosita dalillash hissiy bilishga, ua'ni ko'rish, tajriba-eksperiment orqali amalga oshiriladi. Vositali dalillash esa, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslanadi va xulosa chiqarish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Dalillashning birinchi usuli empirik, ikkinchi usuli

nazariy bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bo'lganligi kabi, dalillashning yuqoridagi ikki usulga ajratilishi ham nisbiydir.

Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni hodisaning (faktning) o'zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko'r hollarda bilish jarayonida natijalarining chinligi ularni ilgari vujudga kelgan bilimlar bilan bog'lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog'langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo'lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli-demonstratsiya.

Tezis-chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-ye'tibor uning chinligini ko'rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o'zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremlardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan yoki hodisalarning sababini ko'rsatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat bo'ladi.

Argumentlar-tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar. Argumentlar bo'lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta'riflar, aksiomalar, teoremlar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o'zaro bog'langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo'lishi lozim.

Ta'riflar ham chin hukmlar bo'lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat – bu har qanday o'zgarishdan iborat» degan ta'rif-chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o'z-o'zidan ravshan bo'lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko'r martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremlar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo'ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli-demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo'ladi, ua'ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

6.3. Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bivosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to'g'ridan-to'g'ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo'lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko'r hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma'lum bir umumiu bilimdan, masalan qonundan, argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan «O'zbekiston – mustaqil davlatdir» degan hukm (tezis) ning chinligi «O'zbekistonning mustaqil davlat deb ye'lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda ye'tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bivosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo'lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo'lishiga qarab apagogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apogogik isbotlashda tezis (a) va antitezis ($\bar{a}$) o'rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo'lgan «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm olinadi.

Ilmiu bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo'llanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiu tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiu tasavvurlarning o'zining etarli darajada sistemaga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, muammoli vaziyat bilish taraqqiyotining turli bosqichlari va bo'g'inlarida olam va uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish

metodi va vositalarini o'zgartirishning ob'yektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

6.4. Ilmiy muammoni qo'yish va hal qilish.

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni qo'yishga olib keladi.

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va echish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

Gipoteza-o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

Gipotezani, avvalambor, bilimlarning mavjud bo'lim shakli sifatida olib qarash zarur. Chin, ishonchli bilimlar hosil bo'lgunga qadar qo'yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo'lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo'ladi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tafakkur shakli nima?
3. Tafakkur qonuni nima?
4. Formal mantiq nimani o'rgagadi?
5. Tafakkur qonunlari nimalari nimalarni aks ettiradi?
6. Formal mantiqning asosiy qonunlarini sanab bering?
7. Isbotlash qanday strukturaga ega?
8. Isbotlashning qanday usullari mavjud?
9. Rad etish isbotlash bilan qanday aloqada?
10. Rad etishning qanday usullarini bilasiz?
11. Isbotlash va rad etish qoidalarini buzganda qanday mantiqiy xatolar yuz beradi?
12. Muammoli vaziyat nima?
13. Muammoni to'g'ri qo'yish va hal etishning qanday shartlari mavjud?
14. Gipotezaning mohiyati nimada va uning qanday turlari mavjud?
15. Nazariya bilish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?

7-BOB. TAFAKKUR SHAKLLARI: TUSHUNCHA, XUKM VA XULOSA.

7-§. Tafakkur shakllari: tushuncha, hukm va xulosa.

Reja:

Tafakkur – mantiq ilmining o'rganish ob'ekti.

Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari haqida tushuncha.

Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan.

Mantiq fanining pedagogik amaliyotda fikrlash madaniyatini o'stirishdagi ahamiyati.

Tayanch tushunchalar: Mantiq, logika, tafakkur, tafakkur shakllari, mantiqiy usul, tafakkur qonunlari, mantiqiy qonunlar, ayniyat qonuni, ziddiyat qonuni, uchinchi istisno qonuni, etarli asos qonuni, tushuncha, analiz, sintez, kategoriya, definitsiya, klassifikatsiya.

7.1. Tushuncha – tafakkur shakli sifatida. Inson tushunchalar vositasida fikrlaydi va o'zaro munosabatda aynan shu tushunchalar orqali bir-biri bilan muloqotda bo'ladi. Insonning dunyo va dunyoning qonunlari mohiyatini bilishi kundalik ong darajasidagi tushunchalar va ilmiy tushunchalar – kategoriyalar shaklida namoyon bo'ladi.

Tushuncha – bu narsa va hodisalarning umumiy, muhim, o'ziga xos belgi va xususiyatlarining inson ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Tushuncha tafakkur shakllaridan biri sifatida insonning oddiy hissiy bilish shakllari – sezish, idrok va tasavvurdan farq qiladi.

Sezish – narsalardagi ayrim jihatlar (rang, ta'm, hid va boshqalar) - ning inson ongidagi aksidir, idrok esa narsalarning inson miyasida to'la, yaxlit holda in'ikos etishidir. Tasavvurda inson oldindan idrok qilgan holatlarning obrazlarini ko'z

oldida tiklaydi. Demak, ko'rib turganimizdek sezgi, idrok, tasavvur kabi hissiy bilishning shakllari bevositalik hamda ko'rgazmalikka asoslanar ekan.

Tushunchada esa muayyan bir guruh narsalarga xos bo'lgan muhim va zaruriy belgilar umumlashtiriladi, natijada insonning tafakkurida alohida bir xususiyatga, ua'ni shakl, rang va boshqa belgilarga ega bo'lgan aniq bir narsa – stol yoki stol emas, balki ularning umumiu obrazi shakllanadi.

Tushuncha bir-biriga o'xshash narsa va hodisalarning umumiu hamda muhim tomonlarini ongimizda aks ettiradi. Chunki shu belgilar narsaning mohiyatini ko'rsatadi.

Tushunchaning belgilari deganda nima tushuniladi? Agar narsa-hodisalar biron jihati bilan bir-biriga o'xshash yoki farqli bo'lsa, shu o'xshashlik yoki tafovut narsa va hodisalarning belgisi deb aytiladi. Biz ongimizda aks etgan narsa va hodisalarning belgisini «tushunchaning belgisi», deb ataymiz.

Narsa va hodisalarning belgilari juda ko'r. Ularning narsaga bo'lgan ahamiyati nuqtayi nazaridan muhim va nomuhim belgilarga bo'linadi. Narsa va hodisalarning ma'lum nisbatda olingandagi tub xususiyatlarini ifodalovchi belgi «muhim belgi» deb ataladi. Narsalarning mavjudlik mohiyatiga ta'sir qilmaydigan xususiyatlarini ifodalovchi belgi «nomuhim belgi» deb ataladi.

Belgilarni muhim va nomuhim belgilarga ajratish nisbiydir. Chunki bu holat insonning faoliyati va tajribasiga bog'liq hamda o'zgaruvchidir. Inson bilim doirasiga binoan o'zgarib boradi. Muhim belgi nomuhimga, nomuhimdan muhimga o'tib boradi. Demak, tushunchada narsa va hodisalarning birinchidan, eng umumiu va ikkinchidan, muhim belgilari ifodalanar ekan.

Tushuncha narsa va hodisalarning umumiu, muhim, o'ziga xos belgi va ususiyatlarini insonning ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Tushunchaning nima ekanligi haqida dastlabki tasavvur olganimizdan so'ng ning shakllanishi asoslarini, boshqacha qilib aytganda, tushuncha shakllanishining antiqiy usullarini bilib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mantiq ilmida tushunchaning shakllanishida taqqoslash, analiz, sintez, umlashtirish va umumlashtirish kabi mantiqiy usullar muhim rol o'ynaydi.

Mantiqiy taqqoslash narsa va buyumlarning boshqa narsa va buyumlar bilan o'xshashligi yoki farqini aniqlashning mantiqiy usuldir. Aynan taqqoslash usuli yordamida bir tushunchaning boshqa tushunchadan farqli tomoni aniqlanadi va narsa to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilinadi. Muayyan narsa haqida tushuncha hosil qilish uchun dastlab, ushbu narsaning boshqalar bilan o'xshashligi yoki farqini aniqlash lozim. Aynan shu vazifani bajaruvchi mantiqiy usul taqqoslash hisoblanadi.

Tushunchani hosil qilishda foydalaniladigan yana bir muhim mantiqiy usul – *bi analiz va sintezdir*. Analiz va sintez fikrlashda abstrakt tushunchalarning yordamida amalga oshiriladi va bunday tushunchalarni vujudga keltirishda asosiy usullardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bilishda u boshqa – taqqoslash, mavhumlashtirish va umumiyashtirish usullari bilan uzviy bog'lanib qo'llaniladi.

Mantiqiy analiz – bi tadqiq etuvchi ob'yektpi tarkibiy qismlarga ajratib o'rganishdir. Ma'lumki, ob'yektiv voqelik nihoyatda murakkab bo'ladi, biroq u aniq narsa va hodisalardan tashkil topadi. Ular esa o'z navbatida, xilma-xil xususiyat va sifatlarga ega. Bunday hodisa va narsalarni bilish va ular to'g'risidagi bilimlarimizni chuqur – lashtirish uchun shu murakkab narsalarni tarkibiy qismlar, elementlar hamda bo'laklarga fikran ajratish, ularni analiz qilish zarur.

Masalan, tergovchi hodisa sifatida olingan jinoyatning mohiyatiga yetib borish uchun uni turli xil versiya (tushma)lar asosida tahlil qilib ko'radi. Jinoyat sodir etilgan joyni ko'zdan kechiradi, guvohlar bilan ishlaydi, har bir harakatni o'z fikrlarida qaytadan tiklaydi. U holda fikriy tahlil amaliy tahlil bilan bog'liq bo'ladi. Lekin analiz fikrlash jarayonida alohida uchramaydi, u har doim sintez bilan birgalikda, u bilan bog'liq holda keladi.

Sintez – bi analiz yordamida butunning bo'laklarga ajratilgan qismlari, elementlarini uapa fikran to'plab, yaxlit holda o'rganishdir. Bir ob'yektni o'rganish jarayonida avvalo uni bo'laklarga ajratib, so'ng bu bo'laklarni yana bir butunga to'playmiz. Bunda sintez bevosita amaliy sintez bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Masalan, tergovchi jinoyat sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirayot – ganda, dastlab turli xil dalillarni guruhlariga qarab ajratadi (tahlil qiladi), so'ng bu ma'lumotlarni yig'adi, sintez qiladi. Sintezlashtirish jarayonida fikr yakkadan

umumiyyga, qismdan butunga, konkretan abstraktga boradi. Sintez analiz (tahlil)ga asoslanadi va bilishda tushunchalarning vujudga kelishini yakunlaydi.

Tushunchaning vujudga kelishidagi muhim mantiqiy usul, umuman ob'yektiv reallikdagi narsa va hodisalarni ularning xususiyatlarini tafakkurda aks ettirishning eng muhim xislatlaridan biri – bu abstraksiyalash, ua'ni mavhumlashtirishdir.

Mavhumlashtirish – bi ob'yektiv reallikdagi narsa hodisalar – ning ikkinchi darajali, muhim bo'lmagan alohida xususiyatlaridan uzoqlashib, mavhumlashtirish yordamida ularning yepg muhim va asosiy umumiy tomonlarini aniqlashdir. Olamni ilmiu o'rganishda hodisalarning ichki tomonlarini mohiyatini ochish va ular haqida to'g'ri ilmiu xulosalar chiqarish uchun mavhumlashtirishning ahamiyati juda katta. *Mavhumlashtirish qobiliyati – bi fikrlash qobiliyatidir.* O'quvchini mavhumlashtirishga o'rgatish uning ilm-fanni egallash, konkret hodisalarning umumiu tomonlarini bila olishi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ilmiu mavhumlashtirish narsalarning konkret belgilaridan uzoqlashgan holda ularni chuqurroq bilishga xizmat qiladi. Ilm-fan ilmiu abstraksiyalarga asoslanadi.

Umumlashtirish – narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgi yoki xususiyatlarining bog'lanishlarini fikrda tiauup tushunchaga birlashtirish jarayoni va uning natijasidir. Umumlashtirish – ilmiu bilishning muhim vositalaridan biri.

7.2. Tushunchaning turlari va ular o'rtasidagi munosabatlar.

Tushunchaning turlari haqida gapirishdan oldin ularni turlarga bo'lishning eng asosiy mezonini bo'lmish tushunchalarning hajmi va mazmuni haqida tasavvur hosil qilishimiz lozim. Tushunchaning hajmi va mazmuni uning mantiqiy tarkibini tashkil qiladi.

Tushunchaning hajmi deb uning mohiyatini tashkil etuvchi narsalarning jig'indisiga aytiladi. Tushuncha o'zida bir turkumga kiruvchi narsa va hodisalarni birlashtiradi. Masalan, inson, yulduz, jinoyat kabi tushunchalar. Bular – ning har biridan o'z hajmiga bog'liq bo'lgan boshqa tushunchalar doirasida ham foydalanish mumkin. Jumladan, insonning tushunchasida o'tgan, hozir va kelajakda mavjud bo'lishi mumkin barcha odamlar haqidagi bilimlar mujassamlashtiriladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tushunchaning mantiqiy tuzilishi bir tomondan uning hajmi bilan, ikkinchi tomondan mazmuni bilan ifodalanadi. *Tushunchaning mazmuni deb narsa va hodisalarning tushunchada aks etgan muhim belgilarining yig'indisiga aytiladi.* Ta'riflardan ko'ri – nib turibdiki, tushunchaning mazmuni unda ifodalanishi mumkin barcha muhim belgilarni aks ettirar ekan. Masalan, ziyoli o'qituvchi. Ziyoli tushunchasi o'zida madaniyat, ilm, ma'naviyat sohibini gavdalantiradi.

Tushuncha hajm va mazmun birligidan iborat. Shuning uchun hajmsiz mazmunli, mazmunsiz hajmli tushunchalar bo'lmaydi. Tushunchalarning hajmi va mazmuni o'rtasidagi munosabat shakl va mazmun o'rtasidagi o'zaro teskari munosabat qonunidagidek namoyon bo'ladi. Ya'ni, tushunchalarning hajmini kengayishi ular mazmunining mavhumlashuviga olib keladi, hajmning qisqarishi mazmunning boyishiga olib keladi. Masalan, jinoyat – hajmi keng, mazmunini ifodalovchi muhim belgilari ham nisbatan mavhum. O'g'irlik – hajmi jihatidan jinoyatdan torroq, lekin mazmunan boyroqdir.

Mazkur teskari munosabat qonuni hamma tushunchalarda emas, balki bir xil tur tushunchalarda namoyon bo'ladi. Tushunchalarni turga ajratish to'da buyumlar uchun umumiy belgilarga qarab ajratishdir. Tushunchada ifodalangan hodisalarning guruhlari hajmi jihatidan munosabatlariga qarab jins va tur guruhlari bo'linadi. Jins turga nisbatan keng bo'ladi.

Demak, narsa va hodisalar bir xildagi jins va tur guruhlari o'ld bo'lgandagina ularning o'rtasidagi hajm va mazmun munosabatlari teskari aloqadorligini ko'rishimiz mumkin. Aks holda, bu munosabat amalga oshmaydi. Masalan, uu tushunchasining hajmi qanchalik kengaymasin, poeziya tushunchasi torayib qolmaydi yoki aksincha. Hajmi va mazmuni tushunchani turlarga bo'lishning eng asosiy mezon hisoblanadi. Mazkur mezonga binoan tushuncha muayyan turlarga bo'linadi.

Tushunchalar hajmiga ko'ra, pol (bo'sh), yakka, umumiy chegaralangan yoki umumiy chegaralanmagan tushunchalarga bo'linadi.

Nol tushunchalar – insoniyat tajribasida uchramagan, fanda qayd etilmagan narsa va hodisalarni ifodalovchi hajmsiz tushunchalardir. Masalan, shayton, ajina, farishta va boshqalar.

Yakka tushunchalar – ayrim, alohida narsa, hodisa va jarayonlarning umumiu va muhim tomonlarini aks ettiradi. Masalan: Sirdaryo, general Rahimov, Samarqand shahri va boshqalar.

Umumiy tushunchalar – bir yoki bir nechta guruh narsa va hodisalarning muhim, umumiu tomonlarini aks ettiruvchi tushunchalardir. Masalan, yulduz, fabrika, jinoyat, jamiyat.

Umumiu tushuncha bilan yakka tushunchalar orasida jamlovchi yoki boshqacha qilib aytganda, to'planma tushunchalar alohida o'rin egallaydi.

To'planma tushunchalar – bir to'plam, bir guruh narsalarning bir butun yaxlit holatda aks etishidir. Masalan, xalq – kishilarning to'plami, militsiya – ichki ishlar organlari xodimlarining to'plami, armiya – askarlarning hamda harbiylarning to'plami. Lekin askar va odam tushunchalari to'planma emas. Chunki, bu tushunchalar to'plamni emas, balki bir guruh narsalarni aks ettiradi.

Chegaralangan tushunchalar – tushunchalarning narsa va hodisa – larni hisoblash imkoniyatini vujudga keltiruvchi xislatga ega bo'lishi. Masalan, «Akademiyaning tinglovchilari», «1-kurs rahbar zobitlari» va boshqalar.

Chegaralanmagan tushunchalarda tarkibidagi narsa va hodisalar – ning son-sanoqsiz holati namoyon bo'ladi. Masalan, atom, yulduz, mik – rob va boshqalar.

Tushunchalar mazmuniga ko'ra aniq, mavhum, ijobiy, salbiy, nisbatli hamda nisbatsiz turlarga bo'linadi.

Aniq tushunchalar – ob'yektiv borliqdagi moddiy holatda mavjud bo'lgan narsa va hodisalarni real aks ettiruvchi tushunchalardir. Aniq tushunchalar narsalarning belgilarini yaxlit belgilaydi. Masalan, shahar, haykaltarosh, militsioner va hokazo.

Mavhum tushuncha deb narsa va hodisalarni sifatlari yoki tipo – sabatlarining zisi narsaning o'zidan ajratilib, mustaqil holda aks etuvchi tushunchalarga adi. Mavhum tushunchada narsa va hodisalar emas, balki ularning qandaydir bir

xususiyati yoki munosabati yaxlit mavjud narsa shaklida in'ikos ettiriladi. Masalan, qahramonlik, sotqinlik, mardlik, johillik.

Ijobiy tushunchada esa narsa va hodisalarga xos sifatlarning mavjudligi ifodalanadi. Masalan, obro'li kishi, madaniyatli millitsioner.

Narsa va hodisalarga muayyan sifatlarning mansub emasligi salbiy tushunchalarda qayd etiladi. Masalan, vijdotsiz, intizom – siz, savodsiz va boshqalar.

Demak, ijobiy va salbiy tushunchalar ham tushunchaning mazmuniga qarab, buyumlarda belgining borligini tasdiqlashi yoki uni inkor etishi bilan bir-biridan farq qiladi. Ammo ijobiy va salbiy tushunchalarni ularga bo'lgan bizning munosabatimiz bilan almashtirish xatodir. Masalan, millatchi, bosqinchi, jinoyatchi.

O'zi salbiy holatlarni ifodalasa ham bu tushunchalar mantiqda ijobiy tushunchalar deb aytiladi. Mazmuniga ko'ra tushunchalar nisbatli va nisbatsiz tushunchalarga bo'linadi. *Nisbatli tushunchalar* – buyumlarning o'zga buyumlar bilan muayyan aloqadorlikda mavjud ekanligini ifodalaydi. Masalan, ota-bola, aka-uka va boshqalar. *Nisbatsiz tushunchalar* – buyumlarning mustaqil mavjudligini ifoda etadi. Masalan, ou, yulduz, jinoyat, qonun.

Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar. Tushunchalar o'rtasida taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan munosabatlar mavjuddir.

Taqqoslanadigan (qiyoslanadigan) munosabatlar o'zaro muhim va umumiu belgilarga ega tushunchalarning orasida sodir bo'ladi. Masalan, tarix, adabiyot, mantiq, falsafa, kabi tushunchalar o'rtasida muhim umumiylikning hammasi fan ekanligi, ua'ni fanning turli tarmoqlari ekanligida.

Taqqoslanmaydigan (qiyoslanmaydigan) munosabatlar – o'zaro umumiu jihatlari bo'lmagan buyumlarning o'rtasidagi munosabatni ifodalaydi. Masalan, musiqa – tarvuz, yurak – traktor, qahramonlik – madaniy o'g'it tushunchalari o'rtasidagi aloqadorlikda muhim umumiylik uo'q. Shuning uchun ularni taqqoslab bo'lmaydi. Mantiq fani faqat taqqoslanadigan tushunchalarni o'rganadi.

Taqqoslanadigan tushunchalar hajmiga ko'ra sig'ishadigan va sig'ishmaydigan tushunchalarga bo'linadi. *Sig'ishadigan tushunchalar* o'zaro teng ma'noli, tobelik, kesishganlik munosabatida bo'ladi.

Tepg ta'poli (ayniyat) munosabatlari. Hajmlari bir-biriga to'la teng keladigan tushunchalar ayniyat munosabatidagi teng ma'noli tushunchalardir.

Ayniyat munosabatidagi tushunchalar mazmun jihatidan aynan bir narsani turli tomondan ifodalaydi. Masalan, O'zbekiston poytaxti va O'rta Osiyodagi eng katta shahar tushunchalarining o'rtasida ayniyat munosabati bor. Chunki har ikkala tushunchada ham bir narsa - «Toshkent shahri» ifodalanyapti. Ayniyat munosabati hajmlari teng, biroq mazmuni har-xil bo'lgan tushunchalar o'rtasidagi munosabatdir.

Tobelik (bo'ysunish) munosabati. Bir tushunchaning hajmi boshqasining hajmini bir qismi sifatida o'z ichiga olsa, bunday tushunchalar o'rtasida bo'ysunish munosabati mavjud bo'ladi. Masalan, terak va daraxt, O'zbekiston va Respublika, oliy o'quv yurti va IIV Akademiyasi.

Qisman mos kelish (kesishganlik) munosabati. Qisman mos kelish munosabatida tushunchalar mazmuni jihatidan har xil bo'lsa-da, ularning hajmlari bir-biriga qisman mos keladi. Masalan, oliy o'quv yurti o'qituvchilari va fan doktorlari. Bunda oliy o'quv yurti o'qituvchilarining bir qismi fan doktorlari yoki aksincha, fan doktorlarining bir qismi oliy o'quv yurti o'qituvchilaridir.

Sig'ishmaydigan tushunchalar – deb hajmiga ko'ra bir-birlarini umuman taqozo qilmaydigan tushunchalarga aytiladi.

Sig'ishmaydigan tushunchalar – qarama-qarshilik, zidlik, o'zaro tobelik munosabatlarida bo'ladi.

Qarama-qarshi munosabatdagi tushunchalar bir-biriga hajmi jihatidan teskari va qarama-qarshidir. Masalan, «achchiq-shirin», «ijobiy-salbiy», «oq-qora», «baland-past» kabilar.

Zidlik munosabatidagi tushunchalar. Zidlik munosabatidagi tushunchalar bir-birlarini inkor qiladi, lekin inkor qilingan tushuncha noaniq holda qoladi.

Masalan, baland, baland emas, keng, keng emas, jinoyatchi, jinoyatchi emas o'rniga nimaligi noaniq.

O'zaro tobelik munosabati. Uzaro tobelik munosabatida ikki yoki undan ortiq tushunchalar bir tushunchaning hajmiga kiradi. Masalan, «chiziq» tushunchasiga «egri chiziq», «to'g'ri chiziq», «siniq chiziq» tushunchalari kiradi. «Jinoyat», «o'g'rilik», «qotillik» tushunchalarining o'rtasida o'zaro tobelik munosabati mavjud. Chunki «o'g'rilik» bilan «qotillik» tushunchalari «jinoyat» tushunchasiga tobe bo'lib, lekin o'zaro bir-biriga bo'ysunmaydi.

3. Tushunchalar ustida mantiqiy amallar. Tushunchalarning ustida umumlashtirish, chegaralash, bo'lish, ta'riflash, tasniflash kabi mantiqiy amallarni bajarish mumkin.

Tushunchalarni umumlashtirish usulining yordamida bir tushuncha hajmini tashkil etuvchi buyumlarga xos ayrim belgilarni birma-bir olib tashlash uo'li bilan boshlang'ich tushunchaning hajmi kengaytiriladi.

Boshqacha qilib aytganda tor hajmdagi tushunchalardan keng hajmdagi tushunchaga boriladi. Masalan, «yozuvchi» tushunchasidan «aqliy mehnat egasi», «inson» tushunchalariga o'tilganda fikr nisbatan hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga qarab harakatlanadi.

Tushunchalarning chegaralanishi usuli yordami asosida tushunchaning hajmi toraytiriladi. Masalan, yozuvchi, o'zbek yozuvchisi, «Navoiy» romanining muallifi.

Tushunchani ta'riflash. *Tushunchaning mazmunini, muhim belgi – larini ochishga qaratilgan jarayon ta'riflash yoki definitsiya deb ataladi.*

Buyumlarning muhim belgilari ko'pligi sababli tushunchaning ta'rifi buyumlardagi muhim belgilarning barchasini to'liq aks ettira olmaydi. Formal mantiqda buyumlarni to'g'ri ta'riflash uchun muhim belgilarni ajrata olish tartibiga katta ye'tibor beriladi.

Ta'riflash tur, tur belgisi va jins tushunchasi sxemasida harakat qiladi. Masalan, idrok (tur) narsalarning yaxlit obrazini aks ettiruvchi (tur belgisi) ruhiy jarayondir (jins tushunchasi). Mazkur ta'rifning eng yaqin tur va jins belgisini ko'rsatish orqali ta'riflashga misol sifatida ko'rsatishimiz mumkin.

Ta'riflar genetik, nominal va real turlarga bo'linadi.

Genetik ta'rif. *Genetik ta'riflash* (uipop. «...» so'zidan kelib chiqib, «manba» degan ta'popi anglatadi) - buyumlarning paydo bo'lishi va kelib chiqishini ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Masalan, «O'zbekiston Respublikasi – Markaziy Osiyodagi, sobiq O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining hududida, 1991-yil 31-avgustda paydo bo'lgan yangi mustaqil davlat», - deb genetik ta'riflashimiz mumkin.

Nominal ta'rif. *Nominal ta'rifda tushunchani ifodalagan so'z, pot va terminning ta'posi bayon etiladi.* Masalan, «teleskop» grekcha «tele» - uzoq, «skop» - ko'raman, degan so'zdan olingan bo'lib, osmon jismlarini uzoqdan kuzatishda ishlatiladigan narsadir.

Demak, nominal ta'rif ta'riflanuvshi terminning ma'nosini ochib berish uchun qo'llaniladi.

Real ta'rif. *Tushunchada ifodalangan narsaning mohiyati va uning muhim belgilarini ochib berilishiga «real ta'rif» deyiladi.* Masalan, «huquqiu davlat – o'z faoliyatida faqat qonunga suyanib ish ko'radigan siyosiy tashkilotdir», - desak, unda biz mazkur tushunchaning barcha mohiyatli belgilarini ochgan bo'lamiz va bu real ta'rif bo'ladi.

Ta'riflash qoidalari. *Ta'riflash teng hajmli bo'lishi kerak, ua'pi ta'riflapivshi tushunchaning hajmi ta'riflovshi qismning hajmiga teng bo'lishi kerak.* Masalan, dogmatizm – aqidalarga asoslangan hamda qotib qolgan ta'limot (teng hajmli).

Ta'riflashda eng yaqin jins tushunchasini olish kerak. Masalan, badiiy adabiyot – voqelikni so'z va timsollar orqali aks ettiradigan san'at. Ta'rifning tur belgisi faqat ta'riflanuvshi narsaga tegishli bo'lishi va uning boshqa narsalardan farqini ko'rsatib berish lozim. Masalan, falsafa – tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojining eng umumiu qonunlarini o'rganadigan ijtimoiy fandır. *Ta'rif inkor shaklida bo'lmazligi kerak. Ta'riflapivshi tushuncha boshqa tushunchalar bilan ifodalanishi va uning mohiyatini ochib berishi lozim. Ta'riflash badiiy iboralarsiz aniq bayon qilingan*

bo'lishi kerak. Masalan, hayot – bino kabi chuqur asosga va mustahkam poydevorga ega bo'lmog'i kerak, degan fikr to'g'ri, lekin so'zning ta'rifi emas.

Tushunchalarni bo'lish. *Miauuap bo'lish asosiga ko'ra bo'linuvchi tushunchaning hajmini nisbatan kichik hajmli boshqa tushunchalarga ajratish, tushunchalarni bo'lish deb aytiladi.* Masalan, «Davlat» tushunchasini muayyan asos «boshqarish» usuliga ko'ra bo'ladigan bo'lsak, unda yakkahokimlikka asoslangan va Respublika tipidagi davlatlarga bo'linadi.

Vo'lish qoidalari:

- bo'lish doimo bir asosga ko'ra olib borilmog'i lozim;
- bo'lishning a'zolari yoki qismlari bir-birini inkor etishi lozim;
- bo'lish mutanosib bo'lishi lozim;
- bo'lish uzluksiz bo'lishi kerak.

Dixotomik bo'lish. *Dixotomik bo'lish buyumlarni ta'lit belgiga ko'ra ikki guruhga, ua'pi belgi mavjud bo'lgan narsalar (ular odatda bo'lish asosini tashkil qiladi) va bi belgiga ega bo'lmagan narsalarga ajratadi.* Boshqacha qilib aytganda, bir tushuncha ikki qarama-qarshi yoki zid tushunchalarga bo'linadi. Masalan, sud hukmi adolatli yoki adolatsiz bo'lishi mumkin. Hayvonlar – umurtqali yoki umurtqasizlarga, jismlar – organik yoki noorganik jismlarga bo'linadi.

Tushunchalarni tasniflash. *Tasniflash – bi narsalarni bir – biriga o'xshashligi va farqiga qarab, ta'lit guruhlarga, turlarga, sinflarga bo'lishdir.* Bunda har bir narsa bir sinf yoki bir guruh narsaga muayyan munosabatda bo'lgan va bu sinfdagi narsalar tuzilishida ko'rsatilgan joydan o'rin olgan bo'ladi.

Tasniflashni tabiiy va sip'iu turlarga bo'lish mumkin. Tabiiy tasniflash – bi narsalarning muhim belgilariga va ular atal qiladigan qomuniyatlarga qarab sinf, guruhlarga bo'lishdir. U sun'iu tasniflashdan farqli o'laroq, narsalarning qaysi guruhga mansub ekanligini aniqlashda narsadagi tegishli belgilarni hisobga oladi. Vu esa narsaning xususiyati haqida fikrlashga imkon beradi. Masalan, jinoyat o'rganilib, u qasddan qilinganmi yoki ehtiyotsizlik oqibatida, qanday sharoitda sodir bo'lgan va uning jamoat uchun qanchalik xavfli yoki xavfsizligi ko'rib chiqilib, shundan keyin bu ish jinoyat kodeksining qaysi modda va bandiga oidligi

aniqlanadi. Tabiiy ilmiy tasniflashning mumtoz namunasini D. I. Mendeleevning kimyoviy elementlari davriy tizimining jadvalida ko'ramiz.

Tabiiy tasniflash bilan birgalikda yordamchi sun'iy tasniflash ham mavjud. *Sun'iy tasniflash belgilarga asoslanadi hamda turli-tuman narsalarni va ularni aks ettiruvchi tushunchalarni tartibga solish uchun xizmat qiladi.* Masalan, kutubxonadagi kitoblarning predmetiga, muallifiga qarab tartibga solish; telefon kitobchasida yoki sinf jurnalida odamlarning familiyasini alfavit tartibida ro'yxatga olish va boshqalar. Sun'iy tasniflash muayyan tabiiy tasniflash mavjud bo'lgan taqdirdagina ishlatiladi. Ammo u narsalarning mohiyati haqida xabar bermaydi.

Xulosa. Biz yuqorida tafakkurning shakli sifatida tushunchaning mohiyatini ochib beruvchi barcha xususiyat va sifatlarga to'xtalidik. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, tushunchaning inson hayoti faoliyatidagi o'ziga xos o'rni va ahamiyati haqida muayyan tasavvur hosil qildik deyishga asosimiz bor. Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar, ular ustida bajariladigan mantiqiy amallar va ularni to'g'ri bajarishning qonun qoidalarini xar taraflama bilish kasb-hunar xodimlarining amaliy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hukm tushunchadan keyingi tafakkur shakllaridan birini tashkil qiladi. Tushunchada fikr tugallanmagan bo'lsa, hukmda fikr tugallangan bo'lib, tasdiq yoki inkor ma'nosida ifodalanadi. Hukmning tafakkur shakli sifatida mohiyati, sodda va murakkab hukmlar va ularning turlari, hukmlar o'rtasidagi munosabatlar, hukm modalligi va moduslarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, ulardan amaliy faoliyat jarayonida qo'llay bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

7.3. Hukm va uning turlari. Kishilarning ongi moddiy olamni in'ikos etish jarayonida faqat olamning voqea hodisalari to'g'risida tushuncha hosil qilib, tushunchalarning mohiyatini anglab olish bilan chegaralanmaydi. U mazkur jarayonda tushunchaning boshqa tushuncha bilan muayyan munosabatini ham o'rganib, olam haqida yangi bilim olishga intiladi. Narsa va hodisalar to'g'risida fikr yuritilganda, bu jarayonda bir nechta tushuncha ishtirok etishi mumkin. Narsa va hodisalarning chin yoki yolg'onligini tasdiq yoki inkor etilishi tushunchadan

keyingi, murakkab bo'lgan tafakkur shakllaridan biri bo'lgan hukmda amalga oshadi.

Hukm tushunchaga o'xshash fikrni ifodalashning mantiqiy shaklidir. Bizning har bir chin yoki yolg'on fikrimiz voqelikdagi narsa va hodisalarning o'zaro munosabatlari bor yoki yo'qligi va bu voqelik elementlari orasidagi munosabatning doimiyligi, muvaqqatligi yoki tasodifiyligi haqida borsa, unda bizning fikrimiz hukm shaklida ifodalanadi. *Hukm biron narsa va hodisani tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan tugal fikrdir.* Agar fikrlash jarayonida tushunchada narsa va hodisalarning muhim va umumiy belgilari aks ettirilsa, ulardagi belgilar to'g'risida, ular o'rtasidagi munosabat to'g'risida fikr yuritilmaydi. Masalan, «Universitet», «talaba», «daraxt» tushunchalarini olib qaraylik, bular hali tugal fikrni bildirmaydi. Narsalar o'rtasidagi munosabatni, narsada biror belgi bor yoki yo'qligi haqida fikr yuritmaydi. Agar «Vu Tibbiyot akademiyasidir», «Nurmuhammadov I-kurs talabasidir» «Vu mevali daraxt emas», desak bunda tugal fikr bor. Fikrlarda Akademiyaning SSVga qarashliligi, Nurmuhammadovning I-kurs talabasi ekanligi tasdiqlanmoqda, daraxtning mevali ekanligi inkor etilmoqda. Demak, hukmda hamma vaqt tasdiq yoki inkor bilan aytilgan fikr bo'ladi.

Fikr to'g'ri (chin) yoki xato (yolg'on) bo'lishi ham mumkin. Ular ob'yektiv voqelikka mos kelsa, haqiqat yoki chin fikrlar, ob'yektiv voqelikka mos kelmasa, yolg'on fikrlar deyiladi.

Formal mantiq fikrlar o'rtasidagi munosabatni tekshirganda uning rivojlanishini nazarda tutmaydi. Formal mantiqda fikrlar o'rtasidagi murakkab aloqalar tekshirilmaydi. Vu dialektik mantiqning vazifasidir.

Fikrlar o'rtasidagi munosabatni formal mantiq nuqtayi nazaridan tekshirish, uning to'g'ri yoki xato ekanligini ajratishdan iborat.

Tasdiq yoki inkor har bir hukmga xos belgidir. Shuning uchun agar hukm o'ziga xos tasdiq yoki inkor belgisiga ega bo'lmasa, u hukm bo'la olmaydi. Hukmda hamma vaqt fikr to'g'ri yoki xato, chin yoki yolg'on bo'lishi shart. Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda hukmga quyidagicha ta'rif beishimiz mumkin.

Hukm narsa va hodisalar, ularning turli belgilari, xususiyat va munosabatlari haqida tasdiq yoki inkor ta'posida bildirilgan tafakkur shaklidir.

Nar qanday fanda to'g'riligi isbotlangan fikrlar tizimi mavjud. Shunday fikrlar borki, ularning mavjudligi, ob'yektivligi tasdiqlangan, lekin isbotlanmagan. Masalan, atomning mavjudligi qadimdayoq ye'tirof etilgan, uning isboti esa yaqinda hal bo'ldi. Shuningdek, inson kundalik turmushda shunday to'g'ri fikrlarni aytadiki, ular kundalik hayotda isbotlangan bo'ladi. Masalan, yozning qishga nisbatan issiq bo'lishi, osmonga otilgan narsaning yerga tushishi va boshqalar. Vu kundalik hayotdan olingan fikr bo'lib, uning isboti ham hayotning o'zidadir.

Hukmning chin yoki xatoligi tasdiq yoki inkor natijasida emas, balki buyum va ularning belgilari haqidagi to'g'ri yoki noto'g'ri hukm natijasida bo'ladi. Hukmlarning xatoligini aniqlash uchun quyidagi qoidalardan foydalaniladi:

1. Agar bir fikrning chinligi isbot etilgan bo'lsa, uni chin deb tasdiqlash ham chin bo'ladi.
2. Agar bir fikrning chinligi isbot etilgan bo'lsa, uni xato deb tasdiqlash xato bo'ladi.
3. Agar bir fikrning xatoligi aniqlangan bo'lsa, uni chin deb tasdiqlash xato bo'ladi.
4. Agar bir fikrning xatoligi isbot etilgan bo'lsa, uni xato deb tasdiqlash chin bo'ladi.

Hukm va gap. Agar tushuncha so'zda reallashsa, hukm grammatik gapda ifodalanadi. Gapda ifodalanmaydigan hukm bo'lmaydi. Masalan, «Toshkent – O'zbekistonning poytaxtidir», «Va'zi SamDU talabalari sportchilardir» kabi hukmlar grammatik gap orqali ifodalanagan. Demak, gapning hosil bo'lish jarayoni ham hukm bilan bog'liq.

Hukm turli grammatik shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, «Men seni a'loshi tinglovchi deb bilaman» yoki «Men seni yomon tinglovchi deb bilmayman». Bir hukm turli tilda turlicha ifodalanadi. Masalan, «u talaba», «on student». Keltirilgan misollarimizda turli xil ifodalanagan gap bir narsani ifodalovchi hukmni tashkil qiladi. Shuning uchun hukm bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda, u o'z

mazmuni va tuzilishini saqlaydi. Vu til bilan tafakkurning birligini ko'rsatadi. Biroq tafakkur bilan til aynan bir narsa emas. Shuning uchun hukm bilan gap ham aynan bir xil emas. Demak, ularning o'rtasidagi birlik farqlarini uo'qqa chiqar – maydi. Hukm gapda ifodalanadi. Nar qanday gap esa hukm bo'lavermay – di. So'roq va undov gaplar shakliga ko'ra hukm bo'la olmaydi. Masalan, «Siz ma'ruza eshitishni xohlaysizmi?», «Uyalmasdan tezroq gapirsang – chi!», «Vu yoqqa kel!» kabi gaplar hukm bo'la olmaydi. Chunki bunday gaplarda tasdiq yoki inkor qilib aytilgan fikr uo'q. Ularning haqiqat yoxud haqiqat emasligi (to'g'ri yoki xato ekanligi) aniqlangan emas. Gap hukm shakliga kirishi uchun tasdiq yoki inkor qilib aytilishi hamda to'g'ri yoki xato ekanligi aniqlangan bo'lishi shart.

Endi hukmning tarkibini ko'rib chiqaylik. Odatda, har bir hukmning uch asosiy elementi bo'ladi. Bular sub'yekt (lotin tilidagi *«subjectus – ostida, pastda, asosida turuvchi»* so'zidan olingan), predikat (lotin tilidagi *«praedicatum – aytilgan»* so'zidan olingan) va mantiqiy bog'lovchidan iborat. Masalan, «Ahmedov birinchi kurs talabasidir». Bunda «Ahmedov» - sub'yekt (mantiqiy ega), «birinchi kurs talabasi» - predikat (mantiqiy kesim), «dir» esa mantiqiy bog'lovchi bo'lib kelyapti. Hukmning sub'yekti fikrdagi narsani bildiradi. Shuning uchun hukmdagi fikr nimaga qaratilgan bo'lsa, uning sub'yekti hisoblanadi. U «S» harfi bilan belgilanadi. Hukmning predmetini tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan kesim «predikat» deb ataladi. U «R» harfi bilan belgilanadi.

Vog'lovchi sub'yekt bilan predikat o'rtasidagi aloqani ko'rsatadi va «dir», «emas», «yo'q», «zarur» kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Masalan, «Ahmedov 201-guruhning sardori». Hukmning umumiy sxemasi quyidagicha: «S – R» bunda S – sub'yekt (ega), R – predikat (kesim) «-» belgisi esa sub'yektning predikat bilan munosabatini ifodalovchi bog'lovchi. Mazkur munosabat yozuvda «S – R dir» kabi belgilanadi.

Hukm tafakkur shakli sifatida sodda va murakkab hukmlarga bo'li – nadi. Sodda va murakkab hukmlar ham o'z navbatida bir nechta turlarga ajraladi. Endi bu hukm turlarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

Sodda hukm va uning turlari. Agar fikr birgina hukmdan iborat bo'lsa, sodda va aksincha bir qancha sodda hukmlarning yig'indisi bo'lsa, murakkab bo'ladi. Sodda hukm formulada quyidagidek ifodalanadi: «S – Rdir» yoki «S – R emas». Sodda hukmlar ularda ifodalangan buyumning belgisi, munosabati va mavjudligi haqida bahs yuritishga, boshqacha qilib aytganda, predikatning mazmuniga ko'ra ular uch turga bo'linadi:

1. Atributiv hukmlar.
2. Munosabat hukmlari.
3. Mavjudlik hukmlari.

Atributiv (belgiga oid) hukm – predikat biror xususiyatning narsaga xos yoki xos emasligi aniq, qat'iu qilib ko'rsatiladi. Shuning uchun atributiv hukmlarni qat'iu hukmlar ham deb yuritiladi. Masalan, «O'zbekiston – Respublika tipidagi davlat», «Ko'r xil fikrlilik, jinoiy javobgarlik emasdir» - kabi hukmlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Uning formulasi: «S – Rdir» va «S – R emas». **Munosabat hukmlari** – hukmda ifodalangan narsalarning o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni tasdiq yoki inkor tarzda ifoda – laydi. Masalan, «Dialektik mantiq formal mantiqqa nisbatan murakkabdir», «Jamiyat qonunlari tabiat qonunlariga nisbatan o'zgaruvchidir» va boshqalar. Munosabat hukmning formulasi quyidagicha: «auav». Bunda «a» va «v» hukmlarning nomlari, «ua» (lotincha «... ..» - «munosabat»ning bosh harfi) esa ularning orasidagi munosabatni ifodalaydi.

Mavjudlik hukmida predikat biror narsa va hodisaning mavjud yoki mavjud emasligini bildiradi. Masalan, «Va'zi tinglovchilar darslarni o'z vaqtida o'zlashtirmaydilar». Mazkur hukmda tinglovchilarning orasida darslarni o'z vaqtida o'zlashtirmaydiganlari ham mavjud ekanligi bildirilmoqda. Mavjudlik hukmida ifodalangan narsaning mavjudligi tasdiq yoki inkor qilinadi.

Sodda hukmlar miqdor va sifati jihatidan ham turlarga bo'linadi. Sodda hukmlar miqdor jihatdan fikrning bir yoki bir nechta buyum haqidaligiga qarab yakka, juz'iu va umumiu turlarga bo'linadi.

Hukmda ifodalangan fikr bir buyumni tasdiq yoki inkor etsa, bu holda u yakka hukm deb ataladi. Masalan, «Abu Nasr Forobiy - «Fozil odamlar shahri» kitobining

muallifi», deyilsa mazkur hukm yakka hukm bo'ladi. Chunki «Abu Nasr Forobiy» - hukmning sub'yekti (S), bir kishining «Fozil odamlar shahri» kitobiga muallif (R) bo'lishdek belgiga ega ekanligi tasdiq shaklida kelmoqda.

Hukmda ifodalangan fikr bir emas, bir nechta buyumga taalluqli bo'lsa, bu holda u juz'iu hukm deb ataladi. Masalan: «Va'zi jinoyatlar ehtiyotsizlik orqali sodir etilgan jinoyatlardir», deyilsa unda predikatda hukm buyumi maqomidagi jinoyatlarning barchasiga oid muhokama yuritilmay, balki ularning alohida juz'iu qismigagina xos fikr yuritilmoqda. Juz'iu hukmning formulasi: ba'zi «S – R»dir.

Agar predikatda ifodalangan fikr sub'yekt buyumlarining barchasiga oid bo'lsa, unda mazkur hukm «umumi hukm» deb ataladi. Masalan, «OO'Yu xodimlarining barchasi dam olish huquqiga egadir». Uning formulasi: «Hamma S – R»dir.

Sodda hukmlar sifatiga ko'ra tasdiq yoki inkor hukmlarga bo'linadi. Tasdiq hukmdagi sub'yekt buyumiga xos xususiyat predikatda ifodalangan fikrning vositasida ye'tirof etiladi. Masalan, «O'zbekiston Markaziy Osiyodagi mustaqil davlat», degan hukmda O'zbekiston Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatning belgisi taalluqliligi uqtiriladi. Inkor hukmda esa hukm sub'yektiga tegishli sifatlar inkor etiladi. Masalan, «Demokratik davlatda qonunlar xalq irodasidan tashqari bo'lmaydi», - degan hukmda ham sub'yektga xos bo'lgan xususiyat inkor etilyapti. Inkor hukm «emas», «uo'q», «ma» yuklamalari orqali ifodalanadi.

Sodda hukmlarning sifat va miqdor jihatdan tasnifi.

Hukmlar sifat jihatdan tasdiq va inkor, miqdor jihatdan esa yakka, juz'iu hamda umumi turlarga bo'linadi. Tasdiq va inkor hukmlar yakka, juz'iu va umumiya bo'linishi mumkin va aksincha, yakka, juz'iu va umumi hukmlar ham tasdiq va inkor hukmlaridan iborat bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra, mantiqda hukmlarning sifat va miqdor jihatidan to'rt turi tasnif etiladi. Bular:

- 1) umumiu tasdiq hukmi;
- 2) juz'iu tasdiq hukmi;
- 3) umumiu inkor hukmi;
- 4) juz'iu inkor hukmi.

Vu hukmlarni qisqacha bayon etish va qo'llashni osonlashtirish maqsadida ko'pincha ularni ifodalashda lotin tilidagi «A», «I», «Ye», «O» harflaridan foydalaniladi.

Umumiu tasdiq – A (lotin tilidagi «.» - tasdiqlayman, so'zining birinchi unli harfi);

Juz'iu tasdiq – I («.» - so'zining ikkinchi unli harfi);

Umumiu inkor – Ye (lotincha «.» - inkor qilaman, so'zining birinchi unli harfi);

Juz'iu inkor – O («.» - so'zining ikkinchi unli harfi).

Umumiu tasdiq - «A» (miqdor jihatidan umumiu, sifat jihatidan tasdiq). Masalan, «Hamma o'qituvchilar aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilardir». Uning formulasi: Hamma S – R dir.

Juz'iu tasdiq - «I» (miqdor jihatidan qisman, sifat jihatidan tasdiq). Masalan, «Va'zi kishilar noyob qobiliyatning sohiblaridir». Uning formulasi: Va'zi S-R dir.

Umumiu inkor - «Ye» (miqdor jihatidan umumiu, sifat jihatidan inkor). Masalan, «Nesh bir jinoyat sababsiz vujudga kelmaydi». Uning formulasi: Nesh bir S-R emas.

Juz'iu inkor - «O» (miqdor jihatidan qisman, sifat jihatidan inkor). Masalan, «Va'zi tinglovchilar a'loshi emas». Uning formulasi: Va'zi S – R emas. Hukmlarda terminlarning (atamalarning) taqsimlanishi. Sodda hukmlardagi tushunchalar «atamalar» deb aytiladi. Atamalar bu – hukmdagi sub'yekt va predikatlardir.

Hukmlarda atamalarning taqsimlanishi, deganimizda mazkur hukmlarda sub'yekt «S» bilan predikatning «R» hajmlari o'rtasidagi munosabat tushuniladi, ua'ni S ning hajm jihatidan qanchalik ekanligini nazarda tutiladi.

Hukmda sub'yekt va predikat o'zlari ifodalangan narsalar yoki hodisalarning hammasini aks ettirishsa va ular hajm jihatidan to'liq olingan bo'lsa, hukmda terminlar taqsimlangan, deyiladi. Aksincha, hukmda sub'yekt va predikat o'zlari ifodalangan narsa yoki hodisalarning bir qismini aks ettirishsa, bunday hukmlarda terminlar taqsimlanmagan, deyiladi. Mantiq ilmida hukm atamalarining taqsimlanishini «+», taqsimlanmasligini esa «-» deb, belgilash qabul qilingan.

Biz AEIO hukmlaridagi sub'yekt bilan predikatning o'rtasidagi munosabatni ifodalovchi tuzilishni tahlil qilib chiqqanimizda, ulardagi terminlarning hajmini bilib olamiz.

A – umumiu tasdiq hukmi «Barcha S – R dir», degan tuzilishga ega. Mazkur formulani ifodalovchi hukmga quyidagicha misol keltirishimiz mumkin: «Akademiyaizning barcha tinglovchilari mantiq fanini o'rganadi». Vu hukmning sub'yekti – S deyilganda, gap Akademiyaizning barcha tinglovchilari haqida borganligi uchun hajmi to'laligicha olingan hisoblanadi, predikati – R esa taqsimlanmagan. Chunki bu yerda gap mantiq fanini o'rganadiganlarning barchasi haqida emas, balki Akademiyaizning mantiq fanini o'rganadiganlari haqida gap boryapti. Quyidagi misolimizda bu doiralar shunday ko'rinishga ega bo'ladi: S S – Taqsimlangan R – Taqsimlanmagan. Ye – umumiu inkor hukmi «Nesh bir S – R emas». Masalan, «Akademiyaizning hech bir tinglovchisi qobiliyatsiz emas». Vu hukmda ikki atama (S va R) bir-birini hajmiga ko'ra to'laligicha inkor etganligi uchun taqsimlangan hisoblanadi. Jumladan, Akademiyaizning hech bir tinglovchisi qobiliyatsizlar qatoriga kirmaydi va aksincha, qobiliyatsizlarning hech biri Akademiyaizning tinglovchilari safida bo'lmaydi. Demak, mazkur misolimizda ham sub'yekt, ham predikat taqsimlangan bo'ladi.

Biroq, bu qoidadan hukmlarning ayrim turlari mustasnodir. Shu o'rinda ta'riflash shaklidagi hukmlarda R hajmi S hajmiga mos keladi. Bunda R taqsimlangan, to'liq ochilgan. Masalan, «Hamma kvadratlar teng tomonli to'g'ri to'rt burchak», degan ta'rifda R ning hajmi to'liq olingan. Chunki u sub'yektning hajmiga to'laligicha kiradi. Umumiu ajratib ko'rsatuvchi hukmlarda ham R to'liq olingan va bo'lingan bo'ladi. Masalan, «Planetamizda faqat insongina ongli mavjudotdir». Demak, S bilan R ning hajmi teng bo'lgan umumtasdiq hukmlarda R taqsimlangan va to'liq olingan bo'ladi. Ularning sxemasi quyidagicha:

S – Taqsimlangan R – Taqsimlangan I – juz'iu tasdiq hukm: «Va'zi S – R dir» degan tuzilishga ega. Bunda S to'liq hajmda olinmagan. R esa ham taqsimlangan, ham taqsimlanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, «Va'zi tinglovchilar

sportchilardir». Bunda ham tinglovchilar emas, balki ba'zi tinglovchilar olinmoqda. Hamma sportchilar emas, balki ularning tinglovchi

sportchilari olinmoqda. Demak, bunda S ham R ham to'liq olinmagan, ua'ni taqsimlanmagan bo'ladi. SS – Taqsimlanmagan R – Taqsimlanmagan

Boshqa bir misolni olaylik: «Va'zi o'qituvchilar professor – lardir», desak bunda S to'liq olinmagan, taqsimlanmagan, R esa to'liq olingan va taqsimlangan. Uning sxemasi quyidagicha: S – Taqsimlanmagan R – Taqsimlangan . O – juz'iu inkor hukmi: «Va'zi S-R emas» tuzilishiga ega. S ning bir qismi R ni butunlay inkor qiladi. Demak, bu hukmda S to'liq olinmagan, taqsimlanmagan, R esa hamma vaqt taqsimlangan bo'ladi. Masalan, «Va'zi hayvonlar yirtqich emas». Bunda hamma hayvonlar emas, balki ayrim hayvonlar olinmoqda (S), «yirtqich emas» (R) esa yirtqich bo'lmaganlarning barchasi sub'yektda ifodalangan, ba'zi hayvonlarning guruhiga kirmaydi. Demak, juz'iu inkor hukmda S taqsimlanmagan, R esa taqsimlangan bo'ladi. Uning sxemasi quyidagicha: S S – Taqsimlanmagan R – Taqsimlangan

Murakkab hukm va uning turlari. Biz yuqorida oddiy hukmlar – ning tuzilishini ko'rib chiqdik. Oddiy hukmlarning bo'laklari S – R kabi terminlardan tashkil topsa, murakkab hukmning bo'laklarini oddiy hukmlar tashkil qiladi.

Murakkab hukmlar deb, ikki va undan ortiq sodda hukmlardan mantiqiy bog'lovchilar vositasida paydo bo'ladigan hukmlarga aytiladi. Hukmlarning o'rtasidagi munosabatni ifodalaydigan mantiqiy bog'lovchilar - «va» (L), «yoki» (V), «agar ... u holda» (^) va boshqalardir. Shunga ko'ra, murakkab hukmlar kop'uipktiv (bog'lovchi), diz'uipktiv (ajratuvchi), shartli va ekvivalent hukmlarga bo'linadi.

Birlashtiruvchi (kon'uunktiv) hukmda bir nechta sodda hukmlar «va» (Λ) bog'lovchisi orqali murakkab hukmni hosil qiladi. Masalan, «Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar» (O'zR Konstitutsiyasi 64-modda), «Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir va yirik davlat arbobidir». Vu ikki hukm «va» mantiqiy bog'lovchisi orqali murakkab hukmni

tashkil etmoqda. Uning formulasi: $S - R$ va R dir. Va'zida «va» mantiqiy bog'lovchisi bir nechta hukmlarni bog'lashi mumkin.

Birlashtiruvchi (kop'uipktiv) hukmda hamma sodda hukmlar to'g'ri (chin) bo'ladi, agar ulardan birortasi xato (yolg'op) bo'lsa, boshqalari ham xato bo'ladi. Ularning o'rtasidagi xato yoki to'g'rilik (chinlik) munosabatlarini quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin.

A	V	A L V
to'g'ri – 1	to'g'ri – 1	to'g'ri – 1
to'g'ri – 1	xato – 0	xato – 0
xato – 0	to'g'ri – 1	xato – 0
xato – 0	xato – 0	xato – 0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, agar birlashtiruvchi hukmda birorta hukm xato bo'lsa, boshqa hukmlar ham xato bo'ladi. Shuning uchun birlashtiruvchi (kon'uunktiv) fikr barcha qismlarning to'g'ri bo'lishini talab qiladi. Vu hukm kundalik hayotda, ilmiy ishlarda va HMQO xodimlarining faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Jinoyatni ochish jarayonida guvoh yoki jinoyatda gumon qilinayotgan shaxs ma'lum hodisani bayon etishda bir nechta hukmlarni keltirsa va ulardan birortasi xato bo'lsa, shu hodisani ifodalovchi boshqa hukmlar ham xato bo'ladi.

Ajratuvchi hukm (diz'uunksiua) ikki va undan ortiq sodda hukmlarni «uo», «yoki» (V) mantiqiy boglovchilari yordamida birlashtirish natijasida paydo bo'ladi. Masalan, «Qonunni buzgan shaxs jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortiladi». Mantiqiy bog'lovchi «yoki» mantiq ilmida ikki xil ma'noda ishlatiladi: ajratuvchi va birlashtiruvchi ma'nolarda.

«Yoki» bog'lovchisi qat'iu-ajratuvchi ma'nosida ishlatilganda, hukmlarning biri albatta to'g'ri bo'lsa, ikkinchisi xato bo'ladi. Ikkalasi birdaniga xato bo'lsa unda qat'iu-ajratuvchi hukm ham xato bo'ladi. Masalan, «Jinoyatchi Toshmatov jabrlanuvchini uo o'ldirgan, uo o'ldirmagan». Misolda jinoyatchi Toshmatov ikki belgidan (jinoiy xatti-harakatdan) biriga ega ekanligi qayd etiladi. Mazkur belgining biri ikkinchisini inkor etadi.

Qat'iu-ajratuvchi «yoki» (V) bog'lovchisi bilan belgilanadi. Uning xato yoki to'g'riligini quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin.

A	V	AUV
to'g'ri – 1	to'g'ri – 1	xato – 0
to'g'ri – 1	xato – 0	to'g'ri – 1
xato – 0	to'g'ri – 1	to'g'ri – 1
xato – 0	xato – 0	xato – 0

Vu jadvaldan ko'rinib turibdiki, hukmlarning birortasi to'g'ri bo'lib, ikkinchisi xato bo'lgan taqdirdagina hukm to'g'ri bo'ladi. Ikkalasi birdaniga to'g'ri yoki xato bo'lsa, hukm xato bo'ladi.

Shartli hukm murakkab hukm bo'lib, uning haqiqatligi ma'lum shart asosida namoyon bo'ladi. Vu hukmlar «Agar ... u holda» (^) mantiqiy bog'lovchisi orqali bog'lanadi. Misol, «Agar qurollangan jinoyatchi qurolini tashlamasa, unda unga nisbatan qurol ishlatish mumkin». Shartli hukm ikki qismdan iborat bo'lib, bulardan biri shart qo'yadi. Mana shu shartni bajarish natijasida hukm haqiqatga aylanadi. Shart qo'ygan qism «asos», shu shart asosida hosil bo'ladigan hukm «natija» deb ataladi. Uning formulasi quyidagicha: «Agar S – R bo'lsa, S – R bo'ladi, ua'ni agar «a» bo'lsa, «v» bo'ladi.

A	V	A^V
to'g'ri – 1	to'g'ri – 1	to'g'ri – 1
to'g'ri – 1	xato – 0	xato – 0
xato – 0	to'g'ri – 1	to'g'ri – 1
xato – 0	xato – 0	to'g'ri – 1

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, natija to'g'ri bo'lganda a-v hukm to'g'ri bo'ladi. Ikkalasi xato bo'lganda ham a-v hukm to'g'ri bo'lishi mumkin.

Ekvivalent hukm murakkab hukm bo'lib, buyum to'g'risida mulohazalar bildirilgan hukmlarning har biri chin yoki yolg'on bo'lsa, chin yoki yolg'on bo'ladi. Uning formulasi $a=v$ dir. Mazkur ifoda « $a=v$ » «faqat va faqat «a» va «v» bir vaqtning o'zida chin yoki yolg'on bo'lgandagina haqiqiydir» deb o'qiladi. Ekvivalent hukmlar turli mazmunni bildirsa ham bir narsani ifodalaydi. Masalan,

«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot uo'li» risolasining muallifi «O'zbekiston buyuk kelajak sari» asarining ham muallifidir. Vu ikki hukmda bir narsa to'g'risida gap ketyapti. Nar ikki hukmda ham Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov to'g'risida fikr yuritilmoqda. Uning xato yoki to'g'riligini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

A	V	A = V
to'g'ri – 1	to'g'ri – 1	to'g'ri – 1
to'g'ri – 1	xato – 0	xato – 0
xato – 0	to'g'ri – 1	xato – 0
xato – 0	xato – 0	to'g'ri – 1

Birinchi savolga xulosa. Hukm turlari, sodda va murakkab hukmlar, sodda hukmlarda atamalarining taqsimlangan yoki taqsimlanmaganligini bilish, tafakkur shaklining yuqori shakli xulosada muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, har qanday xulosa hukmlardan kelib chiqadi.

Hukmlar o'rtasidagi munosabatlar va hukm modalliklari

Tushunchalarning o'rtasida munosabatlar bo'lgani kabi, hukmlarning o'rtasida ham o'zaro munosabat bor. Chunki hukmlar ham ob'yektiv borliqning aloqa munosabatlarini aks ettiradi. Hukmlarning o'rtasidagi munosabatda tushunchaning hajmi va mazmunining to'g'ri yoki xato ekanligi muhim ahamiyatga ega. Hukmlar o'z tuzilishi jihatidan sodda va murakkab bo'lganligi bois, ularning o'rtasidagi munosabat ham o'ziga xos xususiyatga ega.

Hukmlar ikkiga, taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan turlar – ga bo'linadi. Agar hukmlar har xil hajmda bo'lsa-uu, bir xil atamaga (S – R) ega bo'lsa, bu hukmlar «taqqoslanadigan hukmlar», deb ataladi. Masalan, «Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan», «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan emas».

Agarda hukmlar S yoki R jihatidan har xil bo'lsa, ular «taqqoslanmaydigan hukmlar», deb ataladi. Mantiqda faqatgina taqqoslanadigan hukmlar o'rtasidagi

munosabatlar tekshiriladi. Taqqoslanadigan hukmlarning o'rtasida sig'ishadigan va sig'ishmaydigan munosabatlar mavjud.

Sig'ishadigan munosabatlar quyidagi uch turdan iborat:

To'liq mos kelish (ekvivalent) munosabati.

Qisman mos kelish munosabati.

Vo'ysunish munosabati.

Sig'ishadigan hukmlarning o'rtasidagi munosabatlar:

Qarama-qarshilik munosabatlari.

Zid munosabatlar.

1. To'liq mos kelish (ekvivalent) munosabati. Bunda ikki hukmning sub'yekti yoki predikati har xil so'zlarda ifodalansa-da, bir xil narsani bildiradi. Masalan, «Ahmedov to'g'ri gapirdi, Ahmedov xato gapirgani uo'q». Shu fikr boshqa tillarda bayon etilsa ham ekvivalent hukm bo'laveradi. Bundan tashqari, bir hukmning to'g'riligidan ikkinchi hukmning to'g'riligi kelib chiqsa, va aksincha, bu hukmning xatoligidan ikkinchi hukmning xatoligi kelib chiqsa ham tenglik buzilmaydi. Masalan, «Boy ila xizmatchi» dramasiining muallifi «Maysaraning ishi» dramasiining ham muallifi deydigan bo'lsak, birinchi fikrning to'g'riligi sababli ikkinchisining ham to'g'riligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi.

2. Bo'ysunish munosabati. Umumiu hukmlar (A, Ye) bilan juz'iy hukmlarning (I, O) o'rtasida bo'ysunish munosabati bor. Agar umumiu hukmlar to'g'ri bo'lsa, unga bo'ysunuvchi juz'iu hukmlar ham to'g'ri bo'ladi. Masalan, «Nar qanday huququ munosabatlar huquq norma – lari orqali tartibga solinadi», degan fikr to'g'ri bo'lsa «Ayrim huququ munosabatlar ham huquq normalari orqali tartibga solinadi», degan fikr ham to'g'ri bo'ladi. Agar umumiu hukm xato bo'lsa, juz'iu hukm ham xato bo'ladi.

Juz'iu hukmlarning (I, O) to'g'riligidan umumiu hukmlarning to'g'riligi kelib chiqmaydi. Masalan, «Va'zi tinglovchilar a'loshi – lardir» degan hukmda «Hamma tinglovchilar a'loshi» degan hukmning to'g'riligi kelib chiqmaydi.

Umumiu hukmning (A, Ye) xatoligidan juz'iu hukmning (I, O) xatoligi kelib chiqmaydi. Chunki, umumiu hukm xato bo'lsa, juz'iu hukm ham to'g'ri ham xato

bo'lishi mumkin. Masalan, «Barcha tinglovchilar chet tilini a'lo darajada biladi», degan xato fikrdan «Va'zi tinglovchilar chet tilini a'lo darajada biladi», degan to'g'ri fikr xatoga aylanib qolmaydi.

3. Qisman mos kelish munosabati. Sifat jihatdan farq qiluvchi juz'iu hukmlarning (I, O) o'rtasida qisman mos kelish munosabati mavjuddir. Bunda fikrlar birdaniga to'g'ri bo'lishi mumkin, biroq birdaniga xato bo'lishi mumkin emas. Masalan, «Va'zi o'simliklar zaharlidir» (I). «Va'zi o'simliklar zaharli emas» (O). Vu hukmlarning ikkalasi ham to'g'ri, biroq xato emas.

Sigishmaydigan hukmlarning o'rtasidagi munosabatlar.

1. Qarama-qarshi munosabatlar. Umumiu tasdiq hukmi (A) bilan umumiu inkor hukmining (Ye) o'rtasida qarama-qarshi munosabat mavjud. Chunki bir hukm (A) to'g'ri bo'lsa, ikkinchi hukm (Ye) xato yoki ikkalasi birdaniga xato bo'lishi mumkin, lekin ikkalasi birdaniga to'g'ri bo'lmaydi. Masalan, «Inson hayotiga suiqasd qilish – eng og'ir jinoyatdir» (A) yoki «Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyat emas» (Ye). Bularning biri to'g'ri bo'lsa, ikkinchisi xatodir, va aksincha. «Hamma insonlar jinoyat sodir etadilar» (A) yoki «Nesh bir inson jinoyat sodir etmaydi» (Ye). Vu hukmlarning har ikkalasi ham xato.

2. Zid munosabatlar. Bunda birinchi hukm to'g'ri bo'lsa, ikkinchisi xato bo'ladi va aksincha. Ammo ikkalasining birdaniga xato bo'lishi mumkin emas. Umumiu tasdiq hukmi (A) bilan juz'iu inkor (O) hukmi va umuminkor hukmi (Ye) bilan juz'iu tasdiq (I) hukmining o'rtasida zid munosabat mavjuddir. Masalan, «Hamma huquqiu qonunlar huquq normalarini belgilaydi» (A) to'g'ri yoki «Hamma huquqiu qonunlar huquq normalarini belgilamaydi» (Ye) xato. «Nesh bir qush qish vaqtida issiq mamlakatlarga uchib ketmay – di» (Ye) xato yoki «Va'zi qushlar qish vaqtida issiq mamlakatlarga uchib ketadi» (I) to'g'ri.

Sodda hukmlarning o'rtasidagi munosabatni eslab qolish uchun «mantiqiy kvadrat» deb ataluvchi vositadan foydalaniladi. Unda hukmlarning o'rtasidagi munosabat ko'rsatilgan.

Xulosa tafakkurning bir yoki bir nechta chin va bir-biri bilan o'zaro bog'langan hukmlardan yangi hukmni hosil qilish shaklidir. Xulosa chiqarishning bir qancha

shakllari mavjud bo'lib, ularga deduktiv, induktiv va analogiyaga ko'ra xulosa chiqarish kiradi. Ularning har biri yana bir nechta turlarga bo'linadi. Shuning uchun xulosa chiqarishning shakllari va turlari o'rtasidagi farqlarni bilib olish zarur. Tafakkur shakli sifatida xulosa chiqarishning mohiyati shundan iboratki, kundalik hayotimizda va kasbimiz bilan bog'liq masalalar yuzasidan to'g'ri xulosalar chiqarishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

7.4. Xulosa haqida umumiy tushuncha. Deduktiv xulosa chiqarish va uning turlari. Xulosalash – tafakkurning tushuncha va hukmdan keyingi yuqori shaklidir. Voqelikni bilish jarayonida ko'pincha, ma'lum bilimlar asosida yangi bilimlar vujudga keladi. Yu bilimlarni keltirib chiqarishning mantiqiy shakli xulosalashdir.

Xulosalash – bu bir yoki bir nechta chin hukmlardan muayyan qoi – dalar asosida yangi hukmlarni keltirib chiqaruvchi tafakkur shaklidir.

Xulosalash asos va natijani hamda ularning o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishni o'z ichiga oladi.

Xulosalash uchun keltirilgan hukmlar «asoslar» deyiladi. Asoslar asosida chiqarilgan yangi hukm «natija» deb ataladi. Asoslardan natijaga mantiqiy o'tish jarayoni xulosalashdir. Masalan, Asos: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi).

Asos: N. Muhammadiev – O'zbekiston Respublikasining fuqarosi.

Natija: O'zbekiston Respublikasini himoya qilish N. Muhammadievning burchidir.

Xulosalash jarayonida asos bilan natija bir-biridan ajratilib, yuqoridagi misolda ko'rsatilganidek, ost, ust shaklida yoziladi.

Nar qanday xulosalash quyidagi talablarga bo'ysunishi lozim:

- keltirilayotgan asoslar albatta chin bo'lishi kerak;
- asoslar mazmun jihatidan bog'langan bo'lishi kerak.

Agar asos hukmlar mazmunan bog'lanmagan bo'lsa, ulardan natija kelib chiqmaydi.

Xulosalash qoidalarining qat'iuligiga ko'ra, xulosa chiqarishning demonstrativ (zaruriy) va nodemonstrativ (haqiqatga yaqin) turlari mavjud.

Demonstrativ xulosada natija mantiqiy qonun darajasida namoyon bo'luvchi ketma-ketlikka ko'ra asoslardan kelib chiqadi.

Nodemonstrativ xulosa chiqarishda xulosalash qoidasi asoslardan ehtimoliy natijaning kelib chiqishini ta'minlaadi.

Bilimlarimizning umumiylik darajasiga va mantiqiy xulosalashning uo'nalishlariga ko'ra, xulosa chiqarish quyidagilarga bo'linadi:

1. Deduktiv (lot. «...» - «keltirib chiqar») xulosa chiqarish.
2. Induktiv (lot. «...» - «yagona asosga keltirish») xulosa chiqarish.
3. Analogiya (grek. «...» - «moslik», «o'xshashlik»)ga ko'ra xulosa chiqarish.

Mazkur xulosalashning shakllari bilish jarayonida chin, haqiqiy bilimlarni keltirib chiqarishning asosiy usullari sifatida keyingi bayonlarimizning asosini tashkil etadi.

1. Deduktiv xulosa chiqarish. *Umumiy hukmlardan jiz'iu yoki yakka hukmlarni keltirib chiqarishga deduktiv xulosa chiqarish deb aytiladi.* Deduktiv xulosalashda agar asoslar isbotlangan bo'lsa, mavjud umumiu qoidalarga suyanib mantiqiy qoida va qonunlar asosida chin natija keltirib chiqariladi. Masalan, «O'zbekistonning barcha fuqarolari bilim olish huquqiga ega», «N. Muhammadiev – O'zbekiston fuqarosi». Demak, N. Muhammadiev bilim olish huquqiga ega.

Deduktiv xulosalash qat'iu hukmlardan asoslar miqdoriga ko'ra deduktiv xulosalash bevosita va bilvosita turlarga bo'linadi.

Bevosita xulosa chiqarish. Agar xulosa bir asosdan olinsa, u bevosita xulosa chiqarish deb ataladi. Bevosita xulosa chiqarishning to'rt turi mavjud:

- 1) aylantirish;
- 2) almashtirish;
- 3) predikatga qarama-qarshi qo'yish;
- 4) mantiqiy kvadratga ko'ra xulosa qilish.

Aylantirish – bunda asosda miqdoriy o'zgarishlar uiz bermay, sifatiy o'zgarish ro'u beradi. Bizga ma'lumki, qat'iu hukmlar bog'lovchining sifatiga («dir» yoki «emas») ko'ra, tasdiq yoki inkor hukmlarga bo'linadi. Shuning uchun ham xulosalashda aylantirish orqali umumiu tasdiq hukmlar umumiu inkor hukmlarga, juz'iu tasdiq hukmlar juz'iu inkor hukmlarga aylantiriladi.

1. Umumiu tasdiq hukm (A) umumiu inkor hukm (Ye) ga aylantiriladi va u formulada quyidagidek ifodalanadi:

Barcha S – R dir

Nesh bir S – R mas (siz) emas

A. Barcha insonlar yashash huquqiga ega

Ye. Nesh bir inson, yashash huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

2. Umumiu inkor (Ye) umumiu tasdiq hukmga aylantiriladi va u formulada quyidagicha ifodalanadi:

Nesh bir S -R emas.

Barcha S – R dir.

Ye. Nesh bir jinoyat jazosiz qolmas.

A. Barcha jinoyatlar jazolanadi.

3. Juz'iu tasdiq (I), juz'iu inkor (O) hukmga aylantiriladi va u formulada quyidagicha ifodalanadi:

Va'zi S – R dir.

Va'zi S – R mas (siz) emas.

1. Va'zi tinglovchilarning bilimi qoniqarli hisoblanadi.

O. Va'zi tinglovchilarning bilimi qoniqarsiz hisoblanmaydi.

4. Juz'iu inkor (O) juz'iu tasdiq hukmga aylantiriladi va formulada quyidagicha ifodalanadi:

Va'zi S – R emas.

Va'zi S emas – R dir.

0. Va'zi bir jinoyatlar qasddan qilingan emas.

1. Va'zi bir jinoyatlar ehtiyotsizlikdan qilingandir.

Almashtirish – bevosita xulosa chiqarishning shunday turiki, unda hukm sifati o'zgarmasdan, natijada uning sib'yekti predikatga, predikati esa natijada sib'yektga almashtiriladi.

Almashtirish orqali chiqarilgan xulosada atamalarning hajmiga, ua'ni ularning taqsimlangan va taqsimlanmaganligiga ye'tibor berish kerak. Agar mazkur qoida buzilsa, xulosa noto'g'ri bo'ladi.

Atamalarning taqsimlanishiga ko'ra, almashtirish oddiy (sof) va chegaralangan turlarga bo'linadi. Oddiy (sof) almashtirishda berilgan asos hukmning predikati xulosaning sub'yektiga, sub'yekti esa hajm o'zgarishsiz uning (xulosaning) predikatiga almashtiriladi.

Masalan, A. Barcha jinoyatlar ijtimoiy xavflilikka ega bo'lgan qilmishlardir. A. Ijtimoiy xavflilikka ega bo'lgan qilmishlarning barchasi jinoyatdir.

Mazkur almashtirishning formulasi:

Barcha S – R dir.

Barcha R – S dir.

Atamalarning taqsimlanish qoidasiga ko'ra, asos hukmning predikati taqsimlanmagan bo'lsa, u xulosada sub'yektga almashtirilganda ham taqsimlanmagan xolicha qoladi. Bunday almashtirishda xulosa xato bo'ladi. Aynan shu xatolikning oldini olish uchun xulosada S (sub'yekt) o'rnida kelgan atamaning hajmi chegaralanadi. Bunday almashtirish chegaralangan almashtirish, deb aytiladi. Masalan, A. «Guruhimizning barcha tinglovchilari mantiq fanidan imtihon topshirishdi». I. «Mantiq fanidan imtihon topshirganlarning ba'zilar guruhimizning tinglovchilaridir».

Mazkur almashtirishning formulasi:

Barcha S – R dir.

Va'zi R – S dir.

Umumiu inkor hukm (Ye) umumiu tasdiq hukmiga cheksiz almashtiriladi. Masalan,

Ye. «Hesh bir inson ongsiz mavjudot emas».

Ye. «Hesh bir ongi yo'q mavjudot inson emas».

Umumiu inkor (Ye) hukmini almashtirishning formulasi:

Nesh bir S – R emas.

Nesh bir R – S emas.

Juz'iu inkor hukmi (1)ni juz'iu tasdiq hukmi (1)ga quyidagicha almashtirish mumkin, Masalan,

1. "Guruhimizning ba'zi tinglovchilari sportchilardir».

1. «Sportchilarning ba'zilari guruhimiz tinglovchilaridir».

Juz'iy tasdiq hukmi (1)ning almashtirish formulasi:

Va'zi S – R emas.

Va'zi R – S emas.

Juz'iy inkor hukmdan (O) almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi, chunki bunday hukmlardan zaruriy chin natija kelib chiqmaydi.

Almashtirish usuli bilan xulosa chiqarishda hukmlardagi atamalarning taqsimlanish qoidasiga qat'iu amal qilish kerak. Chunonchi, predikati taqsimlanmagan umumtasdiq hukmni chegaralashsiz almashtirib bo'lmaydi yoki predikati taqsimlanmagan juz'iu tasdiq hukmni chegaralash orqali almashtirish mumkin emas. Masalan, «HMQO Akademiyasi tinglovchilarining barchasi mantiq fanini o'rganishadi» hukmidan faqat chegaralash orqali «Mantiq fanini o'rganuvchilarning ba'zilari HMQO Akademiyasi tinglovchilaridir», degan xulosani chiqarish mumkin, yoki «Va'zi huquqshunoslar – tergovchilardir» hukmidan faqat kengaytirilgan almashtirish orqali «Barcha tergovchilar – huquqshunoslardir» degan xulosaga kelishimiz mumkin. Demak, almashtirish usulida hukmdagi sub'yekt va predikatning hajmini aniqlash to'g'ri xulosa chiqarishning muhim sharti ekanligi haqidagi qoidaga o'z mulohazalarimizda qat'iu amal qilishimiz lozim.

3. Predikatga kauama-qarshi qo'yish. Predikatga qarama-qarshi qo'yishda hosil bo'lgan natijadagi yangi hukmning sub'yekti o'rnida hukmning predikatiga zid tushuncha, predikati o'rnida esa asos hukmning sub'yekti keladi. Predikatga qarama-qarshi qo'yish mantiqiy usulini aylantirish va almashtirishning natijasi sifatida ko'rish mumkin. Dastlab asos hukm

(S – R)ni aylantirish orqali (S – R emas) munosabatini aniqlaymiz va hosil bo'lgan hukmdan almashtirish orqali (R emas – S dir) munosabatini aniqlaymiz.

Predikatga qarama-qarshi qo'yish orqali hosil bo'lgan xulosa asos hukmning miqdori va sifatiga bog'liq bo'lib, unda A – Ye ga, Ye – I ga, O – I ga o'zgaradi. Masalan, 1) A. «Barcha jinoyatlar ijtimoiy xavflilik belgisiga ega bo'lgan qilmishdir». Ye. Ijtimoiy xavflilik belgisiga ega bo'lgan hech bir qilmish jinoyat hisoblanmaydi.

Barcha S – R dir.

Nesh bir R emas – S emasdir.

2) Ye. «Nesh bir mahkum saylash huquqiga ega emas».

I. «Saylash huquqiga ega bo'lmaganlarning ba'zilar mahkumlardir».

Nesh bir S – R emas.

Va'zi R emas – S dir.

3) O. «Va'zi guvohlar voyaga yetmaganlardir».

I. Va'zi voyaga yetmaganlar guvohlardir.

Va'zi S – R emas.

Va'zi R emas – S dir.

Juz'iu tasdiq (I) hukmidan predikatga qarshi qo'yish usuli orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki «Va'zi S – R dir» (I) hukmini aylantirsak, «Va'zi S – R emas»(O) hukmi kelib chiqadi. Ma'lumki, juz'iu inkor hukmidan almashtirish orqali xulosa chiqarib bo'lmaydi.

4. Mantiqiy kvadrat bo'yicha xulosa chiqarish. *Mantiqiy kvadratga ko'ra (A, Ye, I, O) qat'iu hukmlarni o'rtasidagi munosabatning tabiatidan kelib chiqib, birining chinligidan ikkinchisining yolg'op yoki chinligini keltirib chiqaruvchi xulosaga mantiqiy kvadrat bo'yicha xulosa chiqarish deb aytiladi.*

Zid munosabatdagi huknlarda A – O, Ye – I uchinchi mustasno qonuniga amal qilinib birining chinligidan ikkinchisining yolg'onligi yoki aksincha natija kelib chiqadi. Masalan, A. «Barcha insonlar mehnat qilish huquqiga ega» (chin). O. «Va'zi insonlar mehnat qilish huquqiga ega emas» (yolg'on).

Yoki boshqa bir misolni olib ko'raylik: I. «Va'zi tinglovchilar sportchi» (chin).
Ye. «Nesh bir tinglovchi sportchi emas» (yolg'on). Demak, zid munosabatdagi
hukmlarning har ikkisi chin bo'lmaydi, chunki ulardan biri albatta yolg'on bo'lishi
kerak: Ash – Ouo; Auo – Osh; Yech – Iuo; Yeyo – Ish (Vu yerda chin - «sh»,
yolg'on - «uo», deb belgilanmoqda).

Qarama-qarshi munosabatdagi hukmlar (A-Ye)ni xulosalashda birining
chinligidan ikkinchisining yolg'onligi kelib chiqadi, ammo birining yolg'onligidan
ikkinchisining chinligi kelib chiqmaydi.

Masalan, A. «Barcha Uzbekiston fuqarolari qonun oldida tengdirlar» (chin).

Ye. «Nesh bir Uzbekiston fuqarosi qonun oldida teng emas» (yolg'on).

Qarama-qarshi munosabatdagi hukmlarning o'rtasidagi munosabat
ziddiyatsizlik qonuniga bo'ysunadi va «chin, yolg'onlik» ketmaketligi quyidagicha
ifodalanadi:

Ash – Yeyo; Yech – Auo; Auo – Ye (sh. yoki uo.); Yeyo – A (sh. yoki uo.).

Qisman tos munosabatdagi hukmlar (I – O)ni xulosalashda birining
yolg'onligidan boshqasining chinligi kelib chiqishi, ammo birining chinligidan
boshqasining chinligi ham, yolg'onligi ham kelib chiqishi yoki ikkisi ham chin
bo'lishi mumkin. Masalan:

I. «Va'zi guvohlar to'g'ri ko'rsatma berishdi» (chin).

O. «Va'zi guvohlar to'g'ri ko'rsatma berishmadi» (chin yoki yolg'on).

Qisman mos munosabatdagi hukmlarni xulosalashda «chin, yolg'onlik» ketma-
ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Iuo – Osh; Ouo – I, sh; Ish – O (sh. yoki uo.); Osh -I (sh. yoki uo.).

4) *Vo'ysunish munosabatidagi (A – I, Ye – O) hukmlarda*
bo'ysundirayotgan hukmning chinligidan bo'ysunuvchi hukmning chinligi kelib
chiqadi. Ammo bo'ysunuvchi hukmning chinligi bo'ysundiruvchi hukmning
chinligini keltirib chiqarmasligi ham mumkin. Masalan,

O. «Ayrim IIO xodimlari oliy ma'lumotga ega emas» (chin).

Ye. «Nesh bir IIO xodimi oliy ma'lumotga ega emas» (yolg'on).

Vo'ysunish munosabatidagi hukmlarni xulosalashda «chin, yolg'onlik» ketma-ketligini quyidagicha ifodalash mumkin:

Ash - Ish; Yech - Osh; Ish -(sh. yoki uo.); Osh - Ye(sh. yoki uo.).

Bilvosita xulosa chiqarish. Oddiy qat'iu sillogizm – bu vositali deduktiv xulosa chiqarishning muhim turlaridan biridir. «Sillogizm» yunoncha «*8iRo8^8sho8*» so'zidan olingan bo'lib, «isoblamoq», «sanamoq», degan ma'nolarni anglatadi.

Ikki yoki undan ko'r oddiy qat'iu hukmlar (asoslar)dan xulosa chiqarilishga «sillogizm» deb aytiladi. Hukmlarning aniq va ravshan, bir-biri bilan mantiqan bog'langanligi hamda oddiy va qat'iuligi tufayli oddiy qat'iu (kategorik) sillogizm deyiladi.

Oddiy qat'iu sillogizmnining tarkibi uch qat'iu hukmlardan: *ikki asos va bir xulosa, ua'pi ish termindan iborat bo'ladi.* Sillogizmnining terminlari hukm atamaları «S» sub'yekt va «R» predikatdan farq qilib, katta, kichik va o'rta terminlar bilan belgilanadi.

Sillogizmnining kichik termini (S) xulosa sub'yektidagi tushunchaga, katta termini (R) xulosa predikatidagi tushunchalarga to'g'ri keladi va «chekka terminlar» deb ham yuritiladi.

Tarkibida kichik termin bo'lgan hukm kichik asos, tarkibida katta termin bo'lgan hukm esa katta asos deb ataladi. Sillogizmnining har ikkala, katta va kichik asoslarini bog'lovchi, lekin xulosada ishtirok etmaydigan tushuncha – o'rta termin deb atalib, lotincha «M» harfi (*lotincha «tebshz» - «o'rta»*) bilan belgilanadi. Masalan, Katta asos - «Barcha ommaviy axborot vositalarida (M) - senzura uo'l qo'yilmaydi» (R). Kichik asos - ««Huquq» - jurnali (8) - ommaviy axborot vositasi» (M).

Xulosa - ««Huquq» jurnalida (8) - senzura uo'l ko'yilmaydi» (R).

Yuqoridagi misolda «Ommaviy axborot vositalari» tushunchalari o'rta termin (M) bo'lib, u xulosada qatnashmayapti, «senzura uo'l ko'yilmaydi» (R) katta hajmli termindir, chunki u xulosada predikat bo'lib kelmoqda. «Huquq jurnali» (S) kichik hajmli tushuncha bo'lib, xulosada sub'yekt maqomida kelmokda. Demak,

katta termin qatnashgan hukm katta asos, kichik termin qatnashgan hukm kichik asosdir.

Sillogizm asoslari muayyan ketma-ketlikda oldin katta asos, keyin kichik asos va xulosa tarzida keladi.

Qat'iu sillogizm qoidalari. Qat'iu sillogizm fikrlash jarayo – nida ko'r uchraydi. Sillogizmda har doim ham chin asoslardan chin xulosa kelib chiqmaydi. Chin xulosani olish uchun asoslarning chinligi yetarli bo'lmasdan, sillogizm koidalariga amal qilish ham lozim bo'ladi. Uch qoida terminlarga, to'rt qoida asoslarga nisbatan mavjud bo'lib, ularga amal qilish chin xulosalar olish imkoniyatini beradi.

1. Termin (atama)lar qoidalari.

1-qoida. *Nar bir sillogizmda faqat ish termin S, R, M bo'lishi lozim.* Agar muhokama ikki yoki to'rt termindan iborat bo'lsa, u sillogizm bo'la olmaydi. Masalan, «Nauot abadiy», «Ahmad hayot kechirmoqda», «Ahmad abadiy».

Vu xulosa xato va mantiqsizdir, sababi o'rta termin, ua'ni «hayot» tushunchasining ikki ma'noda qo'llanishidir. Birinchi hukmda «hayot» tushunchasi umuman tiriklik ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, ikkinchi hukmda «hayot» konkret bir insonning cheklanmagan umr kechirishi ma'nosida ishlatilmoqda. Vu xato sillogizmda «terminlarni to'rtlashtirish» deyiladi. Chunki «hayot» termini ikki hukmda ikki xil ma'nodagi tushuncha, ua'ni ikkita termin bo'lib kelmoqda.

2-qoida. O'rta termin (M) asoslarning birida albatta taqsimlangan bo'lishi kerak. Masalan,

«Barcha sudyalari (R) oliy ma'lumotli» (M).

«Ahmedov (S) oliy ma'lumotli» (M).

«Ahmedov (S) sudya» (R).

Vu holda «Ahmedov sudya» degan xulosani chiqarib bo'lmaydi. Ahmedov sud'ua bo'lmasligi ham mumkin. Vu misolda har ikkala asos to'la hajmda olinmagan, ua'ni taqsimlanmagan.

3-qoida. Asoslarda taqsimlanmagan termin xulosada ham taqsimlanmaydi. Masalan, «Hamma tergovchilar (M) oliy ma'lumotli» (R).

«Salimov (8) tergovchi emas» (M).

«Salimov (8) oliy ma'lumotli» (R).

Noto'g'ri xulosa chiqarilgan. Katta termin taqsimlanmagan. Salimov oliy ma'lumotli bo'lishi (S) yoki bo'lmasligi (S) ham mumkin.

II. Asoslarga oid qoidalar.

1-qoida. Ikkita inkor asos hukmdan xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Masalan, «Akademiyaning tinglovchilari fizika fanini o'qimaydilar».

«Ahmedov Akademiya tinglovchisi emas».

Vu hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi, chunki har ikki asos ham inkoriy sifatga ega bo'lib, bunda xulosadagi fikr noaniq bo'ladi.

2-qoida. Agar asos hukmlardan biri inkor hukm bo'lsa, xulosa ham inkor hukm bo'lib keladi.

Masalan, «Ayblanuvchi himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanadi».

«Fuqaro S, ayblanuvchi emas».

«Fuqaro S, ga himoyalaniş huquqi kerak emas».

3-qoida. Ikki juz'iu asos hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi. Masalan, «Va'zi tinglovchilar sportchi».

«Va'zi tinglovchilar a'loşhi».

Vu hukmlardan xulosa kelib chiqmaydi, chunki o'rta termin «ba'zi tinglovchilar» o'zining bog'lovchi vazifasini bajara olmayapti.

4-qoida. Asos hukmlardan biri juz'iu bo'lsa, xulosa ham juz'iu hukm bo'ladi. Masalan, «Barcha aybdorlar jazolanishi lozim».

«Va'zi odamlar – aybdor».

«Va'zi odamlar jazolanishi lozim».

Birinchi savolga xulosa. Xulosa to'g'ri tafakkur qilishning eng yuqori shakli bo'lib, o'zining murakkab tuzilishiga ega. Deduktiv xulosa chiqarishning bevosita va bilvosita turlari, ularning qoidalari mantiqiy usullari to'g'ri fikr yuritish ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Sillogizmning figura va moduslari.

Sillogizmning figuralari deb asos hukmlarda o'rta terminning holatiga ko'ra farqdanadigan sillogizm shakllariga aytiladi. Sillogizmning to'rt figurasi mavjud:

I II	III	IV					
M	R	R	M	M	R	R	m

8M 8 M m 8 m 8

8-R 8-R 8 -R 8-R

Birinchi figura: o'rta termin katta asosda sub'yekt, kichik asosda predikat o'rinda bo'ladi. Masalan,

«Hamma sudyalari (M) daxlsiz» (R) (Konstitutsiyasi, 112-modda).

«Komilov (8) sudya» (M).

«Komilov daxlsiz».

Vu figura huquqiy amaliyotda ko'r qo'llaniladi. Huquqiy hodisalarni baholash (kvalifikatsiya qilish), hukuk normalarini alohida hodisalarga nisbatan qo'llash, jinoyat uchun jazo belgilash va shu kabi boshqa sud qarorlarida qo'llaniladi.

Ikkinchi figura: o'rta termin ikki asosda ham predikat o'rinda keladi. Masalan, «Jinoiy ishlar bo'yicha isbot qilish majburiyati (R) surishti – ruvchi, tergovchi, prokuror va sudga yuklatiladi» (M). (JPK, 86-modda).

«Aliyev (S) surishtiruv, tergov, prokuratura va sud idoralarida ishlamaydi» (M). Demak, Aliyevga (S) jinoiy ishlar bo'yicha isbot qilish maj – buriyati yuklatilmaydi (R). Ikkinchi figura asos hukmlarda ifodalangan fikrlarga zid holatlarni inkor etadi va sud amaliyotida, hodisada jinoyat tarki – bining uo'qligi haqida xulosalar beradi.

Uchinchi figura: o'rta termin har ikkala asosda ham sub'yekt bo'lib keladi. Masalan, yuzlashtirishda (M) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin (R) (JPK-122 m.).

Yuzlashtirish (M) tergov harakatidir (S).

Demak, tergov harakatida (S) gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvoh so'roq qilinishi mumkin (R).

Xulosa chiqarishda sillogizmning boshqa figuralariga nisbatan uchinchi figurasi kam foydalaniladi.

To'rtinchi figura: o'rta termin katta asosda predikat, kichik asosda esa sub'yekt bo'lib keladi. Masalan: «Nesh bir jinoyat (R) xalq manfaatiga uo'lidagi harakat emas» (M).

«Xalq manfaatiga uo'lidagi ba'zi harakatlar (M) ozodlikdir» (8).

Demak, ozodlik (S) jinoyat emas (R).

Sillogizmning to'rtinchi figurasi sun'iyroq xususiyatga ega bo'lib, muhokama jarayonida ko'r qo'llanilmaydi hamda uning amaliy ahamiyati nisbatan kam.

Sillogizmning moduslari.

Asoslarning sifat va miqdoriy tasnifi bilan farqlanadigan sillogizm turlariga oddiy qat'iu sillogizm moduslari deb aytiladi.

Modus – lotincha «Mobshz» so'zidan olingan bo'lib, o'lehov, tur, qoida, degan ma'nolarni anglatadi. Nar bir sillogizm ikki asos hukm va bir xulosa hukmdan hamda bu hukmlarning umumiy birlashgan tasnifi to'rt turdan, umumiy tasdiq (A), umumiy inkor (Ye), juz'iy tasdiq (I) va juz'iy inkor (O) hukmlardan iborat bo'ladi. Sillogizmning moduslari sillogizm umumiy qoidalariga va o'rta terminning figurada joylashgan tartibiga ko'ra, hukmlarning o'zaro bog'lanishi natijasida paydo bo'ladi. Nar bir asos to'rt hukmdan biri bo'lishi mumkin. Bir figuraning asoslarida yuz berishi mumkin bo'lgan asoslarni birlashtirishning 16 turi mavjud, to'rtta figura – da 64 ta. Hamma moduslar ham sillogizmning qoidalariga to'g'ri kel – maydi. Ishonchli xulosani faqat 19 ta modusdan olish mumkin. Ular quyidagilar:

- 1- figura: AAA, YeAE, AII, YeIO;
- 2- figura: YeAE, AEE, YeIO, AOO;
- 3- figura: AA I, IA I, AII, YeAO, OAO, YeIO;
- 4- figura: AA I, AEE, IA I, YeAO, YeIO.

Sillogizm moduslari figuralarning maxsus qoidalaridan olinadi.

Figuralarning maxsus qoidalariga.

1-Figura. Katta asos umumiy hukm, kichik asos tasdiq hukmi bo'lishi kerak.

2-Figura. Katta asos umumiu hukm asoslardan biri va xulosa inkor hukm bo'lishi kerak.

3 – Figura. Kichik asos tasdiq, xulosa juz'iu hukm bo'lishi lozim.

4-Figura. Umumiu tasdiq xulosani bermaydi. Agar katta asos tasdiq hukmdan iborat bo'lsa, kichik asos umumiu hukm bo'ladi. Asoslardan biri inkor hukm bo'lsa, katta asos umumiu hukmdan iborat bo'ladi.

Qisqartma qat'iu sillogizm (entimema). Entimema yoki qis – qartirilgan qat'iu sillogizm, deb sillogizmdagi asoslardan biri yoki xulosaning tushirib qoldirilishiga aytiladi. «Entimema» tushunchasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, «esda», «fikrda», «yodda» degan ma'nolarni anglatadi.

Entimemalar uch turga bo'linadi: katta asosi tushirib qoldirilgan, kichik asosi tushirib qoldirilgan va xulosasi tushirib qoldirilgan entimemalar.

1) Katta asosi tushirib qoldirilgan entimemaga misol:

«O'zbekiston – mustaqil Respublika».

Demak, O'zbekistonning ham o'z Konstitutsiyasi bor. Mazkur entimemada «Barcha mustaqil Respublikalar o'z konstitutsiyasiga ega», degan katta asos tushirib qoldirilgan.

2) Kichik asos tushirib qoldirilgan entimemaga misol:

«Barcha O'zbekiston fuqarolari bilim olish huquqiga ega».

Demak, sen bilim olish huquqiga egasan.

Vu misolda kichik asos «Sen O'zbekiston fuqarosisan», degan hukm tushirib qoldirilgan.

3) Xulosasi tushirib qoldirilgan entimemaga misol:

«Barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi».

«Sen fuqarosan».

Vu misolda «Demak, sen uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi», degan hukm xulosa sifatida tushirib qoldirilgan. Entimema singari qisqartirilgan sillogizmlar asosan xalq maqollari, aforizmlarda ko'r uchraydi.

Murakkab va murakkab qisqartirilgan sillogizmlar. Murakkab sillogizmlar mazmuni bilan bog'langan, ikki yoki undan ortiq sillogizmlardan tarkib topib,

birining xulosasi ikkinchisi uchun asos hukm bo'ladi. Murakkab sillogizm «polisillogizm» (ko'r sonli sillogizm) deb ham yuritiladi.

Mantiq fanida ikki xil: progressiv va regressiv polisillogizmlar farqlanadi. Agar dastlabki sillogizmning xulosasi ikkinchi sillogizmning katta asosi bo'lsa, bunday polisillogizm progressiv deyiladi. Shu o'rinda aytish lozimki, polisillogizm tarkibidagi birinchi sillogizm «prosillojizm», keyingisi «episillojizm» deb ataladi. Demak, progressiv polisillogizmida prosillojizm xulosasi episillojizm uchun katta asos o'rinda kelar ekan. Masalan,

«Barcha ijtimoiy xavfli harakatlar (A) jazolanadi» (V).

«Jinoyat (S) - ijtimoiy xavfli harakatdir» (A).

«Jinoyat (S) jazolanadi» (V).

«Pora berish (D) jinoyatdir» (S).

«pora berish (D) jazolanadi » (V).

Mazkur progressiv polisillogizmning sxematik tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:

Barcha A – V dir.

S – A dir.

S – V dir.

D – S dir.

D – V dir.

Regressiv polisillogizm. Agar dastlabki sillogizmning (pro – sillogizmning) xulosasi, ikkinchi sillogizm (episillogizm)ni kichik asosi bo'lib kelsa, bunday polisillogizm «regressiv sillogizm» deyiladi.

Masalan, Barcha fuqarolar (A) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi – ga ega (V). (Uzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 29-m.).

«Rahimov (S) - fuqaro» (A).

«Rahimov (S) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega (V).

«Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi (V) demokratik erkinlikdir» D).

«Rahimov (S) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega» (V).

«Rahimov (A) demokratik erkinliklarga ega» (D).

Mazkur regressiv polisillogizmning sxematik tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:

Barcha A – V dir.

S – A dir.

S – V dir.

V – D dir.

S – V dir.

S – D dir.

«Sorit»lar. Soritlar murakkab sillogizmning polisillogizm – lardan tashkil topgan ko‘rinishidir. Progressiv va regressiv poli – sillogizmlar mantiqda qisqartirilgan shaklda «soritlar» deb yuritiladi. **Sorit** – yunoncha «8orl» so‘zidan olingan bo‘lib, «to‘da», «jamlangan» degan ma‘noni anglatadi. Soritlarning ikki: progressiv va regressiv turlari mavjud.

Progressiv soritda polisillogizmning xulosasi – episillogizmlarning katta asosi tushirib qoldiriladi. Masalan, «Barcha ijtimoiy xavfli harakatlar (A) jazolanadi» (V). «Jinoyat (S) - ijtimoiy xavfli harakatdir» (A). «Pora berish (D) jinoyatdir» (S). «Pora berish (D) jazolanadi» (V).

Mazkur progressiv soritning sxematik tuzilishi quyidagicha:

Barcha A – V dir.

S – A dir.

D – S dir.

D – V dir.

Regressiv soritda prosillogizmning xulosasi va episillogizmlarning kichik asosi tushirib qoldiriladi. Yuqoridagi regressiv polisillogizmga oid yuqoridagi misolimizni regressiv soritga aylantiramiz:

«Rahimov (A) fuqarodir» (V). «Fuqarolar (V) fikr yuritish va uni ifodalash erkinligiga ega» (S). «Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi (S) demokratik erkinlikdir» (D). Rahimov (A) demokratik erkinlikka ega (D).

Mazkur progressiv soritning sxematik tuzilishi quyidagicha:

A – V dir.

V – S dir.

S – D dir.

A – D dir.

Epixeyrema. Epixeyrema murakkab qisqartirilgan sillogizm bo'lib, uning ikki asos hukmlari qisqartirilgan oddiy sillogizm (entimema)lardan iborat bo'ladi. Masalan, «Ongli mehnat (A) hurmatga sazovor (S), chunki ongli mehnat (A) shaxs va jamiyat rivojiga xizmat qiladi (V).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) ongli mehnat (A), chunki HMQO xodimlari (D) jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi (Ye). Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (D) hurmatga sazovordir (S). Umumiy va tasdiq muhokamalar uchun epixeyremaning sxematik tuzilishi quyidagicha ifodalanadi:

A – S dir, chunki A – V dir.

D – A dir, chunki D – Ye dir.

D – S dir.

Epixeyremaning birinchi va ikkinchi asoslari qisqartirilgan qat'iy sillogizm entimema bo'lib, ularda asoslardan biri tushirib qoldiriladi. Epixeyremaning birinchi va ikkinchi asoslari quyida to'liqligicha ifodalangan:

Vu yerdagi birinchi va ikkinchi sillogizmlarning xulosasini uchinchi sillogizmning katta va kichik asoslari sifatida olsak:

A – S dir.

D – A dir.

D – S dir ko'rinishida ifodalanadi.

Epixeyremaning to'liqligicha ifodallasak:

1. «Shaxs va jamiyat rivojiga xizmat qiladigan harakatlar (V) hurmatga sazovor» (S).

«Ongli mehnat (A) jamiyat va shaxs rivojiga xizmat qiladi» (V).

«Ongli mehnat (A) hurmatga sazovor» (S).

2. «Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash (Ye) ongli mehnatdir (A).

«Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (D) jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi» (Ye).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) ongli mehnatdir (A).

Vu misolda birinchi va ikkinchi sillogizm xulosalari uchinchi sillogizm asoslari bo'ladi.

3. Ongli mehnat (A) hurmatga sazovor (S).

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) ongli mehnatdir (A).

1. V – S dir. A – V dir. A-S dir.
2. Ye – A dir. D – Ye dir. D – A dir.

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining mehnati (D) hurmatga sazovor (S).

Epixeyremadan bahs va munozaralarda fikrlarning to'g'riligini tekshirish hamda mantiqiy xatoliklarga uo'l qo'ymaslik maqsadlarida keng foydalaniladi.

Murakkab hukmlardan xulosalar chiqarish. Xulosa chiqarish nafaqat oddiy hukmlardan, balki murakkab hukmlardan ham tashkil topadi. Asoslari shartli uo ayiruvchi yoki ham shartli, ham ayiruvchi hukmlar bo'lib, ularning turlicha o'zaro yoki qat'iu hukmlar bilan birikishidan tashkil topgan xulosalarga murakkab hukmlardan xulosa chiqarish deyiladi.

Vu xulosa chiqarishning o'ziga xosligi shundaki, asoslardan olingan xulosa qat'iu sillogizmdagi kabi o'rta terminlarning munosabatidan emas, balki hukmlarning o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish tabiatidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham asoslarning sub'yekt – predikat tartibidagi tarkibi hisobga olinmaydi. Murakkab hukm – lardan xulosa chiqarishning keng tarqalgan turlari quyidagilardir:

- 1) sof shartli xulosa; 2) shartli qat'iu xulosa;
- 3) ayiruvchi qat'iu xulosa; 4) shartli ayiruvchi xulosa.

Shartli xulosa chiqarish deb har ikki asos yoki asoslaridan biri shartli hukm an sillogizmga aytiladi. Ma'lumki hukm: «Agar a bo'lsa, unda v bo'ladi»

tartibida kelsa, bular shartli hukmlar deyil – ladi. Shartli xulosa chiqarish o'z navbatida sof shartli va shartli – qat'iu xulosalarga bo'linadi.

1. Sof shartli xulosa. Ikki asos va xulosani shartli hukmlar – dan tashkil topgan vositali xulosalashga sof shartli xulosa chiqarish deyiladi. Sof shartli xulosa chiqarishning formulasi quyidagicha.

Agar A bo'lsa, V bo'ladi.

Agar V bo'lsa, S bo'ladi.

Demak, A bo'lsa, S bo'ladi.

Masalan,

«Agar o'qishni xohlasang, (A) imkoniyat qidir» (V).

«Agar imkoniyat qidirsang, (V) maqsadingga yetasan» (S).

«Agar o'qishni xohlasang, (A) maqsadingga yetasan» (S).

2. Shartli-qat'iu (kategorik) xulosa chiqarish. Asoslardan biri shartli, ikkinchisi va xulosa qat'iu hukmlardan iborat bo'lgan xulosalashga shartli-qat'iu xulosa chiqarish deyiladi. Masalan, «Agar prokuror sud majlisiga kelmay qolgan taqdirda (A) jinoyat ishini muhokama qilish keyinga qoldiriladi» (V) (O'zbekiston Respublikasi JPK, 412-modda).

«Prokuror sud majlisiga kelmadi» (A).

«Sud jinoiy ishning muhokamasini keyinga qoldirdi» (V).

Birinchi asos – shartli hukm asos (A) va oqibatning (V) bog'la – nishini ifodalaydi. Ikkinchi asos qat'iu hukm bo'lib, unda «prokurorning sud majlisiga kelmaganligi», tasdiqlanadi. Ikkinchi asos natijaning chinligini keltirib chiqarmoqda. Shartli-qat'iu xulosa chiqarishning ikki to'g'ri modusi tasdiq va inkor moduslari mavjud.

3. Ayiruvchi qat'iu xulosa. Asoslaridan biri ayiruvchi, qolgan asoslari va xulosasi qat'iu hukmdan iborat bo'lgan xulosalashga ayiruvchi qat'iu xulosa chiqaruvchi deb aytiladi. Ayiruvchi hukmlarning tarkibidagi oddiy hukmlar «yoki» diz'uunktivlari orqali bog'lanadi.

Masalan: «Organizm bir hujayrali yoki ko'r hujayrali bo'ladi», degan hukmda ikkita oddiy hukm «yoki» mantiqiy bog'lovchisi orqali bog'langan. Vu holda

diz' uunksiuaning bir a'zosi tasdiqlanib, ikkinchisi inkor qilinishi mumkin. Shundan kelib chiqib, ayiruvchi – qat'iu xulosa chiqarishning ikki modusi, ua'ni tasdiq-inkor va inkor-tasdiq moduslari farqlanadi.

4. Shartli-ayiruvchi xulosa chiqarish. Asoslarning biri shartli, boshqasi ayiruvchi hukmlardan iborat bo'lgan xulosalashga shartli – ayiruvchi xulosalash deyiladi.

Ayiruvchi hukmlardan ikki, uch yoki undan ko'r muqobil (alter – nativ) yechimlarga ega bo'lgan masalalarni to'g'ri hal qilishda foydalaniladi. Shartli ayiruvchi xulosa – lemmatik (taxminiy) xulosa chiqarish, deb ham yuritiladi hamda u dilemma (ikki alternativ), trilemma (uch alternativ) va hokazo turlarga bo'linadi.

Masalan, «Agar shaxs qonunga xilof ravishda Uzbekiston Respublikasidan chet elga chiqish tartibini buzsa (a), JK ning 223-moddasiga binoan jazolanadjazolanadi» (s).

«Agar shaxs qonunga xilof ravishda O'zbekiston Respublikasiga kirish tartibini buzsa (v), JK ning 223-moddasiga binoan jazolanadi» (s).

«Shaxs qonunga xilof ravishda chet elga chiqish (a) yoki Uzbekiston Respublikasiga kirish (v) qoidalarini buzdi».

Demak, shaxs O'zbekiston Respublikasi JK ning 223-moddasini buzgan hisoblanadi.

3. Induktiv va Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish hamda ularning turlari

Induktiv xulosa chiqarish. Induktiv xulosa chiqarish bevosita xulosa chiqarish qatoriga kiradi. Uning asosiy xususiyati shundan iboratki, induksiya hodisalarni birma-bir o'rganishga asoslanadi. Induktiv xulosa chiqarish yordamida narsalar va hodisalarning turli xususiyatlari o'rganiladi, ularning umumiu tomonlari haqida xulosa chiqariladi. Induksiyaning asosini yakkaalik, xususiylik va umumiylikning uzviu aloqasi tashkil etadi. Induksiyaning yana bir xususiyati shundaki, uning xulosalari ko'pincha ehtimolli xarakterga ega bo'ladi. Vu induksiyaning hodisalarni birma-bir o'rganishga asoslanganligi hamda kuzatish va eksperiment bilan bog'liq bo'lganligidan kelib chiqadi.

Induktiv xulosa chiqarish deb nisbatan torroq bilimlardan nisbatan kengroq bilimlarga fikran harakat qilishdan iborat bo'lgan xulosa chiqarishga aytamiz.

Mantiq fani induktiv xulosa chiqarishning ikki turini o'rganadi. *Bular to'liq va to'liqsiz induksiya*dir.

To'liq induksiya umumiy bilimlar olish usullaridan biridir. To'liq induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda xulosa bir turkum narsa va hodisalarning hammasini birma-bir o'rganish asosida nisbatan yangi bilim hosil qilinadi. Bunday xulosa chiqarish uchun narsa va hodisalarning birorta o'xshash, umumiy xususiyati bo'lishi kerak. Har bir narsaning xususiyati haqidagi fikr asoslarda yakka hukmlar orqali ifodalanadi. Xulosa odatda umumiy hukm orqali beriladi, unda biror xususiyatning bir turkum narsalarning hammasiga xosligi yoki xos emasligi haqidagi fikri ifodalanadi. To'liq induksiyaning shu asoslari va xulosasi aniq, ehtimoldan xoli bo'lgani uchun fikr qat'iy hukmlar orqali beriladi.

To'liq induksiya bo'yicha xulosa chiqarish uchun o'rganilayotgan narsalar va hodisalar nisbatan kamroq bo'lib, ularni birma-bir o'rganish imkoniyati bo'lishi lozim. Masalan, «Merkuriy quyosh atrofida aylanadi».

Mars quyosh atrofida aylanadi.

Yer quyosh atrofida aylanadi.

Venera quyosh atrofida aylanadi.

Saturn quyosh atrofida aylanadi.

Uran quyosh atrofida aylanadi.

Neptun quyosh atrofida aylanadi.

Pluton quyosh atrofida aylanadi.

Yupiter quyosh atrofida aylanadi.

Yuqoridagi planetalar quyosh sistemasidagi hamma planetalardir. Demak, bu planetalarning hammasi quyosh atrofida aylanadi.

To'liqsiz induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda bir turkum narsalarning bir qanchasini o'rganish asosida olingan bilimlarga tayanib biror xususiyat shu turkumdagi narsalarning hammasiga xosligi haqida xulosa

chiqaramiz. Bunda xulosa kuzatilgan va kuzatilmagan narsa va hodisalarga aloqador bo'ladi. To'liqsiz induksiyaning xulosasi ehtimoliy xarakterga ega bo'ladi.

O'rganilayotgan xususiyatda bir turkum narsalarning qolgan – lariga xos yoki xos emasligi noaniq qoladi. To'liqsiz induksiya o'z navbatida oddiy sanash orqali yoki ommabop induksiya va ilmiu induksiyaga bo'linadi.

Oddiy sanash orqali induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda bir turkum narsalarning bir qanchasida biror xususiyat takrorlanishini o'rganish asosida qolganlariga xulosa chiqariladi. Induksiyaning bu turida xulosa chin bo'lishi uchun xususiyat ko'proq narsalarga xos va xususiyat narsalar uchun muhim bo'lishi, umumiu holatga zid keladigan hollar bo'lmasligi kerak. Oddiy sanash orqali induksiya xulosalari ilmiu xarakterga ega bo'lmasa ham, takrorlanib turadigan holatlardan xulosa chiqarish uchun ahamiyatlidir. «Hamma metallar qizdirilganda kengayadi», «Hamma 18 yoshga yetgan O'zbekistonliklar saylash huquqiga ega», «Hamma odamlar tinchlik uchun kurashadi» kabi xulosalar to'liqsiz induksiyaning oddiy sanash turi orqali chiqarilgandir.

Ilmiu induksiya. Ilmiu induksiya xulosa chiqarishning shunday turiki, unda xulosa chiqarish uchun hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanish asos qilib olinadi. Ilmiu induksiyada xulosa, hodisalarning muhim xususiyatlarining takrorlanishini o'rganish natijasida hosil bo'ladi. Sababiy bog'lanish hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarning eng muhimidir. U narsa va hodisalarni asoslab beradigan qonuniyatlarni yechishga imkoniyat yaratadi. Ilmiu induksiya xulosalari ilmiu ahamiyatga ega ekanligini F. Bekon asoslab berdi. Uning metodlarini esa J. St. Mill ishlab chiqdi. Shuning uchun ba'zan uni Bekon – Mill induksiyasi deb atashadi. Mantiq fani ilmiu induksiyaning quyidagi metodlarini o'rganadi.

O'xshashlik metodi. Vu metodning mohiyati quyidagilardan iborat. Agar ikki ki undan ortiq hodisalarning birorta o'xshash tomoni mavjud, ularning natijasi bir bo'lsa, shu o'xshash tomoni hodisaning sababidir, deb xulosa chiqariladi. shashlik metodi yordamida xulosa chiqarish ko'pincha kuzatish bilan bog'liqladi. Hodisalar kuzatilganda ularga hech qanday ta'sir o'tkazilmaydi. O'xshashlik metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AVS

hodisasi ro'u berganda, a hodisasi ro'u beradi. ADE hodisasi ro'u berganda, A hodisasi ro'u beradi. Demak, A holati a hodisasining sababchisidir. Masalan, temir, mis, ro'latdan yasalgan mayatniklar bir xil uzunlikda osib qo'yilsa, ularning tebranish davri bir xil bo'ladi. Tebranish davrining bir bo'lishiga sabab mayatniklarning nimadan yasalgani emas, balki sterjenlarning bir xil uzunlikda bo'lishidir. Hamma hollarda faqat shu tomoni o'xshash bo'lib, qolgan tomonlari, ua'ni kimyoviy sostavi, zichligi, og'irligi, qattiqligi va boshqa tomonlari bilan farq qiladi.

Tafovut metodi. Vu metodning mohiyati shundan iboratki, agar hodisa bir holatda ro'u bersa, ikkinchi holatda ro'u bermasa, ularning farq qiladigan tomoni mavjud bo'lsa, shu tomoni hodisaning sababi, deb xulosa chiqariladi. Tafovut metodi bo'uisha xulosa chiqarish ko'rinsha tajriba o'tkazish bilan bog'liq bo'ladi. Tajriba o'tkazilganda, maqsadga mos keladigan sharoitlarni yaratish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, tajriba o'tkazganda natija ta'sir qiladigan hamma shart-sharoitni hisobga olish lozim. Tafovut metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AVS hodisasi ro'u berganda, a hodisasi ro'u beradi. VS hodisasi ro'u berganda, a hodisasi ro'u bermaydi. Demak, A holati a hodisasining sababidir. Masalan, quyosh nuri ko'rroq tushib turgan joyda yetilgan mevalarning mazali va yirik bo'lishi ma'lum, aksincha soya joyda yetilgani bemaza va mayda bo'ladi. Boshqa tomonlari bir xil bo'lib, bir tomondan farq qilgani, ua'ni quyosh nurining kuchi turlicha bo'lgani hodisaning sababi bo'ladi.

Yo'ldosh o'zgarishlar metodi. Vu metodning mohiyati shundaki, bir voqeaning o'zgarishi, boshqa voqeaning o'zgarishiga olib kelsa, avvalgisi keyingisi uchun sabab bo'ladi. Yo'ldosh o'zgarishlar metodi bo'uisha chiqarilgan xulosalar ko'rinsha ehtimoliy xarakterga egadir. Yo'ldosh o'zgarishlar metodining mohiyatini quyidagi formula orqali berish mumkin: AVS hodisasi ro'u berganda, a hodisasi ro'u beradi. AIVS hodisasi ro'u berganda, aI hodisasi ro'u beradi. Demak, A holati a hodisasining sababidir. Masalan, aholi o'rtasida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bilan ba'zida sodir bo'ladigan jinoiy ishlar o'rtasida sababiy bog'lanish bor. Tarbiyaviy

ishlar kuchaytirilsa, jinoiy ishlar nisbatan kamayadi. Tarbiyaviy ishlarning kuchaytirilishi sabab bo'lib, jinoiy ishlarning kamayishi natijadir.

Takrorlash uchun savollar.

1. Tafakkurning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Tafakkur shakli nima?
3. Tafakkur qonuni nima?
4. Formal mantiq nimani o'rgagadi?
5. Tafakkur qonunlari nimalari nimalarni aks ettiradi?
6. Formal mantiqning asosiy qonunlarini sanab bering?
7. Isbotlash qanday strukturaga ega?
8. Isbotlashning qanday usullari mavjud?
9. Rad etish isbotlash bilan qanday aloqada?
10. Rad etishning qanday usullarini bilasiz?
11. Isbotlash va rad etish qoidalarini buzganda qanday mantiqiy xatolar vujudga keladi?
12. Muammoli vaziyat nima?
13. Muammoni to'g'ri qo'yish va hal etishning qanday shartlari mavjud?
14. Gipotezaning mohiyati nimada va uning qanday turlari mavjud?
15. Nazariya bilish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi?

8-BOB. JAMIYAT FALSAFASI.

8-§. Jamiyat falsafasi.

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi, jamiyatning mohiyati, kelib chiqishi va taraqqiyoti to'g'risidagi diniy va hozirgi sotsiologik qarashlar.
2. Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari.
3. Jamiyatimizda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati.
4. Insoniyat istiqboli va global muammolar

Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiu Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushiga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Nar qanday holda ham, u umumiu tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi. Nar bir jamiyatning o'z qiyofasi, tuzilishi, tarkibiy qismlari mavjud bo'lishi tarixiy zaruratdir. Muayyan jamiyat hayotiga xos bo'lgan yashash va taraqqiy etish sohalarining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Vu masalani o'rganish ayniqsa dunyo hamjamiyati va O'zbekiston hayotida tub o'zgarishlar ro'u berayotgani hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat bilan bog'liq masalalar azaldan ko'rlab mutaxassislarning diqqatini tortib keladi. Fan tarixida bu mavzuga doir lurlicha qarashlar, g'oualar va ta'limotlar mavjud. Vu masalalar qadimgi avlodlarimizdan qolgan «Avesto» va «O'rxun-Yenesey tosh bitiklari» da, Al-Xorazmiu, Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Najmiddin Kubro, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa allomalarimiz merosida yorqin ifodasini topgan. Sharq

siyosatshunosligida jamiyat bilan bog'liq masalalar Konfutsiy, Kaykovus, Nizomulmulk, Mirxond, Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi ko'rlab allomalar ijodidan o'rin olgan. Ijtimoiy taraqqiyot davomida jamiyat to'g'risidagi qarashlar, g'oualar va ta'limotlar rivojlanib takomillashib borganligini, xususan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida hamda Amir Temur va temuriylar sulolasining jamiyat rivoji masalalariga oid nazariy va amaliy jihatdan yondashganligida ko'rish mumkin. Xususan, «Temur tuzuklari»da qayd etilgani kabi: «... saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir tuzukka bog'ladim va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma (dasturulamal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin, mehnatu mashaqqatlar, ko'r harbiy yurishlar, urush-talashlar bilan, Tangrining inoyati va hazrati Muhammadning, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, tolei baland millatning sharofati, onhazratning ulug'vor avlodi va qimmatli sahobalariga qilgan muhabbat va do'stligim orqali qo'lga kiritgan saltanatni saqlagaylar». Shuningdek, mazkur mavzuga Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimiz ijodida ham alohida ahamiyat berilgan.

Hozirgi davrda ham ushbu masalaga doir ko'rlab kitoblar, risolalar va qo'llanmalar chop etilmoqda. Ta'kidlash lozimki, jamiyatning mohiyatini, tuzilishini, qonuniyatlarini bilish, ularga tayangan holda boshqaruv va rahbarlik faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun «Jamiyat» tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tuzilishi, ijtimoiy qonunlar – jamiyat taraqqiyoti va islohotlar jarayonini bilishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Vu borada Sharq va G'arb falsafasidagi jamiyatga doir ayrim xususiyatlar, umumi nushtarak nuqtalar, unda shakllangan va qaror topgan g'arbona va sharqona iyatlar, shaxs erkinligi, individuallik va jamoaviylik uug'unligi kabi larning mohiyati nihoyatda muhim. Hozirgi zamonda jamiyatga doir izm hamda sinergetik qarashlarning uning taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish ijtimoiy jarayonlarni ilmiu tashkil etishdagi ahamiyatiga alohida ye'tibor i lozim.

8.1. Jamiyat – tabiatning bir qismi, ua'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'rlab munosabatlar uyg'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Nar bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Jamiyat moddiy va ma'naviu omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviu hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviu bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviu jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'uish mantiqqa zid. Shuning uchun ham hozirgi davrda xalq ma'naviuatini yuksaltirishga, milliu g'oua va mafkura asoslarini mustahkamlashga katta ye'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaudi, balki, aksincha – ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'lishi mumkin. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviuatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta ye'tibor berilyapti. Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari – oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniu, ilmiu, falsafiy, huquqiu, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi, bir so'z bilan, ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviu ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o'z mohiyatini uo'qotadi.

Jamiyatning moddiy-ma'naviu hayoti. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uu-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviu ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oua, mafkura, go'zallik, ma'naviu kamolot uo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli

mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviu olamni uug'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviu va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviu hayoti kishilarning moddiy va ma'naviu ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi. Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi: — kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar; — oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, uoqilg'i, kommunikatsiya vositalari; — moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish; — ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi; — moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar. Jamiyatning ma'naviu hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oualar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi. Jamiyatning moddiy va ma'naviu hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhim. Kishilar tomonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviu ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatni kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi asida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va ur vujudga keladi, ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rin egallaydi, jamiyat iqtisodiyotiga muayyan hissa qo'shadi. Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan -biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Nar bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon

etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi. Jamiyatdagi ma'naviu-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'r jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi.

Oilada yer va xotinning mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlicha. Mamlakatimizda milliu mustaqillik yillarida ma'naviat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgan. Ona va auol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oualar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanishini alohida 150 la'kidlagan. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'r jihatdan ayolning ma'naviu salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liq. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei hamda rolini kuchaytirishga qaratilgan. Oila muammolarini ilmiu asosda o'rganish, ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ugan respublika «Oila» ilmiyamaliy markazining tashkil etilgani ham davlatimizning oilaviy munosabatlarni takomillashtirishga alohida ye'tibor berayotganidan dalolat beradi.

Davlatning jamiyat hayotidagi o'rni. Davlat – jamiyatni boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan alohida muassasa. Davlat umuminsoniy qadriyat, insoniyat ma'naviu taraqqiyotining muhim uutug'idir. Jamiyat ma'naviu salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakl va usullari ham takomillashib boradi. O'zgargan tarixiy sharoitda davlatning mohiyati, mazmuni va vazifalariga yangicha yondashish zarurati vujudga keladi. Mustaqillik yillarida rhilliu davlatchilik an'analarining tiklanishi bilan davlatning tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi. Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Ularni shartli ravishda davlat va nodavlat tashkilotlariga ajratish mumkin. Ularga

siyosiy partiyalar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, turli jamg'armalar, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar uyushmasi, mahalla qo'mitalari va boshqalar kiradi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan.

Jamiyatimizda ro'u berayotgan demokratik o'zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati.

Demokratik jamiyat. Demokratik jamiyatni barpo etish – O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Vu jamiyat kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiu madaniyatiga asoslanadigan demokratik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'r qirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi 151 elementlarning nisbiu mustaqilligiga asoslanuvchi, turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir. Yurtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviu yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Bugun bizning bosh strategik maqsadimiz bozor iqtisodiyotiga asoslangan, qonun ustuvorligiga tayangan, erkin, demokratik jamiyat barpo etishdir. Undagi «erkinlik», «demokratiya», «qonun ustuvorligi» so'zlariga ye'tibor qaratish kerak. Vu tushunchalar O'zbekiston qurayotgan jamiyatning qanday umuminsoniy tamoyillarga, qadriyatlarga asoslanishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yashaydigan barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat'i nazar, munosib hayot sharoitini yaratib berish, rivojlangan demokratik davlatlar kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta'minlash davlatimiz siyosatining alsafiy mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Vu – xalqimizning asriy an'alariga, nsonparvarlik mohiyatiga, milliu qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda rivojlangan davlatlar tajribalaridan shunchaki nusxa ko'shirmasdan, o'zimizga xos va o'zimizga mos uo'lni izchil davom ettirishni anglatadi. Vu jamiyat hayotini demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mamlakatimiz siyosiy

hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurishni erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'r partiyaviylikni qaror toptirishni bildiradi. Vu mahalliy hokimiyat va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich o'tkazib borish, nodavlat va jamoat tuzilmalarining huquq va mavqeini oshirishni ko'zda tutadi. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi jarayonlarining huququ asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ko'ramiz. Konstitutsiya o'ziga xos falsafiy mazmunga ega bo'lib, unda O'zbekistonda qurilayotgan demokratik jamiyatning ustuvor maqsadlari, tamoyillari, inson huquq va erkinliklari o'zining yaqqol ifodasini topgan. 152 Mustaqillik mamlakatimizga jahon sivilizatsiyasining eshigini ochdi, uning teng huquqli a'zosi bo'lish va dunyodagi eng rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin egallash imkonini yaratdi. Bugungi kunda xalqimizning ana shu uo'lda amalga oshirayotgan ulkan bunyodkorlik faoliyati sivilizatsiyalashgan mamlakatlarga xos hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan.

8.2. Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari.

«Sivilizatsiya» tushunchasi. Ma'lumki, lotin tilidagi «civilis» so'zi asosida shakllangan, fuqaroviy, ijtimoiy degan ma'nolarni anglatadigan mazkur tushunchani ilm-fan tarixida dastlab shotland tarixchisi va faylasufi A. Fergyusson (1723—1816) jahon tarixiy jarayonining malum bir bosqichini ifodalash uchun, fransuz ma'rifatarvarlari esa aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat, degan ma'noda ishlatgan edilar. Undan keyin ham sivilizatsiya tushunchasiga turlicha mazmun berish davom etdi. Ayrim holda uni madaniyatning, ba'zan faqat moddiy madaniyatning sinonimi sifatida ishlatgan bo'lsalar, nemis faylasufi O. Shpengler esa, aksincha, uni madaniyatning antipodi ma'nosida, ua'ni madaniyatning halok bo'lish jarayoni bosqichini xarakterlash uchun, ingliz sotsiologi va tarixchisi A. Toynbi esa o'ziga xos va nisbatan yopiq bo'lgan jamiyatlarni ifodalash uchun ishlatgan. Sivilizatsiya tushunchasining mazmunini belgilashda turfa xillik hozirgi vaqtda ham saqlanib qolmoqda. Vu tushuncha: 1) ijtimoiy rivojlanishning

yovvoyilik va varvarlikdan keyin keladigan bosqichini; 2) umuman kishilik jamiyati rivojlanishining ma'lum bir bosqichini (masalan, neolit, nokapitalistik yoki hozirgi zamon sivilizatsiyasi); 3) ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani; 4) geografik jihatdan farqlanuvchi birliklarni (masalan, Yevropa yoki Osiyo sivilizatsiyasi); 5) diniy mansubligiga ko'ra, farqlanuvchi madaniy birliklarni (masalan, xristian yoki islom sivilizatsiyasi); 6) kelib chiqishi va planetar mansubligiga ko'ra farqlanuvchi birliklarni (masalan, Yer sivilizatsiyasi, Yerdan tashqaridagi sivilizatsiyalar); 7) etnik asosga ko'ra farqlanuvchi ijtimoiy-madaniy birliklarni (masalan, qad. Misr yoki Bobil sivilizatsiyasi) va shu kabi ma'nolarni ifodalash uchun qo'llanib kelmoqda. Sivilizatsiya tarixning, jamiyatning sifatiy o'ziga xosligini, u yoki bu mamlakat doirasida amal qiladigan, ishlab chiqarish iqs kuchlari, inson faoliyati, madaniyati tomonidan belgilanadigan umumiy ijtimoiy qonuniyatlarning spetsifikasini ifodalaydi. Bularning barchasi sivilizatsiyani yaxlit birlik sifatida mavjud bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu sifatiy xususiyatlarning o'qolishi sivilizatsiyaning halokatini anglatadi. Ushbu mulohazalardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, sivilizatsiya tushunchasi muayyan xalq, mamlakat (jamiyat)ga yoki uning rivojlanishining sifatiy jihatdan farqlanuvchi ayrim bosqichlariga nisbatan ishlatilgandagina, u aniq ilmiy mazmunga va demakki, metodologik ahamiyatga ega bo'ladi. Aynan etnik birliklar, mamlakatlar darajasida sivilizatsiyaning o'ziga xosligi, asosiy xarakteristikalarini o'zini yaqqol namoyon etadi. Jahon sivilizatsiyasi.

Jahon sivilizatsiyasi deganda Sharq va G'arb sivilizatsiyalari, mintaqaviy va hududiy sivilizatsiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo'lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyat tushuniladi. Bu tushuncha, umumiy ma'noda, zaminimizda yashagan barcha odamlarning umumiy makoni bo'lgan Yer yuzidagi hayot, tarixning hamma davrlarida mavjud bo'lgan davlat, jamiyat, xalq va millatlarning umrguzaronlik qilishi bilan bog'liq jarayonlar majmuasini o'zida aks ettiradi. Insoniyat taraqqiyotining bugungi holati zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari bilan uzviy aloqador ekan, Respublikamizning umuminsoniy

sivilizatsiya bilan uyg'unlashuvi ham ko'r jihatdan ana shunga bog'liq. Hozirgi paytda insoniyat o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tarildi. U o'zida moddiy ishlab chiqarish yutuqlarini, insoniyat tomonidan orttirilgan tajribalarni, jahon miqyosida paydo bo'lgan muammolarni oqilona hal etish uo'llari va usullarini mujassamlashtiradi. O'zbek xalqi Sharq sivilizatsiyasi bag'rida kamol topdi. Vatan va onaning muqaddasligi, jamoaviylik, o'zaro yordam, tabiatga oqilona munosabat, mehnatsevarlik, sabr-toqatlilik, kattalarga hurmat, kambag'alrarvarlik va boshqalar. Sharq sivilizatsiyasiga xos belgilardir. O'zbekiston jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ilm-fan, axloq, din, san'at va madaniyat sohasidagi ulkan yutuqlari bilan munosib hissa qo'shmoqda. Milliy mustaqillik yillarida O'zbekiston o'z milliu qadriyatlari, ma'naviu merosi va boy madaniyatiga tayanib, Sharq va G'arbning umumbashariy qadriyatlari va tajribalarini ijodiy o'zlashtirib, dunyoviy sivilizatsiya uo'lidan bormoqda. Bugungi tahlikali dunyoda insoniyatning eson-omon yashab qolishi va kelajakda baxtiyor bo'lishi jahon sivilizatsiyasining asosiy maqsadi va uo'nalishiga aylanib qoldi. Shu ma'noda, Yer yuzidagi har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasi deb ataladigan yaxlit tizimning turli tarkiblari bo'lib, ularning o'zaro ta'siri, hamkorligi sivilizatsiyaning takomillashuvi, barqaror yashashiga imkon beradi. To'g'ri, bu tizim tarkibida Amerika, Rossiya, Xitou, Yaponiya kabi salmoqli tarkiblar ham bor. Ular ko'r jihatdan jahon tizimi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi, muayyan jarayonlarning uo'nalishlarini belgilaydi. Ammo bu tizimda har bir davlatning, kichkina Vatikan yoki Lixtenshteyndan tortib Germaniyagacha, Andorra yoki Monakolan toki Fransiyagacha o'z o'rni, o'ziga xos ta'sir kuchi va doirasi bor. Shu ma'noda, ularning har biri, hududining katta-kichikligi, aholisining soni qanchaligidan qat'i nazar, Birlashgan Millatlar Tashkilotida teng ovozga ega. Demak, tarkiblar tizimda muayyan tarzda amal qilgani singari har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasiga teng huquqli a'zo va muhim element sifatida kirib borgan. Jahon hamjamiyati o'zida umumiylikni, har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o'ziga xoslikni ifodalaydi. Vu holda Osiyo yoki Markaziy Osiyo mamlakatlari xususiylikni aks ettirsa, O'zbekiston alohidalikni ifodalaydi.

8.3 Ipsopiat istiqboli va global muammolar

Mustaqillik yillarida inson tabiatini chuqurroq o'rganish va undagi salbiy mayllarni bartaraf etishga yordam beradigan falsafiy qarashlarga ehtiyoj vujudga keldi. Shuni ta'kidlash joizki, ayrim kishilar millat, Vatan, xalq manfaatlariga zid ravishda jamiyatdagi mavjud qonun-qoida va me'vorlarni poymol etib, ko'roq g'arazli maqsadlarini amalga oshirishga va turli ixtiloflarni keltirib chiqarishga harakat qiladi. Shunday niyatlar uo'lida hatto jinoiy guruhlariga birlashadilar, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan davlat dasturlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladilar. Shuningdek, ular milliu totuvlik, tinchlik va barqarorlikka raxna soladi, ma'naviu-axloqiy muhitni buzadi, kishilarning ijtimoiy adolatga bo'lgan ishonchini susaytiradi, barkamol insonni voyaga yetkazishga qarshilik ko'rsatadi. Ular turli ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi firibgarlar, hokimiyatga intiluvchi ekstremistlar, korrupsiya va jinoyatchilik olami vakillari, giyohvand, roraxo'r, terrorchi va shuhratparastlar kabi jamiyat uchun noxush odamlardir. Insonni falsafiy bilish va tahlil etishda ana shunday kishilar mavjudligini ye'tiborga olish muhimdir. Demokratik jamiyat inson huquqlarini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'uar ekan, bunday kishilarni tarbiyalashga, ularni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etishga, kishilar ongida milliu manfaat va ijtimoiy qadriyatlarni rivojlantirishga alohida ye'tibor beradi. Shaxs erkinligi va tarixiy zarurat bir-biri bilan uzviu bog'liq tushunchalardir. Mamlakatimizning taraqqiyot uo'lida paydo bo'lgan qiyinchilik va muammolar mohiyatini anglash shaxsni o'z bilimi va mahoratini oshirishga, yuksak g'oualarga sodiq bo'lib yashash va ularni jadal amalga oshirishga undaydi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida inson qobiliyatlari to'laroq namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonida kishilarning y va qashshoq guruhlariga ajralishi tabiiy qonuniy jarayondir. O'zbekistonda ilg'a oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati – aholining iyyan qismining ijtimoiy himoyalanishida, ko'r bolali oilalar, nafaqaxo'rlar, ibalar va nogironlarning davlat tomonidan himoyalanishida, ijtimoiy adolatning jaror topishida yaqqol namoyon bo'luarti. Kishilarning boqimandalik kayfiyati,

tafakkur turg'unligidan ozod bo'lishlari, o'zgargan yangi iqtisodiy sharoitga moslashishlari, o'z bilimi va mahoratini oshirishlari uchun g'amxo'rlik qilish iqtisodiy islohotlarning insonparvarlik uo'nalishga ega ekanligidan dalolat beradi. Bunday fazilatlar falsafa va boshqa ijtimoiy fanlarni o'rganish va umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida shakllanadi. Zamonaviy bilim va yuksak insoniy fazilatlarni egallash orqali O'zbekistonda ozod va obod jamiyat qurish vazifalari uug'unligini ta'minlashga erishish butun ta'lim-tarbiya ishimizning bosh mezonini va uning oldida turgan muhim vazifadir.

Takrorlash uchun savollar.

1. Jamiyat deganda nimani tushunasiz?
2. Jamiyatga xos belgilarni sanang.
3. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzusi deb qaraladi?
4. Istiqlolning insonparvarlik mohiyati nimalarda ko'rinadi?
5. Umumbashariy muammolarning vujudga kelish sabablari nimada?
6. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va uning sotsial oqibatlari nimalarda namoyon bo'lmoqda?

9-BOB. INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA)

9-§. Inson falsafasi (Falsafiu antropologiya).

Reja

1. inson tushunchasining manosi.
2. sharq olimlarining asarlarida inson mohiyati.
3. egzistensializm falsafasida inson tushunchasi.
4. inson hayotining mohiyati.

Insonni o'rganishga bag'ishlangan falsafa bo'limi antropologiya¹⁴ falsafasi deb ataladi. U inson bilan bog'liq ilmiy antropologiya yoki maxsus fanlar kompleksidan tubdan farq qiladi. Barcha fanlar insonning bir ma'lum tomonlarini o'rganadi. Masalan, psixologiya insonning ichki dunyosi, ongini o'rganadi. Tibbiyot kasallik sababalari va ularni davolashni o'rganadi. Nitrofiziologiya odam va hayvonning asab tizimi funksiyalarini o'rganadi. Shunday qilib, insonni o'rganishga bag'ishlangan jo'da ko'r va xar xil ilmiy fanlar mavjud bo'lib, ulardan farqli o'laroq falsafiy antropologiya falsafiy dunyoqarashlik ahamiyatiga ega bo'lgan holda insonning eng umumiy tomonlarini o'rganadi, u'ni, keng qamrovli antropologik muammolarni tadqiq qiladi. Ma'lumki, deyarlik barcha fanlar uzoq vaqt davomida insonning yashirin kuchlari yoki o'limidan keyingi hayot muammolarini o'rganish bilan jiddiy shug'ullangan emas edilar. Hozir kunda esa insonning bioijtimoiy mavjudod sifatida o'rganish masalalari bilan falsafa va tabiatshunoslik fanlari jiddiy shug'ullanmoqdalar. Demak, shuni yana bir bor ta'kidlash kerakki, antropologiyaga falsafiy yondashuv o'zining bir butunligi va tizimliliigi bilan maxsus ilmiy yondoshuvlardan farq qiladi.

¹⁴antropologiya (yunoncha *anthropos* "odam" - *logos* - "ta'limot") - odamning kelib chiqishi, odamzot irqilarining bo'lishi, odamning tana tuzilishidagi tabiiy farqtafovut, o'zgaruvchanlik haqidagi fan.

9.1. Insonning mohiyati muammosi. «Inson» so'zi eng ko'r tarqalgan kundalik va ilmiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Vu so'zing tagida qanday mazmun-mohiyat yashiringan? Ma'lumki, tirik mavjudotning ma'lum biologik turi bu «Homo Sapiens» – aqlli odamdir. Uning asosiy belgi va turlari qanday? U bo'ui o'rtacha – 160-180 sm bo'lgan, pastki ikki ouog'i bilan tik yuradigan, oziqlanish usuli aralash (hayvon va o'simlik ozuqlanish), ko'payish usuli – jinsiy, miyasi to'liq, yuqori qo'llari yaxshi haorakatlanadigan, o'rtacha umr uzunligi – 65-85 yosh (XX asrda), ichki organlari, nutqi va aqli rivojlangan mavjudoddur. Ammo bu belgilar, uning tabiiy va ijtimoiy tirikchiligi bilan bog'liq tashqi ko'rinishi bo'lib, lekin uning mohiyatini tushunish imkoniyatini bermaydi.

Mohiyat nima? Keng ma'noda – bu faqat shu hodisa va predmetga xos bo'lgan eng muhim xususiyatdir. Ular bir-birini to'ldirib, predmetning ichki asosini tashkil qilib, uning o'zgarishi, o'zaro ta'siri, rivojlanishi belgilab beradi. Mavjudlik nima? Vu hodisa va predmetning real borligi, real hayoti: u o'zini voqelikda qanday tutishi, namoyon qilishidir.

Faylasuflar mohiyat hamma vaqtda chuqur yashiringan, mavjudlik esa yuzaga joylashgan deb faraz qildilar. Ana shunda ularning qarama qarshiligina namoyon bo'ladi. Biroq real predmet mohiyat va mavjudlikning birligidan iborat. Mohiyatni tushunish mavjudlikni o'rganish, tushunishga yordam beradi.

Falsafa tarixida inson to'g'risida ko'r har xil qarashlar ifodalangan. Ulardan ba'zi bir eng ma'lum va xarakterlilarini umumlashtirilgan holda keltiramiz.

- Odam – koinotning qismi, kichik koinot (mikrokosm) – qadimgi hind, xitoy, yunon falsafasi.

- Odam – bu abadiy, mutloq ruh (Atman) – qadimgi hind falsafasi (yoga, vedanta).

- Odam – barcha narsaning o'lchovi – Qadimgi yunon sofistlari (Protagor va boshq).

- Odam – siyosiy hayvon – Aristotel.

- Odam – qiyofa va xudoga o'xshash – O'rta asr nasroniylik teologiya.

- Odam – fikrlovchi mavjudot – R. Dekart.
- Odam – jonlantirilgan mashina – J. Lametri.
- Odam – ikki dunyoga tegishli mavjudot. Tabiiy zaruriyat dunyosiga va axloqiy erkinlik dunyosiga – I. Kant.

- Odam – tartibsizlik, ziddiyatlar quyqish, aql va jahl urushi. – V. Paskal.
- Odam – aqlli hayvon – K. Linney.
- Odam – qurol ishlab chiqaradigan hayvon – V. Franklin.
- Odam – tanlovchi mavjudot – S. Krkegor.

Ma'lumki, odamga yuqorida berilgan ta'riflarning ko'r qismi tor va bir tomonlama bo'lib, odam mohiyati tomonlarining bittasini ko'rsatadi, xolos.

Umuman insonning mohiyatiga berilgan ta'riflarni to'rtta asosiy yondashuvga (boshqalari ham bor) ajratish mumkin.

9.2. Biologizatorlik yoki naturalistik yondashuv. Vu yondashuv tarafdorlarining fikricha, insonning mohiyati – bu uning tabiiy asosi bo'lmish biologik jismlar va insonning tirikligini ta'minlovchi har xil organlarning xususiyatlardan iboratdir. Bunda insonning mohiyatni belgilovchi ijtimoiy va ma'naviy jihatlar qarab chiqilmasdan, faqat biologik jihatlar asos qilib olinadi. Bunday qarashlarni hind falsafasi charvak maktabining, yangi dunyo Yevropa faylasuflari J. Lametri (mexanitsizm), T. Gobbe (mexanitsizm), L. Feyerbax va boshqalar izdoshlari yoqlab chiqdilar.

2. Teologik yondoshuv. Vu yerda insonning mohiyati «jon» masalasiga bog'lab tushuntiriladi. U biologik jism – tanaga qarama qarshi qo'yiladi va inson mohiyatning ijtimoiy jihat bu yerda odatdagiday qarab chiqilmaydi. Inson ruh (ilohiy asos), jon (ilohiy asosning aks ettirilishi, odamning «men»ligi, uning ongi), jismi (tabiiy asos) uyg'unligi sifatida tushuniladi.

3. Sotsiologizatorlik yondoshuv. Vu yerda inson mohiyati ijtimoiy munosabatlar yig'indisi sifatida qaraladi. Inson mohiyatning ma'naviy jhati ijtimoiy jihatga o'xshatiladi va insonning biologik tabiatiga bog'liq holda qo'yiladi. ijtimoiy munosabatlarga qo'shilgan aqlli biologik mavjudot sifatida

tushuniladi va inson mohiyatining shakllanishi, rivojlanishi butunlay ularga bog'liq bo'ladi, deb hisoblanadi. Vu nuqtayi nazar nemis faylasuf – materialisti K. Marks va uning ko'r sonni izdoshlariga tegishli.

Vu uchta yondoshuvda boshqalar zarariga, inson mohiyatining jihatlaridan biriga (biologik, ma'naviu yoki ijtimoiy) haddan tashqari ye'tibor qaratilganligini kuzatish mumkin. Shunday ekan, qayd qilingan yondashuvlar bir tomonlamadir.

Hozirgi kunda inson mohiyatining har xil jihatlarini birlashtiradigan, sotsiokosmik yondashuv eng qiziqarli bo'lib ko'rinmoqda.

4. Sotsiokosmik yondashuv. Vu yerda inson mohiyatining uchta jhati – ma'naviu, ijtimoiy, biologik tomonlari bor deb taxmin qilinadi. Ma'naviu yoki kosmik jihat insonning ma'naviu mohiyati bilan bog'liq. Ijtimoiy jihat madaniy ta'sir natijasida jamiyatda shakllangan inson shaxsiga bog'liq. Biologik yoki moddiy jihat insonning biologik jismi va tabiiy (tug'ma, sezgi) intilishlariga bog'liq.

Sotsiokosmik yondashuvga binoan, inson biologik jismlar, shuningdek quyi va oliy energetik jism (qobiq)lardan iborat. Oliy energetik jism inson mohiyatining ma'naviu-kosmik jihatlaridan tashkil topib, o'lmas va bir moddiy shakldan boshqasiga (reinkarnatsiya) ko'chib yuradi.

Shunday, masaan, Jonli Etika falsafiy ta'limotida odam jismi – qobig'ining quyidagi klassifikatsiyasi (tasnifi) foydalaniladi.

1	Oliy jism	Ruh – kosmik energiya
2	Olov jismi	Oliy aql
3	Ingichka jism	Quyi aql va sezgi asosi
4	Tig'iz jism	Biologik jism

Odamning oliy va olovli jismi uning kosmik individualligini tashkil qiladi. Ingichka va tig'iz jism dunyoviy shaxsning vaqtinchaligini ifodalaydi. Individuallik shaxs orqali izchil rivojlanadi, dunyoviy hayotdagi eng yaxshi ma'naviu yutuqlarni o'ziga singdiradi. Inson mohiyatini bunday tushunish ezoterik buddizm, teosofiya, tirik etika falsafiy tizimi uchun xosdir.

3. Antropogenez muammosi. Antropogenez¹⁵ – bu odamning kelib chiqishi va insonning keyingi rivojlanishi. Hozirgacha bu muammo fanda, falsafada va dinida ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. XIX va XX asrlarda ilmiy antropologiyasida odamning biologik evolyusiyasi hukmronlik qilib, uning qaror topishiga ingliz naturalisti Sh. Darvin katta hissa qo'shdi. Ammo bu nazariya o'zining ko'r kamchiliklariga ega. Masalan, hayot shaklining takomillashishi va murakkablashishida tasodifning roli, ongning rivojlanishida biologik omilning ko'paytirilishi va boshqalar hisobga olinmaganligi shular jumlasiga kiradi.

Hozirgi madaniy makonda mavjud bo'lgan odamzodning kelib chiqishi haqidagi har xil nazariyalarni uchta: teologik, biologik evolyusiya va kosmik evolyusiya konsepsiyalariga ajratish mumkin.

9.3. Antropogenezning teologik konsepsiyasi. Bu konsepsiya xudo tomonidan dunyo va odamning yaratilishi – *kreatsionizm* to'g'risidagi diniy ta'limotning bir qismidir. Xudo o'zining qudratiga binoan «o'ziga o'xshash» odamni yaratadi. Bu jarayon hech qanday evolyusiyani ko'zda tutmaydi. Injilda aytilishicha: odamning jismi, «uyer, tuproq»dan yasalgan bo'lib, xudo unga jon kiritgan. Shu tariqa, birinchi inson mavjudot erkak bo'lgan. Keyinroq xotin uning «qovurg'a»sidan yaratilgan. Boshda ular jannat bog'larida yashagan. «Yaxshi va yomonni bilish» deb nomlangan, ma'lum bir aybi uchun Xudo ularni yerdagi tabiiy hayotga tushirgan, odam urug'i shunday boshlangan degan fikrga asoslanadi.

Teologik konsepsiyada bunday olganda odamning kelib chiqish jarayonini konkret tushuntirish uo'q. uning yaratilishi to'g'risidagi «fakt»larni qayd qilish bor. Bu konsepsiyaning foydasi xizmat qiluvchi jiddiy dalil asoslar ham noma'lum. Shuning uchun ham u ilmiy materializm tarafdorlari tomonidan, boshqa falsafiy ta'limot izdoshlari tomonidan ham qattiq tanqid qilinadi. Masalan, teosoflar odamning kelib chiqishini injilga tushuntirishni rad qilmaydi, lekin nasroniy erkovlaridek uni tom ma'noda qabul qilish mumkin emasligini tasdiqlaydilar. Ular bilan to'ldirilgan injil va boshqa muqaddas kitoblarni ekzoterik,

germinevtik kalitlarni egallamasdan turib, ularni tushunish mumkin emas. Ularning ba'zilar hind maxatigarining falsafiy ishlarida, Yelena Blavatskaya, Franchina La Dyu va Yelena Rerix ishlarida ham ochildi.

2. Insoning biologik evolyusiyasi konsepsiyasi. Vu tirik tabiat evolyusion rivojlanishi to'g'risidagi – darvinizm nazariyasining oqibati hisoblanadi. . Vu konsepsiya tarafdorlari hozir mavjud bo'lmagan, ibtidoiy davrda yashagan odamsimon maymundan kelib chiqqan deb faraz qiladilar. Odam va hayvonot dunyosining rivojlanishi, takomillashish – tomonga asta sekin o'zgarish jarayoni – evolyusiya demakdir. Biologik evolyusiya jarayonida quyidagi omillar-genetik irsiyat, genetik o'zgaruvchanlik va tabiiy tanlash hal qiluvchi rol o'ynaydi. Vu omillar mifologik va antropoid maymun, boshqa o'zgarish, jarayonlarni ijobiy oqim tomon uo'naltirdilar, oxir oqibatda yangi sifatning paydo bo'lishiga olib keldi. To'g'ri yurishga, barmoqlarning o'zgarishiga, nutqning rivojlanishiga, bosh suyagi va miyaning kattalashishiga, aqlning paydo bo'lishi va hokazo.

XX asr boshlarida Darwin nazariyasi genetika va boshqa fanlar ma'lumotlari bilan to'ldirilib, evolyusiyaning sintetik nazariyasi (STE) paydo bo'ldi. Kreatsionizm va teosofiya tarafdorlari darvinchilarni evolyusiyaning ma'naviu omillariga ye'tibor bermaslikda va tasodifiy biologik o'zgarishlarga olib kelishdi tanqid qiladilar. Shu bilan birga teosofiya va Jonli Etika evolyusiyaning rad qilmaydi, nafaqat biologik jihat va kosmik jihatlarni qarab chiqishga chaqiradi.

10.3. Aksiologiya nomi bilan sobiq ittifoqda birorta ham darslik yoki o'quv qollanma chop etilmagan, hatto universitetlarning faylasuf, jamiyatshunos, tarixchi kabi mutaxassislar tayyorlaydigan ijtimoiy bolimlarida ham bu sohaga oid maxsus bilimlar berilmas edi. «Qadr» va «qadriyat» tushunchalari, qadrsizlanish muammosi. Qadriyatlar to'g'risida G'arbda keng tarqalgan «Aksiologiya» (aksio – qadriyat, logos – fan, ta'limot) fani rivojlangan mamlakatlarda inson qadri va haq-huquqlariga doir ko'pgina tamoyillarning amaliyoti uchun nazariy asoslardan biri bolgan ilmiu sohalar qatoriga kiradi. Vu borada «Qadr» tushunchasiga katta ahamiyat qaratish lozim. U muayyan qadriyatning, ua'ni biron-bir narsa, voqea, hodisa yoki biror idealning inson va jamiyat uchun qadri va ijtimoiy ahamiyatini anglatadigan tushunchadir. «Qadr» tushunchasi o'zbek tilida serqirra ma'no va mazmunga ega, u tilimizdagi ba'zi ibora va so'zlarda o'ziga xos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi. Ana shu sababdan ham o'zbek tilida qadriyatning mazmunini bilib olish va uning ahamiyatini anglash, avvalo, qadarning ma'nosini bilish orqali boradi. Insonning insonga ibrati, tarbiyadagi ta'sirini uning o'zi baholay olmaydi, balki boshqa inson baholaydi. Demak, qadriyat sifatidagi inson ta'sirida uning qadri va ahamiyati namoyon boladi, boshqa kishi esa ana shu bevosita ta'sir natijasida uning ahamiyatini baholaydi, qadriga baho beradi. Qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan ilmiu-falsafiy manbalarning ko'pchiligida qadriyatni «baho» tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va kolamdagi tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Ayni paytda qadriyatlar jamiyat rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruratga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy

taraqqiyotning eng oldingi rog'onasiga chiqadi, boshqalari xiralashgandek tuyuladi. Masalan, yurtni uov bosganda – ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida – istiqloq, urush davrida – tinchlik, tutqunlikda – erkinlik, xastalik va bemorlik paytlarida – sihat-salomatlikning qadri ortadi, ularga intilish kuchayadi. Qadriyatlarning asosiy shakllarini aniqlash borasida olimlar orasida bir xil va hamma ye'tirof etgan yagona nuqtayi nazar uo'q. Ularni moddiy va ma'naviy, umumbashariy va umuminsoniy turlarga bolish mumkin. Vu shakllar ham ularga mos ravishda tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar o'zaro uyg'unlikda, qonuniy boglanishda, umumiu aloqadorlikda namoyon boladi. Bunday hollardagi tahlil jarayonida ilmiu bilishning tizimlilik usuli, alohidalik, xususiylik va umumiylik, butun va bolak kategoriyalarining dialektikasiga asoslanish qol keladi. Qadsizlanish – muayyan qadriyat yoki qadriyatlar tizimining o'z qadrini uo'qotishi yoki pasaytirishi jarayonini, insonning o'z obro'-ye'tiborini, mavqeini uo'qotishi, nazardan qolishi ma'nosini anglatuvchi tushunchadir. Jamiyat taraqqiyotida sodir boladigan umumiu qadsizlanish birdaniga, bir kunda yoki to'satdan emas, balki tadrijiy ro'u beradigan jarayondir. Insoniyat tarixida qadriyatlar tizimi qadsizlanib ketgan davlatlar va imperiyalarning tanazzulga yuz tutgani, uo'q bolib ketgani ma'lum. Masalan, sobiq ittifoq hayotining oxirida, 80-yillarning oxirlarida ilgari zo'rlik bilan ushlab turilgan qadriyatlar tizimining butunlay qadsizlanishi yaqqol ko'rinib qolgan edi. Oxir-oqibat, bu tuzum tanazzulga yuz tutdi va halokatga uchradi. Qadsizlanish jarayoniga sabab boladigan ko'plab omillai mavjud. Muayyan qadriyat yoki bir necha qadriyat shakllarining haddan ortiq bo'rttirib yuborilishi, mutlaqlashtirilishi yoki siyqalashtirilishi, ularga noto'g'ri munosabatning muttasil siyosat usuliga aylantirilishi bunga sabab bolishi mumkin. Bunday holda qadriyatlar o'z mazmun-rohiyatini, odamlarning hayoti va faoliyati uchun umumiu mezon, ularning itiladigan ideal yoki ularni muayyan maqsadlar sari birlashtiruvchi va safarbar iluvchi mezon sifatidagi ahamiyatini uo'qotadi. Qadsizlanish muayyan qadriyat, milliu manfaatlar, davlat siyosatiga ishonchsizlik, odamlarning «nimalar»dandir hafsalasi «pir» bolishi, ko'pchilikning ko'ngli «qolishi» tarzida ham namoyon bolishi mumkin. Nar bir shaxs uchun jamiyatda o'z atrofidagilar o'rtasida o'z

qadrini uo'qotish odamiylikni uo'qotish bilan barobar boladi. Shuning uchun har bir shaxs qadsizlanish so'zi anglatadigan ma'nodagi xususiyat o'zida shakllanib qolmasligiga intilishi zarur boladi. Qadsizlanish faqat shaxslar o'rtasidagina bolib qolmasdan, balki boshqa sohalarda ham ro'u berishi mumkin. Masalan, qimmatli qog'ozlar, pullar, ashyolar ham qadsizlanishi mumkin. Bunday holatni dunyo davlatlarida ishlatiladigan mablaglar va qimmatli qog'ozlar misolida ko'rish mumkin. Va'zan qadsizlanish oqibatida ma'lum bir mamlakatlarda pullar va qimmatli qog'ozlarni isloh qilishga zarurat seziladi. Qadsizlanish iqtisodning barcha sohalarini qamrab olishi, muayyan davlat yoki butun jahon inqirozi tarzida ro'u berishi mumkin. Bunday hoi iqtisodiy 166 bo'hronga olib keladi va butun dunyoda umumiu muammolarni keltirib chiqarishi shubhasiz.

10.4. Mustaqillik va qadriyatlar tizimi o'zgarishi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Istiqlol asrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me'uorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi. Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlar tizimi hech qachon to'kis bolmaydi. Mustamlaka mamlakatning ma'naviu hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bolishi aniq. Faqat mustaqillikkina ushbu holatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismiga aylantiradi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo qildi. Vu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bolgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga ye'tibor va bu boradagi yangi tamoyillardan ta'lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi ham ana shunda. O'zbekistonning milliu istiqloliga asoslanadigan yangi qadriyatlar tizimi shakllanish jarayonlari ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviu sohalardagi o'zgarishlar, respublikamizda qadriyatlar omili samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatning asosiy uo'nalishlari ham

ilmiy o'rganishni talab qiladi. Ushbu masalani oydinlashtirish uchun tarixga murojaat qilish, undan tashbehlar izlash mumkin. Holbuki dunyodagi eng qadimiy sivilizatsiyalardan biriga mansub bolgan, o'z ildizlari bilan asrlar qa'riga borib taqaladigan va uch ming yildan ko'proq davrni qamrab oladigan xalqimiz tarixi, mustaqil O'zbekistonda shakllanayotgan yangi qadriyat tizimi va unga munosabatimizning tamal toshlarini qo'yadigan ma'naviy asosdir. Mustaqil O'zbekistonning rivoji qanchalik yuqori ro'g'onalariga ko'tarilib boraverar ekan, tarix sahifalariga murojaat qilish, undan tashbehlar izlash ehtiyoji shunchalik ortib boraveradi. Ammo hayot faqat tarixdan iborat emas. Tarix naqadar serqirra va serma'no bolmasin, bugungi va kelajakdagi o'zgarishlarni tolato'kis qamrab ololmaydi, balki kelajakda tarixga aylanadigan jarayonlarga asos boladi, xolos. Ijtimoiy taraqqiyot esa tarix silsilalari, turli qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar orasidan o'ziga uo'l ochib boradi. Uning zamondagi bunday ilgari lanma harakati jamiyat taraqqiyotini umumijtimoiy qonuniyatidir. Vu qonuniyat qadriyat tizimlari, ularni tarkibiy qismlaridagi o'zgarishlar dialektikasi uchun ham umumiydir. Qadriyat tizimlarining zamona zayllari ta'sirida o'zgarishi va davr realliklariga mos holatga kelishi ham ana shu jarayonga bo'ysunadi. Vu jarayonda o'zgarishlar voqea va hodisalarni zamondagi ketma-ketligi tarzida ro'u beradi. Dialektik tafakkur esa ana shu davomiylikning in'ikosi, uni anglab olish vositasi sifatida namoyon boladi. U qadriyatlarni o'zgarishi va yangi qadriyat tizimlari vujudga kelishi jarayonini anglab olish imkonini beradi. Hozirgi davrdagi turli nomutanosibliklar, zamona silsilalari va muammolari orqali shakllanayotgan yangi qadriyatlar tizimi vujudga kelish jarayonini tasavvur qilmoq u uchun ham dialektik tafakkur va ilmiy bilish usuliga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Jamiyatning tub burilish bosqichlarida yangi qadriyatlar tizimi, kishilarni ularga munosabati o'zgarishi shunchalik shiddatli tus oladi, bu jarayonning tezkor sur'atlarini anglash, izohlash va asoslashga eng muvaffaqiyatli usul tafakkur usuli ham ulgura olmay qoladi. Biz tadqiqotlarimiz davomida bu jarayonni to'g'riligiga ishonch hosil qildik. Vu davrda sobiq ittifoq tizimi bilan bogliq jarayonlar o'tmishga aylandi. Xullas, O'zbekistonni mustaqil rivojlanish yoliga o'tganligi va yangi qadriyatlar tizimi shakllanishi va barqarorligini ta'minladigan asosiy omildir.

Mustaqillik tufayli dunyoga eshik ochish, jahon maydoniga, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga sobitqadamlik bilan kirib borish, o'zaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy, savdo va boshqa sohalarda qizg'in hamkorlikni yolga qo'yish, O'zbekistonni, uning boy o'tmishini, madaniyatini, hozirgi kunini va bu yerda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayonini dunyoga tanitish imkoniyatlari ochildi. 168 Bugungi kunda zaminimizda yashayotgan va bizga zotnondosh bolgan kishilar hayotida yangi davr boshlandi. Ya'ni mustaqil O'zbekistonimizning milliy istiqloliga asoslangan yangi qadriyatlar tizimini barqaror qilish, bu tizimda qadriyat shakllarining dialektik uyg'unligiga erishish, inson qadri, qobiliyati, iste'dodini namoyon qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish borasidagi dolzarb vazifalar hozirgi avlod umrining mazmuniga aylandi. Mazkur sohada zimmamizdagi vazifalarni bajarishda ma'naviyat-ma'rifiyat vositalari hamda targ'ibotning ta'sirchan usullarini qollash, faoliyatimizning ustuvor yo'nalishi bolib qolmoqda. Vay esa har birimizni ushbu yo'nalishda faol va omilkor bolishga undaydi hamda barchamizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Qadriyat tushunchasining ma'nosi nima.
2. Milliy qadriyatlar.
3. Sog'lom turmush tarzi tushunchasi.
4. Oilada qadriyat tushunchasi.

11-BOB AXLOQ FALSAFASI (ETIKA)

11-§. Axloq falsafasi (Etika).

Reja:

1. «Etika» fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi.
2. Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining ahloqiy ahamiyati.
3. Axloqning paydo bo'lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar.
4. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.

Tayanch tushunchalar: *Axloqshunoslik, Etika, Axloq, Xulq, Odob, Falsafa, Milliy g'oya, Gedonizm, Evdemonizm, Noosfera, Etosfera, Biosfera.*

Bizda «Ilmi ravish», «Ilmi axloq», » Axloq ilmi», «Odobnoma» singari nom bilan atab kelingan. Ovro'poda esa «Etika» nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik. Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu muomalaga kiritgan, Arastu fanlarni tasnif qilarkan, ularni uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy. Birinchi guruhga u falsafa, matematika va fizikani; ikkinchi guruhga – etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa -san'at, urmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq idagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va «Etika» (ta yethika) deb ataganlar.

Hozirgi kunda bu fanni ilmiy va zamonaviy talablar nuqtayi nazaridan «Axloqshunoslik» deb atashni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

11.1. Axloqshunoslik axloqning kelib chiqishi va mohiyatini, kishining jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi. «Axloq» so'zi arabchadan olingan

bulib bu «xulq;» so'zining ko'plik shaklidir. «Axloq» iborasi ikki xil ma'noga ega: umumiu tushuncha sifatida fanning tadqiqot ob'yektini anglatga, muayyan tushuncha sifatida inson fe'l-atvori va xatti-harakatining eng qamrovli qismini bildiradi. Axloqni umumiu tushuncha sifatida olib, uni doira shaklida aks ettiradigan bo'lsak doiraning eng kichik qismini odob, undan kattaroq qismini xulq eng kamqamrovli qismini axloq egallaydi.

Odob – inson haqida yoqimli taassurot o'ygotadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida u qadar muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliu urf-odatlariga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.

Xulq – oila, jamoa, mahalla-kuu miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.

Axloq esa – jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisidir.

Albatta, har uchala axloqiy hodisa va ularning ziddi nisbiylikka ega. Chunonchi, hozirgina misol keltirganimiz prokurorning axloqsizligi darajasi bilan o'z yakka hukmronligi uo'lida millionlab begunoh insonlarni o'linga mahkum etgan Lenin, Stalin, Xitler, Rol Rot singari shaxslar orasida farq bor: agar prokurorning axloqsizligi bir millat yoki mamlakat uchun zarar qilsa, totalitar tuzum hukmdorlari xatti-harakatlari umumbashariy miqyosdagi fojialarga olib keladi.

Etika faning predmeti, mohiyati uning asosiy belgilari va tuzilmasi

Etika uoxid axloqshunoslik yepg qadimgi fanlardan biri. Uning tarixi bir necha ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Axloq (arab. xulqning ko'rliqi; lot. moralis – hulq-atvor)-ijtimoiy opg shakllaridan biri. Axloq-kishilarning tarixan tarkib topgan xulq -atvori, yurish turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgap munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, tiannap norma va qoidalar uig'ipdisi. Axloq – butun boshliq jamiyat a'zolari, millat, xulq, shaxs atal qiladigan ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, ushbu tartib-qoidalar yordamida inson xatti-harakati tartibga solinadi, ua'pi boshqariladi

Axloq –ijtimoiy borliqning ta'sirshan omillaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviu madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiy fan-o'rganadi. .

Axloq –ijtimoiy borliqning ta'sirshan omillaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviu madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiy fan-o'rganadi. .

«Etika –burch haqidagi fandir» degan fikr haqiqatga yaqindir. Chunki, burch – axloqning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u shaxsning jamiyatga bo'lgan munosabatidir. «Burch shaxsning axloqiy faolyatinig ifodalovchi ma'suliat, onglilik vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir» Zero, fikrlar xilma-xilligi umuminsoniy – axloqiy qadriyatlarni ma'naviu idial tarkib vositasida jamiyatga singdiradi.

Odob –(arab. adab so'zining ko'rligi)-xulq –atvor, jamiyatda ye'tirof etilgan xulq me'uori shaxs ma'naviu hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va u bilan munosabatda namoyon bo'ladi. Odob asosida axloqiy tamoyillar, me'uorlar , tarbiyalanganliklar darajasi va estetik ideal talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yusinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etish, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga mansub qoidalar.

Misol uchun, faylasuf olim V. Semyonovning fikricha, bugungi jamiyatning axloqiy muhitini talab darajasida saqlab qolish etika fani zimmasiga tushadi va unda etika insonni quyidagi olti jihatdan o'stirish hamda rivojlantirishga diqqat shi lozim:

Insonni hayotiy maqsadga o'rgatish.

Insonni ma'naviu-axloqiy o'stirish.

Insonda ijodkorlikni rivojlantirish.

Insonni jismoniy va ma'naviu jihatdan uug'un rivojlantirish.

Insonni erkinlikka o'rgatish.

Insonni maqsadli tarbiyalash.

11.2. Axloqshunoslik fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Etika (Axloqshunoslik) va Estetika bu ikkala fan shu qadar bir-biriga yaqinki, hatto ba'zi davrlarda ular yetarli darajada o'zaro chegaralanmagan. Chunki, insonning hatti-harakati va niyati ko'rinsha ham axloqiylikka, ham nafosatga tegishli bo'ladi, ua'ni muayyan ijobiy faoliyat ham ezigulik, ham nafosat xususiyatlarini o'zida birvarakay mujassam qiladi

Etika (Axloqshunoslik) va Huquqshunoslik. Qadimgi Rim huquqshunoslaridan biri Ulpianning ta'kidlashisha «huquqni o'rganuvshi, avvalo huquq (ins) so'zining kelib chiqishini yaxshi bilmog'i kerak». «Huquq» odil sudlov (institia) so'zidan olingan bo'lib adolat va yaxshilik haqidagi fandir.

Axloqshunoslik pedagogika fani bilan chambarchas aloqada. Pedagogikadagi shaxsni shakllantirish, tarbiyalash, ta'lim berish jarayonlarini, pand-nasihatlarsiz, odobnoma darsliklarisiz tasavvur qilib bo'lmaidi.

Axloqshunoslik bilan dinshunoslik o'zaro aloqadorlikda bo'lib, har ikkalasi ham axloqiy mezon muammosini hal etishga qaratiladi. Din ham ijtimoy ong shakllaridan biri bo'lib, umumjahoniy dinlar vujudga kelgunga qadar mavjud bo'lgan urf-odatlar va qadriyatlar, muayyan diniy qonun-qoidalarga, muqaddas diniy kitoblarga katta ta'sirini o'tkazgan

Qadimgi davrdanoq axloqshunoslik ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqada bo'lib kelgan. Vu ikki fan ham kishilar hatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Ruhshunoslik u yoki bu hatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv) larning ruhiu tabiati, shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan Hadislarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi.

Qadimgi davrdanoq axloqshunoslik ruhshunoslik (psixologiya) bilan aloqada bo'lib kelgan. Vu ikki fan ham kishilar hatti-harakati, fe'l-atvori va mayl-istaklarini o'rganadi. Ruhshunoslik u yoki bu hatti-harakat, fe'l-atvor, sababiy asos (motiv) larning ruhiu tabiati, shakllanish shart-sharoitlarini ochib beradi, axloqshunoslik esa ruhshunoslik tadqiq etgan Hadislarning axloqiy ahamiyatini tushuntiradi

Axloqshunoslik sotsiologiya fani bilan aloqada bo'lib, bu ikkala fan ham inson faoliyatini boshqarishning ijtimoiy tomoni – axloqni o'rganadi. Lekin, axloqshunoslik sotsiologiyaga nisbatan keng tushunchadir.

Axloqshunoslik siyosatshunoslik fani bilan chambarchas bog'liqdir. Siyosat, davlat ishlari faoliyati bilan shug'ullanar ekan, davlat ishlaridagi har bir jarayonda axloq, odob, hulq ye'tiborga olinadi. Davlatda ichki va tashqi siyosat namoyon bo'ladi

Axloqshunoslik ekologiya fani bilan ham aloqadorlikda. Axloqshunoslik ko'rraq insonning o'zi, o'zgalar va jamiyat oldidagi majburiyatlarini hal etish bilan shug'ullangan, uning tabiatga bo'lgan munosabatini chetda qoldirib kelgan

Axloqshunoslik milliy istiqlol g'ouasi bilan ham o'zaro aloqadorlikda bo'lib, uning ildizi qadimgi tarixga borib taqaladi. Milliy mafkura tizimida axloqiy g'oualar albatta o'z o'miga ega bo'ladi, axloqiy g'oualar zamirida milliu mafkura g'oualari yotadi

Milliy mustaqillikni mustahkamlash jarayonida axloqshunoslikning jamiyat ijtimoiy-ta'naviy hayotidagi o'rni va ahamiyati.

Davlatimiz madaniy –ma'naviu mustaqilligini ta'minlashda sharqona odob, axloq, milliu qadriyatlar, urf – odat va an'analarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti jumhuriyatimizga xorijiy mamlakatlarning sarmoyasi, yangi texnologiyasi, zamonaviy boshqaruv usullari bilan bir qatorda ularning madaniyati, turmush tarsi, dunyo qarashi kabilarni ham olib kelmoqda.

Davlatimiz madaniy –ma'naviu mustaqilligini ta'minlashda sharqona odob, axloq, milliu qadriyatlar, urf – odat va an'analarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda itta ahamiyat kasb etadi. Bozor iqtisodiyoti jumhuriyatimizga xorijiy mamlakatlarning sarmoyasi, yangi texnologiyasi, zamonaviy boshqaruv usullari an bir qatorda ularning madaniyati, turmush tarsi, dunyo qarashi kabilarni ham lib kelmoqda.

Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham o'zgarishlarga ehtiyoj sezib boradi. Shu manoda shaxs «jamiyat ehtiyojlariga ko'ra axloqiy jihatdan

saqlanib borsa, u ijtimoiylashadi». Hozirgi rivojlanish bosqichida jamiyatimizning manaviy – axloqiy muhitini ba'zi kuchlar tomonidan buzishga intilishlar borligi sir emas.

Kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongi, ruhiyati va kayfiyatini milliu istiqloq g'ouasi bilan ta'minlash, yoshlarning axloqiy darajasini yuksaltirish va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek o'lgan vazifalar turibdi. Vu vazifalarni faqat axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirish mumkin.

Yangicha yondashuvlarning biri – axloqshunoslikda milliu g'oua va mustaqillik mafkurasiga ye'tiborni kuchaytirish bilan bog'liqdir.

«Milliy g'oua va istiqloq mafkurasida haqida gap borar ekan, - deb ta'kidlagan edilar birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov, - biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodali, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan, tushunchalarni o'zimizda tasavvur qilishimiz kerak deb o'ulauman. Vu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oualarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi».

11.3. *Gedonizm va evdemonizm tushunchalarining ahloqiy ahamiyati.*

Axloqshunoslik ua'ni etika sohasidagi ilmiu-falsafiy bilimlar rivoji ancha ilgari davrlarga taqalib bu paytda bir qancha axloq sohasi bilan bog'liq bo'lgan uo'nalishlar ham shakllangan. Jumladan:

Gedonizm – (grekcha, hedone – huzur-halovat) – axloqshunoslik nazariyasidagi axloqiy talablarni asoslash prinsipi bo'lib, bu prinsipga ko'ra huzur-halovat keltiruvchi va azob-uqubattan qutqazuvchi narsa yaxshilik deb ta'rif qilinadi. Insondagi unga tabiat tomonidan jo qilingan va uning ish amalini belgilaydigan bosh harakatlantiruvchi ibtido huzur halovatdan iborat, degan tasavvur gedonizmning asosini tashkil etadi. Huzur-halovatga erishish maqsadi birdan-bir ishtiyoq va shu bilan birga axloqiy talab deb ye'lon qilinadi. Gedonizm axloq-odob prinsipi sifatida kishilarga dunyoning shod-xurramligiga, o'zlari uchun va boshqalar uchun maksimal rohat-farog'at olishga intilishni buyuradi.

Gretsiyada Aristipp axloqshunoslikning muxlislari bo'lgan va huzur-halovatni oiliy saodat deb hisoblagan kishilar gedoniklar deb atalgan. Hozirgi zamon burjua nazariyalarida gedonizm odatda faqat metodologik prinsip yaxshilikni ta'riflash usuli sifatidagina mavjuddir. Bugungi kunda axloqshunoslik olimlarining ko'pchiligi yaxshilikni huzur-halovat orqali ta'riflashni axloq muammolarini qo'rol sayqallashtirish va vulgarlashtirish deb hisoblamoqdalar.

Evdemonizm – (yunoncha, eudomania – rohat-farog'at, baxt-saodat) – axloqshunoslikning gedonizmga yaqin metodologik prinsipi, avdemonizm antic dunyo axloqiy nazariyalaridayoq eng to'liq ravishda namoyon bo'lgan edi. (Demokrit, Suqrot, Arastu). Baxtga intilishni evdemonizm axloq-odobning mezoni va inson axloqiy xatti-harakatining asosi deb hisoblaydi, shaxsiy baxtga intilish – individualistik evdemonizm, ijtimoiy baxtga intilish – sotsial evdemonizm deyiladi. XVIII asrdagi fransuz materialistlari (Galvetsiy, Didro) ham evdemonizm tarafdori edilar, ular inson baxti – har qanday jamiyatning va har qanday foydali inson faoliyatining tub maqsadidir, deb ye'lon qilgan edilar. Evdemonistik axloqshunoslik o'z aktivligi va insonparvarligi bilan xristianlik axloqshunosligidan beqiyos yuqori turadi, shunki u oxiratda emas, balki yerda baxtga erishishga da'vat etadi. Biroq evdemonizm baxt tushunchasiga qandaydir umuminsoniy, g'ayri tarixiy ma'no beradi, vaholanki ontogonistik sinflarga bo'lingan jamiyatda insonning vazifasi haqida yagona bir tasavvur bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Vaxt ham o'sha ijtimoiy sharoitga bog'liqdir. Binobarin, axloq-odobni evdemonistik asoslash ilmiu emasdir.

Asketizm – (yunoncha askeo – mashq qilayotibman) – zohidlik – dunyoning huzur-halovatidan o'zini haddan tashqari tiyish yoki diniy kamolotga erishish uchun oz-ne'matlardan nihoyat darajada voz kechis qoidasi bilan tavsiflanuvchi boyildir. Dastlabki vaqtlarda, qadimgi Yunonistonda asketizm ezgulik vazilatini ta'riflash deb atalgan. Asketizm qadimgi Sharq diniy ta'limotlarida keyin esa qat'iy ta'limotida nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ilk xristianlikda umrini halovatdan va riyozatdan, ro'za tutib va namoz o'qib saqlagan inson zohid deb atalgan. Reformatsiya davrida asketizmning ilk xristianlik va o'rta asrchilik ideali

o'zgardi. Protestantizm «dunyoviy asketizm» talabini ilgari surdi. Ilk dehon va proletar harakatlari asketizmga da'vat qilgan edilar. Vu, hukmron zeb-ziynat ichida va bekorchilik bilan yashashiga qarshi norozilik formasi edi. Keyinchalik axloqshunoslik ilmida asketizmni aqlga to'g'ri kelmaydigan va oqlab bo'lmaydigan fidoiylilik deb, axloqiy kamolot haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning natijasi deb qaraldi.

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, yuqorida nomlari sanab o'tilgan axloqiy oqimlar bugungi kun axloqiy talablariga qanchalik darajada javob bera olishi yoki olmasligidan qat'iu nazar o'z davri jamiyati uchun nihoyatda muhim bo'lgan axloqiy qarashlar edi.

11.4. Axloqning paydo bo'lishi haqidagi diniy, empirik va genetik konsepsiyalar.

Qadimiy ona sayyoramizdagi hayot odatda uch olamdan iborat deb qabul qilingan. Bular — nabotot, hayvonot va bashariyat olami; ularning o'zaro munosabatlari zaminimizdagi hayotning asosiy omili hisoblanadi. Nar uchalasiga ham paydo bo'lish, rivojlanish, o'zini muhofaza qilish, nasi qoldirishga intilish instinkti berilgan va hayotining bir kunmas-bir kun o'lim bilan nihoya topish qismati belgilangan. Chunonchi, o'simlik urug'dan paydo bo'ladi, rivojlanadi, singan shoxlari o'simlikni sirach chiqarib davolaydi — muhofaza qiladi, urug'ini qoldirib, bir kun quriydi. Hayvon shu xususiyatlar bilan birgalikda sezish a'zolari va qobiliyatiga hamda muayyan darajada idrok etish xislatiga ega. Insonda esabulardan tashqari mulohaza qilish, fikrlash qobiliyati va uyat hissi, bir so'z bilan aytganda, aql bor. Uni Imom G'azzoliy oltinchi sezgi yoki ikkinchi yurak, yurak ichidagi yurak deb ataydi. Ana shu aql ixtiyor erkinligini, ixtiyor erkinligi esa axloqni taqozo etadi. Vu fikrni yoyibroq tushuntirish uchun insonning paydo bo'lishi tarixiga nazar tashlamoq joiz. Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning paydo bo'lishi eng bahsli muammolardan biri hisoblanadi. Vu borada bir-biriga qarama-qarshi ikki qarash mavjud. Biri — diniy, ikkinchisi — dahriycha qarash. Diniy ye'tiqodiy nuqtayi nazardan odamni Xudo yaratgan. Dahriycha qarash esa buni inkor etib, odamni

tabiat yaratgan, u tabiatning bir qismi, degan g'ouani ilgari suradi. Ular orasida ingliz tabiiyotshunosi Charlz Darvin (1809-1882) fikrlari alohida ye 'tiborga molik.

Darvin tabiiy turlarning tanlov uo'li bilan kelib chiqishi haqidagi evolutsion ta'limotni yaratdi. U odam bilan odamsimon maymunlarning qardoshligini isbotlashga urindi, biroq u to 'g'ridan to 'g'ri odam maymundan tarqalgan jonzot, degan fikmi aytgan emas. Shuningdek, Darvin dahriy bo'Mmagan, hamma qatori nasroniylik qonun-qoidalariga amal qilib yashagan. Buning ustiga uning o'zi Kembrij universiteti qoshidagi Iso kollejini tugatgan. Darvin taijimai holi asosida roman yozgan ingliz yozuvchisi Irving Stoun uning Xudoni inkor etmaganini bir necha o'rinda ta'kidlaudi. Mana shulardan biri: «Mening nazariyam Xudoning borligini inkor etmaydi. Tabiat Uning qonunlariga bo'ysunadi xolos»¹. Marks o'zining dahriycha qarashlarini isbotlash uchun undan material so'rab xat yozganida, Darvin unga rad javobini beradi². Shunga qaramay markschilar, Darvinning mohiyatini tushunmaganlari holda, uning nomini bayroq qilib, ta'limotini o'z foydalariga soxtalashtirishga tinimsiz harakat qildilar. Dahriycha qarashni Darvin nomi bilan bog'lab ish ko'rish yaqin-yaqingacha «sotsialistik lager» hududiga kirgan mamlakatlarda rasmiy, davlat yondashuvi sifatida hukm surib keldi. Totalitar tuzumga asoslangan bu davlatlar tanazzulga uchragach, yana insonni Xudo yaratgan degan fikr ularda yetakchilik mavqeyini egalladi.

To'g'ri, bu o'rinda Darvinning evolutsiya nazariyasi va Xudoning olamni olti kunda yaratgani haqidagi diniy aqida bir-biri bilan qanday sig'ishadi, degan savol tug'iladi. Gap shundaki, makon va zamonda ro'u bergan, milliardlab yil davom etgan evolutsiya: nabotot – hayvonot – odamzod doirasi makon va zamondan tashqaridagi fazoviy, Ilohiy Vaqt nuqtayi nazaridan juda qisqa muddatda voqe bo'lishi mumkin. Xudoning olti kuni o'z ichiga makon va zamonni sig'dirgan 'aq Vaqtga, evolutsiya nazariyasiga asos qilib olingan milliardlab yillar esa – 1 va zamon ichidagi nisbiy, insoniy vaqtga taalluqlidir.

Imuman olganda, insoniyatning intellektual tarixida, hatto nisbatan dahriylik o'lmish XX asrda ham, insonni Xudo yaratgan, degan fikr kamida to'qson ni tashkil etadi.

XX asr buyuk olmon faylasufi Karl Yaspers, odamni boshqa jonzotdan keltir chiqarishning nojoizligi haqida gapirib, inson transtendental bog'liqlikka ega, uning imkoniyatlarini, erkini hech bir jonzotniki bilan qiyoslab bo'lmaydi, inson hatto imkoniyatlari naqadar cheksiz ekanini o'zi ham bilmaydi, deb uni ulug'laganida, bizningcha, tamomila haq edi. Agar diqqat qilsak, mutafakkirning fikri Qur'or karim «Baqara» surasida marhamat qilingan quyidagi oyatlarga hamohangdir: «30. Eslang (Yeu Muhammad), Parvardigoringiz farishtalarga: «Men Yerda (Odamni xalifa (yordamchi) qilmoqchiman», deganida, ular aytdilar: «U yerda buzg'unchilik qiladigan, qonlar to'kadigan kimsani (xalifa) qilasanmi? Holbuki, biz hamdu sano aytish bilan Seni ulug'laumiz va Sening nomingni mudom rok tutamiz». (Alloh) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsalarni bilaman». 31. Va U zot odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi. So'ngra ularni farishtalarga ro'baro' qilib dedi: «Agar xalifalikka biz haqdormiz degan so'zlaringiz rost bo'lsa, mana bu narsalarning ismlarini Menga bildiring! ». 32. Ular aytdilar: Yeu rok Parvardigor, biz faqat Sen bildirgan narsalarnigina bilamiz. Albatta Sen o'zing ilmu hikmat sohibisan». 33. (Alloh): «Yeu Odam, bularga u narsalarning ismlarini bildir>>, dedi. (Odam) ularga barcha narsalarning ismlarini bildirganidan keyin (Alloh) aytdi: «Sizlarga, Men Yeru osmonlarning sirlarini va sizlar oshkor qilgan va yashirgan narsalarni bilaman, demaganmidim? ». 34. Eslang (Yeu Muhammad), Biz farishtalarga Odamga ta'zim qiling, deyishimiz bilan sajdaga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib – kofirlardan bo'ldi». Vaholanki, sajda bungacha faqat Tangrigagina bajo keltiriladi edi. Demak, Xudo bu bilan barcha mavjudotlardan oliy, daraja nuqtayi nazaridan o'zidan keyin turadigan buyuk zotni yaratganini ye'lon etdi. Odam – Xudoning yerdagi xalifasi.

Ma'lumki, qadimda kosib yoki hunarmand ustaning odatda bir necha shogirdi bo'lgan. Ular orasidagi eng aqlli, tadbirkori, ustaning muhabbatini qozongani usta tomonidan xalifa etib tayinlangan. Xalifaga usta o'zining bir qancha vakolatlarini, jumladan, biror yoqqa safarga ketga, shu muddat mobaynida boshqa shogirdlarni boshqarib, rahbarlik qilib turishni topshiradi. Shunday qilib, usta qaytib kelgunga qadar xalifa uning aytganlari yoki ko'rsatmalarini amalga oshirish bilan mashg'ul bo'ladi. Odam ham Allohga nisbatan ana shunday xalifadir: to u qiyomatga qadar,

ua'ni Tangri dargohiga borgungacha nabotot va hayvonot olami ustidan rahbarlik qilib turadi.

Rahbarlik qilish uchun, tabiiyki, muayyan darajada erkinlikka, erkin harakatni ixtiyor etish huquqiga ega bo'lish, falsafiy ibora bilan aytganda, ixtiyor erkinligi zarur. Ana shu ixtiyor erkinligi faqat insonga berilgan. Farishtalar bunday ma'naviye ne'matdan mahrum – ular faqat Allohning buurug'ini bajaradilar. Lekin insondagi ixtiyor qilish erkinligi ham cheklangan – u Alloh tomonidan Qur'oni karimda umumiy tarzda belgilab berilgan doiradagina mavjud bo'lishi kerak. Shu bois mutlaq erkinlik insonga emas, faqat Yaratganga xos.

Shunday qilib, axloq – oliy mavjudotga ato etilgan oliy ne'mat. Ya'ni axloqning kelib chiqishi ilohiy manbadandir. Ana shu ilohiy asosni asrab-avaylab, taraqqiy toptirish har bir insonning asosiy vazifasi, burchi. Shu bois o'z-o'zini va, iloji bo'lsa, o'zgalarni axloqiy tarbiyalash barcha muqaddas kitoblarda savob sanaladi.

Vu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson aynan hozirgi paytdagi ko'rinishida yaratilgan degan gap haqiqatdan yiroq. U mohiyatan har tomonlama mukammallikka, komillikka qarab boruvchi, taraqqiyotining mohiyati tadrjiiylik bilan belgilanadigan jonzotdir, uning jismoniy, aqliy va axloqiy taraqqiyoti s'zaro bog'liqlikda rivojlanadi: vaqt mobaynida insonning ham ko'rinishi, ham tafakkuri, ham axloqiy xatti-harakati o'zgarib boradi. Shu jihatdan olib qaraganda, odamzodning xunuklikdan chiroylilikka, nodonlikdan oqillikka, q o'pollikdan noziklikka uo'nalganligi tabiiy hol. Demak, uning axloqiy xatti-harakatlari tadrjiiy tarzda noziklashib borgan. Biroq, bunday noziklashuv shaklan qo'rolroq bo'lganlikdan chekinib, botiniy qo'pollikni zohiriy nazokat bilan yopishga, shga ham olib kelgan.

5. XXI asrda global etosfera (axloqiy muhit)ni yaratishning zaruriyati.

Amiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslikning o'z o'rni Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va

har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, mustaqillik faqat siyosiy erkinliknigina emas, balki iqtisodiy erkinlikni ham berdi. Avvallari ishlab chiqarish, tijorat, korxonalarining chet ellar bilan aloqalari to'laligicha davlat tasarrufida edi, endilikda ularning asosiy qismi xususiy mulkdorlar qo'lga o'ta boshladi; davlat mulki bilan xususiy mulk konstitutsion tenglikka ega bo'ldi, mulkdorlar tabaqasi vujudga keldi. Natijada ko'rukladli iqtisodiyotni qonun bilan boshqarishga hatto, o'sha qabul qilingan qonunlarning ishlab ketishiga ham axloqning yordam isiz erishish mumkin yemasligi ayon bo'lib qoldi: iqtisodiyotdagi halollikning, oshkoralikning ta'minlanishi uchun qonunni muhofaza qiluvchi huquq-tartibot organlaridan tortib, to har bir xususiy konsern, firma, tadbirkorgacha axloqiy qonun-qoidalariga amal qilmog'i lozim. Demak, axloqshunoslik iqtisodiyotning axloqiy jihatlarini (tadbirkorlik odobi, tijorat odobi, muomala odobi va h. k.) ishlab chiqishdek vazifani amalga oshirishi kerak. Hozirgacha bu borada muayyan ishlar qilingan, lekin hali ularni yetarli deb bo'lmaydi.

Bundan tashqari axloqshunoslikning sof «ichki» vazifalari ham mavjudki, ular haqida to'xtalib o'tmaslik mumkin emas. Eng avvalo, milliy-mintaqaviy axloqiy tafakkurning tizimli, ilmiy xolislik bilan o'g'irilgan tarixini yaratish va sharoitlar tuzumi taqiqlagan yoki unutilgan axloqiy qadriyatlarni tiklash muhim. Ayni paytda axloq nazariyasining dolzarb masalalarini hal etish, chunonchi, axloqiy tushunchalarni tasniflashtirish, turkumlashtirish, axloqiy madaniyatning nazariy jihatlarini ishlab chiqish, kasbiy o'qitishning zamonaviy nazariy asoslarini yaratish kabi murakkab vazifalar ham yechimini kutmoqda.

Axloqshunoslik oldida qator global muammolarni hal qilishdek o'ta muhim vazifalar ham bor. Ulardan biri va birinchisi ilm-fan taraqqiyoti tufayli vujudga kelgan texnikaviy bosimni bartaraf etish. XX va XXI asrda erishilgan fan-texnika yutuqlari hozirgi paytda inson va u yashayotgan sayyoraning kelajagiga tahdid solmoqda. Atom, vodorod, neytron bombalari, ballistik raketalar, eng yangi

texnikaviy ko'rsatkichlarga ega qiruvchi, bom bardimon harbiy o'choqlar, suv osti va suv usti kemalari, eng yangi rusumdagi tanklar hamda turli-tuman qurollar hammasi insonni uo'q qilishga qaratilgan. Ularni ishlab chiqarish korxonalari va sinov maydonlari ekologik buhronlarning manbaidir. Bular bir yoki bir necha mamlakat uchun emas, balki global, umumsayyoraviy falokat hisoblanadi. Ularning oldini olishni faqat bir uo'l bilan – biz yashayotgan texnikaviy muhitda (noosferada) axloqiy muhitni (etosferani) barqor etish orqali hal qilish mumkin. Shuningdek, biologik axloqshunoslik, ekologik axloqshunoslik, o'lim jazosini bekor qilish muammolari ham global tabiatga ega.

Mavzuga oid nazorat savollari:

1. «Axloqshunoslik» tushunchasi nimani bildiradi?
2. Odob nima?
3. Xulq nima?
4. Axloq nima?
5. «Axloq» istilohi keng va tor ma'nodagi tushuncha tarzida nimani anglatadi?
6. Axloqshunoslikning falsafiy fan sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi nimalarda ko'rinadi?
7. Axloqshunoslik qaysi ma'naviy-ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqada?
8. Axloqshunoslikning ahamiyati va vazifalari nimalardan iborat?

12-BOB NAFOSAT FALSAFASI (ESTETIKA)

12-1. Nafosat falsafasi (estetika)

Reja:

1. Estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
2. «Estetika» kategoriyalarining falsafiy mazmuni va mohiyati.
3. Pedagogik faoliyat estetik didni shakllantirishning muhim omili.
4. Axborot estetikasining o'ziga xos xususiyatlari.

Mavzuga doir tayanch tushunchalar: estetika, estetik ong, estetik ehtiyoj, estetik his-tuyg'u, sport estetikasi, texnika estetikasi, dizayn estetikasi, go'zallik, ulug'vorlik, kulgililik, fojeaviylik, realizm, romantizm, makon san'ati, vaqt san'ati, vaqt-makon san'ati.

«Estetika» atamasi yunoncha «estezis» ua'ni hissiyot, sezish, hayajon, qo'zg'olish ma'nolariga ega bo'lgan so'zdan olingan. (Vu tor tushuncha).

Aslini olganda estetika fani bir tomondan insonning atrof muhit, voqelikka, go'zallik va xunuklik qadriyatlari doirasidagi olamni yaratish jarayonidagi faoliyatini namoyon etadi.

Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib, takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi.

Shunday qilib, estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, estetika – bu nafosat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuug'u, sezgini idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan fandır.

12.1. Estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadi. Borliqni estetik o'zlashtirish esa san'atning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shuning uchun estetika fani san'atning ilmiy-uslubiy metodlarini zamini boy xizmat qiladi.

Estetika fanining o'ziga xos xusiyati shundan iboratki, bu fan inson tevarak atrofidagi moddiy va ma'naviy boyliklarning barchasini qamrab olishga, inson faoliyatining barcha jabhalaridagi go'zallik olamini san'at barcha turlari vositasida chuqur o'rganishlariga da'vat etadi. San'at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir.

Estetika fani – badiiy ongning vujudga kelishini va uning ziddiyatli rivojlanishini, shuningdek, inson estetika faoliyatining oliy shakli – san'atning mohiyatini ochib beradi. Estetika fani predmeti, uning muammolari va vazifalari o'zgarib boradi. Buning sababi ijtimoiy ziddiyatlarning mavjudligi, san'at, fan, falsafaning rivojlanishi, texnikaning taraqqiyoti va boshqalar ta'sir qildi. Bundan tashqari san'atning yangi tur va janrlarining vujudga kelishi, eskilarning o'zgarishi, kishilarning sub'uyektiv qobiliyatlari, estetik kechinmalari, didlari va ideallarining doimo o'zgarib turishi estetika predmetining o'zgarib turishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Estetika so'zi dastlab fanning nomi sifatida 1775-yilda nemis faylasufi A. Baumgarten tomonidan «Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar» degan asarida ishlatilgan. Bir oz Baumgertenni estetika fanining asoschisi deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi, chunki estetika nazariyalari antik davridayoq paydo bo'lgan edi. Keyinroq estetik fikr o'rta asrlarda Renessans davrida kengroq tarqaldi, rivojlandi. XVIII asrga kelib estetika falsafiy xarakterdagi mustaqil fan sifatida ish ko'rdi.

Nemis faylasuflari I. Kant, V. Gegel estetika faniga «Estetik» degan ichani kiritdilar. U yangi tushuncha estetika fanini konkretlashtirdi va lashtirdi. Shundan buyon hamma estetik tushunchalar, masalan, «go'zal», «li», «olijanob», «fojiali», «hajviy», «satirik», «dramatik», «did» va alar «estetik» degan umumiy asosga ega bo'ldilar. Bularning har biri o'z oatida estetik kategoriyalar sifatida namoyon bo'ldi.

«Estetik» kategoriyayalarning asoslanishi estetikadagi muhim kashfiyotlardan biri bo'ldi. Vu kategoriya fan sohasini ancha kengaytirdi, uni voqelikdagi estetik hodisalar bilan bog'ladilar, uning vazifa va maqsadlarini kionkretlashtirdi. XVIII – XIX asrga kelib Belinskiy, Chernishevskiy estetika fanini rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Estetika fanining predmeti olamni «go'zallik qonunlari asosida» shakllantiruvchi inson mehnatini o'z ichiga oladi.

Lekin inson olamini «go'zallik qonunlari asosida» shakllantirishdan, o'zgartirishdan oldin, u mehnat qurollarini yaratish lozim edi, Mehnat qurollari tufayligina odam tabiatni «go'zallik qonunlari» asosida o'zgartira boradi. Bundan tashqari inson tabiatni go'zallik qonunlari asosida o'zgartirishi uchun faol harakat qilishi ham lozim.

Biz tabiat ob'uyektlarini «go'zallik qonunlari asosida» o'zgartirishda quyidagi uch jarayon protsessini ko'ramiz.

- 1). Inson tomonidan mehnat qurollarini tayyorlash jarayoni;
- 2). Mehnat qurollarining inson a'zolari bilan qo'shilib ketish jarayoni (bu jarayon inson tafakkuri ishining ham o'z ichiga oladi);
- 3). Mehnat qurollarining san'at asoslari yaratish maqsadida tabiatga ta'sir qilish jarayoni;

San'at asarlari paydo bo'lishi bilan yangi jarayon – san'at asarlarini «istye'mol» qiluvchilarga ta'sir qilish jarayoni boshlanadi, bu jarayon san'at asarini yaratgan san'atkorning o'zini ham ichiga oladi. San'at asarlarining insonga ta'sir qilish jarayoni – estetikaning tekshirish ob'uyektidir.

San'at asarlarining «istye'molshilar»ga ta'siri jarayonida kishilarda estetik tuug'u, estetik extiyoj, estetik did shakllanadi va natijada estetik ideal vujudga keladi. Vu ideal esa san'at asarini yaratishga undaydi.

Estetik extiyojlar, estetik tuug'ular, badiiy zidlar, shuningdek san'at asarlari to'satdan paydo bo'lmasdan moddiy ishlab chiqarish rivoji ancha yuqori bosqichga ko'tarilgandan keyingina paydo bo'ladi.

Shunday qilib estetika inson tomonidan ob'uyektiv voqelikni badiiy o'zlashtirishning eng umumiy qonunlari to'g'risidagi san'atning voqelikka munosabati uning mohiyati, rivojlanish qonunlari va ijtimoiy o'zgartuvshilik roli to'g'risidagi fandır.

Estetikaning asosiy masalasi – *estetik opg* voqelikka qanday munosabatda bo'ladi, jamiyatini iqtisodiy bazisi qanday qilib estetik ongning barcha tur va ko'rinishlarini belgilaydi degan masalani hal qilishdan iborat. Estetika o'z taraqqiyotida boshqa fanlarning yutuqlariga tayyanadi va o'z navbatida ijtimoiy ong va ijtimoiy amaliyotning o'ziga yaxshi shakllariga faol ta'sir ko'rsatadi, ularni boyitadi.

Hozirgi davrda estetika ijtimoiy hayotning barcha sohalariga jumladan moddiy ishlab chiqarishga ijtimoiy texnikaviy ijodga va turmushga kirib bormoqda. Bu hol estetika fanining g'ouaviy – tarbiyaviy roli kun sayin oshib borishini taqozo qiladi va uning oldiga muhim nazariy va amaliy masalalarni hal qilish vazifasini qo'uadi.

Go'zallikka intilish tabiiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida namoyon bo'ladi. Go'zallik qurshovida yashagan inson bilan xunuklik muhitida o'sgan odam o'rtasida katta farq bor. Go'zallik tarbiyasi insonni ma'naviy jihatdan kamolotga yetaklaydi, estetik his-tuug'ularni taraqqiy ettiradi.

Estetik his-tuug'i insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuug'u paydo qiluvchi go'zallik va xunuklikni, ulug'vorlik va pastkashlikni, fojiaiviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Estetik ehtiyoj – ezigulikka, go'zallikka intilishdir. Bu ehtiyoj mehnat, san'at, axloqiy munosabatlardagi go'zallikni taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyat t'alari borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo'ladi. Go'zallik san'atda hida qimmatgba ega. San'at inson munosabatlari go'zalligini – fidoyilik, anoblik, ezigulik, yaxshilik, adolat, jasorat, vatanparvarlik kabi tushuncha aklidagi xolatlarni badiiy ifodalash orqali aks ettiradi.

12.2. Pedagogik faoliyat estetik didni shakllantirishning muhim omili.

U, eng avvalo, falsafiy bo'lib, uning nazariy va uslubiu asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil etadi. Masalan, voqelikni estetik va badiiy o'zlashtirish jarayonlarini o'rganishda xolislik, tarixiy yondoshish, bilish jarayonida amaliy tajribaning ahamiyati kabi uslubiu asosni qo'llash ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Estetika fani mustaqil bilim sohasini tashkil etgan holda u falsafaning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

Masalan, bilish nazariyasining yanada rivojlanib, mazmunan boyib borishida badiiy bilish ham muhim o'rin tutadi. Bilish nazariyasi, badiiy madaniyat qadriyatlari, voqelikka estetik munosabat, estetik tushunchalar, ayniqsa ijtimoiy ong, uning nisbiu mustaqilligi haqidagi fikr – mulohazalar ham qur jihatdan san'at bilan bog'liqdir.

Estetika fani mazmunan sotsiologiya bilan aloqadordir. Estetika sotsiologiya fani bilan uch tarkibiy qism orqali bog'lanadi:

Ijtimoiy voqea va xodisalar hamda jarayonlarning uslubiu asosi hisoblangan umumsotsiologiya nazariyasi estetikaning ham ilmiu – nazariy asosi b'lib xizmat qiladi.

Sotsiologiya ijtimoiy voqea – hodisalarning xususiy, alohida, nisbiu mustaqil sohalari (siyosat, davlatlar, millatlar, san'at turlari va ko'rinishlari)ni qamrab olgan holda estetika va badiiy ijod jarayonlarining ayrim tomonlari bilan uzviu bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Aniq sotsiologik tadqiqotlar orqali olinadigan dastlabki ijtimoiy axborotlar, ma'lumotlar estetik va badiiy faoliyat jarayonlarini ham qamrab oladi. Shunday qilib, estetika sotsiologiyaning barcha bilim darajalari bilan u yoki bu ko'rinishlarda o'zaro aloqadorlikda bo'lib, bu aloqadorlik xilma – xil uo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, estetika umusotsiologik nazariyaga tayangan holda o'zining g'ouaviu – mafkuraviy, ijtimoiy – siyosiy, ma'naviu – axloqiy uo'nalishlari va maqsadlarini shakllantiradi. Sotsiologiya san'at bilan jamiyat o'rtasidagi turli – tuman aloqalarni tadqiq etadi.

Estetika fani ruxiyatshunoslik (psixologiya) fani bilan ham chambarchas bog'liq. Voqelikka estetik munosabatning barcha tomonlari estetik did yoki estetik his – tuug'u, badiiy ijod yoki badiiy idrok qilish jarayonlarining hammasi ruhiyat mezonini bilan o'lshanadi. Chunki estetika u yoki bu darajada insonning ruhiy, xis – tuug'u holatini ifodalaydi.

Ruxiyatshunoslik (psixologiya) fani estetik munosabatlarning barcha tomonlarini, jumladan, badiiy ijod va idrok jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiq etadi. Ayni paytda estetika fani inson ruhiy hayotining eng murakkab va nozik tomonlarini qamrab oladi. Estetikaning tarkibiy qismlarini ruxiyatshunoslik fanining erishgan yutuqlari va xulosalarida keng foydalanmasdan turib tasavvur etib bo'lmaydi.

Estetika fanining hozirgi davrga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu soxaga kibernetika, matematika kabi fanlarning usul va vositalari ham izchil kirib kelmoqda.

Estetika san'atshunoslik bilim sohalari uchun boshlang'ish nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qildi. Estetikasiz san'atshunoslik bo'lmaydi, u'ni u ayrim voqea hodisalar sharhi bilan shug'ullanishiga majbur bo'lib qoladi. Shuni alohida y'e'tiborga olish kerakki, estetika xususiy san'atshunoslikning umumiy qonuniyatlari, eng avvalo, nafasat tabiati va estetik timsol qonuniyatlarini o'zida namoyon qiladi.

